$$= \frac{1}{329} (9 \cdot 118 + 4 \cdot 143 + 1 \cdot 68) - 2,152^2 = 0,5423$$

Дисперсия хатоликлар квадратлари йиғиндисини аниқлайди. Дастлабки ўлчамга келиш учун квадрат илдиз олинади ва ўртача квадрат хатолик тушунчасига келинади:

$$S_{X^{(0)}} = \sqrt{\frac{1}{n} \sum_{i=1}^3 (X_i^{(0)})^2 n_i^{(0)} - (\bar{X}^{(0)})^2} =$$

$$= 0,7952; S_{X^{(1)}} = \sqrt{\frac{1}{n} \sum_{i=1}^3 (X_i^{(1)})^2 n_i^{(1)} - (\bar{X}^{(1)})^2} = 0,6594;$$

$$S_{Y^{(0)}} = \sqrt{\frac{1}{m} \sum_{i=1}^3 (Y_i^{(0)})^2 m_i^{(0)} - (\bar{Y}^{(0)})^2} = 0,8039; S_{Y^{(1)}} =$$

$$= \sqrt{\frac{1}{m} \sum_{i=1}^3 (Y_i^{(1)})^2 m_i^{(1)} - (\bar{Y}^{(1)})^2} = 0,7364.$$

Гуруҳлардаги ўқувчиларнинг билим даражалари орасидаги фаркни баҳолаш учун вариация коэффицентини қўлланилади:

$$C_{X^{(0)}} = \frac{0,7952}{2,0239} \cdot 100\% = 39,2884, C_{X^{(1)}} = \frac{0,6594}{2,4209} \cdot 100\% = 27,2372$$

$$C_{Y^{(0)}} = \frac{0,8039}{2,0334} \cdot 100\% = 39,5354, C_{Y^{(1)}} = \frac{0,7364}{2,152} \cdot 100\% = 34,2187$$

Вариация коэффицентини қийматларидан билим даражаси ҳар хил бўлган ўқувчилардан гуруҳлар тузилгани келиб чиқади. Тажриба гуруҳидаги ўқувчиларда бу фарқ тажриба сўнгида 39,2884-27,2372=12,0512% камайган.

Стьюдент критериясини фойдаланиб юқоридаги H_0 гипотезани текшириш учун эмпирик қиймат қуйидаги формула ёрдамида ҳисобланади:

$$t_{эмт} = \frac{|\bar{X}^{(0)} - \bar{Y}^{(0)}|}{\sqrt{n \cdot S_{X^{(0)}}^2 + m \cdot S_{Y^{(0)}}^2}} \cdot \sqrt{\frac{n \cdot m}{n+m}} \cdot (n+m-2) =$$

$$= \frac{|2,0239 - 2,0334|}{\sqrt{335 \cdot 0,6323 + 329 \cdot 0,6463}} \cdot \sqrt{\frac{335 \cdot 329}{335+329}} \cdot (335+329-2) = 0,1537$$

Қийматлилиқ даражаси $\alpha = 0,05$ ва эркинлик даражаси $r = 335 + 329 - 2 = 662$ бўлганда Стьюдент тақсимотининг қийматлар жадвалидан $t_{кр} = 1,647$

критик қийматни аниқлаймиз. $t_{эмт} < t_{кр}$ бўлганликдан

H_0 : «Тажриба ва назорат гуруҳидаги ўқувчилар бир бош тўпландан танлаб олинган» гипотезасини бекорлаш учун ҳеч қандай асосга эга эмасмиз. Демак, тажриба ва назорат гуруҳлари $1 - \alpha = 1 - 0,05 = 0,95$ эҳтимолли билан тўғри англаб олинган. Бошқача айтганда, танлаб олинган тажриба ва назорат гуруҳларидаги ўқувчиларнинг билим даражалари орасидаги фарқ 5% дан ортмайди.

Кўрсаткичнинг бу интервалдан қиймат қабул қилиш эҳтимоли 1 га яқин қилиб олинади.

Педагогикада нормал тақсимланган X тасоддий миқдорнинг математик кутилмаси a ни ўртача квадрат хатолик ёрдамида баҳолаш кенг тарқалган. Бунда математик кутилма учун ишончлилиқ интервали

$$\bar{X} - t \frac{S_x}{\sqrt{n}} < a < \bar{X} + t \frac{S_x}{\sqrt{n}}$$

кўринишда бўлиб, $\delta = t \frac{S_x}{\sqrt{n}}$ баҳолаш аниқлиги, n

танлама ҳажми, $\bar{X}$ ўрта қиймат, t Лаплас функциясининг $\Phi(t) = \frac{1-\alpha}{2}$ тенглигини қаноатлантирувчи аргу-

менти. $\alpha = 0,05$ бўлганда $\Phi(t) = \frac{0,95}{2} = 0,475$ бўлади.

Лаплас функциясининг қийматлар жадвалидан $t = 1,65$ ни аниқлаймиз.

Ҳар бир гуруҳидаги ўқувчилар сони 100 дан кам бўлмаса, улар оладиган балл X миқдори нормал тақсимланган тасоддий миқдор деб қараса бўлади. Унинг ўрта қиймати ўртача баллни беради ва демак юқоридаги ишончлилиқ интервали ёрдамида тажриба ва назорат гуруҳидаги ўқувчиларнинг ўртача балларини интервалли баҳолаш мумкин экан.

Гуруҳлардаги ўқувчиларнинг ўртача балллари учун $1 - \alpha = 1 - 0,05 = 0,95$ эҳтимоллиги билан ишончлилиқ интервали қуйидагича бўлади:

Тажриба бошида: $1,9524 < a < 2,0953$

Тажриба охирида: $2,3616 < a < 2,4802$

Назорат бошида: $1,9605 < a < 2,1063$

Назорат охирида: $2,0852 < a < 2,2188$



Ишончлилиқ интервалларнинг жойлашишини геометрик тасвирдан тажриба охиридаги ўртача балл учун интервал баҳо, назорат охиридаги интервал баҳо билан устма- уст тушмаслиги ва барча интерваллар ўнгга жойлашганини кўриш мумкин.

Хулоса. Бу ўқиш саводхонлиги дарсларини ўтишда матнни таҳлил қилиш методини қўлланиш таълим самарадорлигини яхшилагинини билдиради. Самарадорликни баҳолашда бу маълумотларни график усулда таққослаш, яхши натижа беради. Мақолада шундай методлардан бири матнни таҳлил қилиш методининг самарадорлигини баҳолаш усуллари кўриб чиқилди.

Адабиётлар

1. Abdurazakova N.S. Baslawish tálimde tekst ústinde islew arqalı oqıwshılardıń sóylew hám erkin pikirlew qábletin rawajlandırıw. International scientific journal. Science Shine. Issue 1 Volume 1, ISSN 3030-377X, 15.01.2025. 130-140 p.

2. Abdurazakova N.S. Boshlang'ich ta'limda matn ustida ishlash orqali o'quvchilar nutqini va mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish. International scientific-practical conference innovative development of science and education: new approach and research. October 5, 2024. 268-270-b. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13896917>.

3. Abdullayeva A., Nusratova H.Ch., Abdullayev F.A., To'rayev A.B. Umumiy pedagogika . – T.: «Fan va texnologiyalar», 2021. 117-b.

4. Афанасьев В.В., Сивов М.А. Математическая статистика в педагогике. – Ярославль: ЯГПУ, 2010. – С.76.

РЕЗЮМЕ. Мақолада ўқиш саводхонлиги дарсларини ўқишда матнни таҳлил қилиш методини қўлланиш ва бошланғич таълимда матнни таҳлил қилиш методининг самарадорлигини баҳолаш ҳақидаги маълумотлар берилган.

РЕЗЮМЕ. В статье представлена информация о применении метода анализа текста на уроках читательской грамотности и оценке эффективности метода анализа текста в начальном образовании.

SUMMARY. The article provides information on applying the text analysis method in reading literacy lessons and assessing the effectiveness of the text analysis method in primary education.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA UMUMMILLIY QADIRIYATLAR MOHIYATI

G.B.Babasheva – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

D.Q.Jiyanbayeva – *magistrant*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: Umummilliy qadiriya, tarbiya, ma'naviyat, madaniyat, vatanparvarlik, interaktiv metod, yosh avlod, urf-odat, me'ros.

Ключевые слова: национальная ценность, воспитание, духовность, культура, патриотизм, интерактивный метод, молодое поколение, обычаи и традиции, наследие.

Key words: National value, education, spirituality, culture, patriotism, interactive method, young generation, customs and traditions, heritage.

Kirish. Har qanday millatning o'ziga xos madaniyati, tarixi va qadiriylari mavjud bo'lib, ular avloddan-avlodga o'tib, xalqning ma'naviy negizini tashkil etadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimi islohatlarining markazida aynan shu umummilliy qadiriylarni yoshlarga singdirish masalasi turadi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda, ularning ongida vatanga muhabbat, milliy g'urur, mehnatsevarlik, odob-axloq kabi qadiriylarni shakllantirish ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasiga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, boshlang'ich ta'lim jarayonida umummilliy qadiriylarga asoslangan yondashuv, nafaqat bilim berish, balki komil insonni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi" [2] deb keltirilganligi bugungi kunda ma'naviy va madaniy qadiriylarning nechog'liq muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Har davrning aktual muammosi bu yoshlarni tarbiyalashdir. Chunki ertangi kelajak shu yosh avlodning bugungi olayotgan tarbiyasi, bilimiga bogliq. Bugungi globallashuv davrida yosh avlodlarni tarbiyalashda, o'qitishda va yetuk inson bo'lishda milliy qadiriylar mohiyati juda katta. Milliy qadiriylar, ular mansub bo'lgan xalqning tarixi, yashash tarzi, tili, urf-odatlari, manaviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda nomayon bo'ladi [4]. Ayniqsa maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilarning ongiga milliy qadiriylarimizning mohiyatini singdirish kelajakda ularning shaxs sifatida har tarafлама shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Maktab darsliklarida umummilliy qadiriylarimizning har biriga alohida to'xtab o'tish va o'rgatish o'quvchilarimizning qadiriylarga bo'lgan hurmat va muhab-

batini oshiradi. Umummilliy qadiriylar – bu urf-odatlarni, madaniyatni xalqning tarixini, an'alarini o'zida mujassam etgan manaviy merosdir. Bu qadiriylar bo'lsa insonning manaviy, axloqiy tarbiyasida muhim ro'l o'ynaydi. Ular shu jamiyatning o'ziga xosligini, madaniy yutuqlarini, diniy e'tiqodlarini, ijtimoiy hayot tajribasini o'zida aks ettiradi va jamiyatning turli sohalarida namoyon bo'lib, avloddan-avlodga o'tib keladi. Ayniqsa ularni yosh avlodlarga o'rgatish, avlodlar orasidagi manaviy ko'priklar bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda milliy qadiriylarni yosh avlodga o'rgatish muhim hisoblanadi.

Masalan Milliy tiklanish jarayonida milliy qadiriylar va madaniyatni tiklash olohada ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki milliy qadiriylarni asrab avaylash har bir jamiyat uchun muhim hisoblanadi. Buning asosiy sababi o'tmishni anglamastan kelajak barpo etish naqadar mushkul ekanligi. Qadiriylarni tiklash orqali esa yosh avlod tarixni, madaniy meroslarni va millatga xos qadiriylarni qalban anglaydi, ularni asrab avaylaydi va u qadiriylar zaminida ulgayishiga imkon yaratiladi. Haqiqatdan ham milliy va ma'naviy boyliklar bir millatning butun o'tmishini, an'alarini, millatning tub mohiyatini o'zida mujassam etadi.

Boshlang'ich ta'lim darsliklarida milliy qadiriylarni o'rgatish, o'zligini va milliy g'ururini shakllantirishga, ularni begona madaniyatlar ta'siridan himoya qilishga ya'ni milliy an'alarimiz, qadiriylarimizdan uzoqlashib ketmaslikka yordam beradi. Umummilliy qadiriylarga esa tarixiy, madaniy, ma'naviy, diniy, ijtimoiy, ilmiy va ta'limiy qadiriylar kiradi. Har bir qadiriylarning mohiyatini o'quvchilarga anglatish ularni ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalaydi. Jumladan:

- tariyxiy qadiriylar xalqning barpo etgan tariyxiy obidalarini, o'tmish tajribasini, buyuk ajdodlari qahromonliklarini va mustaqillik uchun kurashlarini kelajak avlodga yetkazib, vatanparvarlik hissini uyg'otish mumkun;

- madaniy qadiriyaqlar millatga xos urf-odatlar, san'at, adabiyot, musiqa va xalq ogzaki ijodlari kabi an'analarini o'z ichiga oladi. Bularni o'quvchilarga o'rgatish orqali ularning millatga xos o'zligini bilishiga hissa qo'sha oladi;

- ma'naviy qadiriyaqlar bular odoblilik, halollik, mehr-oqibat insoniylik kabi fazilatlarini o'zida mujassam etadi. Yosh avlodga bu fazilatlarini o'rgatish esa shaxsiy kamolotini, jamiyatga moslashuvchanligini va yuksak axloqiy qarashlarga ega yoshlarni tarbiyalashimizga hissa qo'shadi;

- diniy qadiriyaqlar-insonni ma'naviy va ruhiy poklikka, ezigulikka halollikga chorlovchi prinsiplar bo'lib ular o'quvchilarning ma'naviy va ruhiy shakllanishida muhim o'rin tutadi;

- ijtimoiy qadiriyaqlar-bu odoblilik, adolat, mehr-oqibat, mas'uliyatlilik kabilarni o'z ichiga oladi. Ularni o'quvchilarga o'rgatish, insonlar bilan yaxshi munosabatlarni o'rnatadigan, zo'ravonlik, adolatsizlik kabi illatlarga qarshi tura oladigan, sog'lom dunyoqarashli avlodni shakllantiradi;

- ilmiy va ta'limiy qadiriyaqlar-bilim olish, izlanish, ilimga hurmat kabilarni o'zida mujassam etadi. Bu qadiriyaqlar zaminida buyuk olimlarimiz mehnatlarini o'rganish va ularni asrab-avaylashga o'rgatish mumkin.

Bularni o'quvchilarga o'rgatish orqali to'g'ri so'z, halol, mehr-oqibatli, bag'rikeng, vijdoni pok kelajak avlodlarini tarbiyalashimiz mumkin. Shuningdek, ijtimoiy munosabatlarning takomillashishiga ya'ni kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, do'stlar bilan yaxshi aloqa o'rnatish, oilada va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish kabi hislatlarni ham shakllantirishimiz, bir so'z bilan aytganda zararli oqimlardan himoyalana oladigan yosh avlodni tarbiyalashdek yuksak imkoniyatga ega bo'lamiz.

Natijalar. O'z xalqi va yurti tarixini chuqur bilish, unimimsiz o'rganish, ajdodlarining vatan, millat oldidagi yuksak ishlarini munosib davom ettirgan holda boy merosini asrab-avaylash, o'tmishdan saboq chiqarish, tarixda ro'y bergan voqea-hodisalarni xolis baholash, ularning oqibatini to'g'ri tushunish aqli raso inson hayotining mazmunidir. Inson o'zining tarixiy xotirasiga ega bo'lmasdan turib, hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarning mohiyatini tushunib yetolmaydi, kelajagini to'g'ri tasavvur qila olmaydi. Shuning uchun ham jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlar har xil aqidalar ta'siriga tushub qolmaydi [3].

Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilimiy-manaviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bagishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan to'yindirmoq kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulomalarimiz bu ma'naviy

xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur [1].

Muhokama. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga umummilliy qadiriyaqlarni o'rgatish bu ularning ta'lim jarayonidagi darsliklar ichidagi mavzular orqali va ustozlarning ta'lim-tarbiyasi orqali amalga oshadi. Jumladan, maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Tarbiya", "O'qish", "Ona tili", "Texnologiya", "Musiqa", "Jismoniy tarbiya" va boshqa fanlar ichida umummilliy qadiriyaqlarimiz haqida mavzular, mashqlar va topshiriqlar keltirilgan bo'lib shu darsliklar qamrovida o'quvchilarga milliy qadiriyaqlarimizning mohiyati o'rgatiladi. Sinf soatida esa umummilliy qadiriyaqlar haqida mavzular keng yoritilib beriladi.

Masalan, darsliklar ichidagi umummilliy qadiriyaqlarimizga oid matnlar, hikoyalar, ertaklar, maqollar, tariyxiy voqealar, milliy an'analar haqida hikoyalar orqali tushuntirib o'quvchilar ongiga milliy qadiriyaqlarimiz mohiyatini yetkazib berish mumkin. Jumladan, "Ona tili va adabiyot" darsliklarida milliy qadiriyaqlarimiz aks etgan ertaklar, hikoyalar, maqollar, she'rlarni o'qib tushuntirish, muhokama qilish orqali o'rgatib borilsa, "Tarbiya" darsida xalqimizning milliy urf-odatlarini, marosimlarini va millatga xos fazilatlarini singdirishimiz, "Texnologiya" darsida milliy hunarmandchilgimizning turlarini va milliy taomlarimiz qanday ishlanishi haqidagi tushunchalarini shakllantirishimiz mumkin.

Shuningdek "Musiqa" darslarida milliy qo'shiqlarimizni, milliy cholg'u asboblari va milliy liboslarning tariyxiy ahamiyatini esa musiqa darsliklarida o'rganishlari, "Jismoniy tarbiya" darslarida milliy o'yinlarimizdan arqon tortishish, kurash, chiganoq o'yinlari haqida tushunchalarini mustahkamlanib o'quvchilardagi bilish va o'rganish imkoniyatlari ortib boradi. Buning uchun o'quvchilarga oson va qulay etkizilishi uchun zamon talabiga mos ya'ni interaktiv metod va didaktik materiallardan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanishi lozim.

Boshlang'ich sinf bosqichi – bu nafaqat bilim berish, balki yosh avlod qalbiga milliy gurur, vatanparvarlik va ajdodlar merosiga hurmat tuygularini singdirishning eng mas'uliyatli davridir. Umummilliy qadiriyaqlar esa o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Ushbu qadiriyaqlar orqali bolalarda ona tiliga, tarixga, milliy urf-odat va an'alarimizga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi.

Xulosa. Yosh avlodga umummilliy qadiriyaqlarni singdirish orqali milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-oqibat, o'dob-axloq va madaniyat kabi hislatlarni shakllantiramiz va yosh avlodning ma'naviy yetuk bo'lib yetilishiga hissa qo'shamiz. Bu bilimlarning barchasi kelajakda o'zligini anglagan yoshlariga ega rivojlangan davlat barpo etish uchun berilmoqda. Umummilliy qadiriyaqlarimizni saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazish esa jamiyatimizning har bir a'zosining burchidir.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2023.
3. Qo'chqorov V., Mahmudov O., Zamanov Z. Ma'naviyat asoslari. Darslik. – Toshkent: «Yangiyo'l Poligraf Servis», 2018.
4. <https://yuz.uz/uz/news/shavkat-mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega>

REZYUME. Ushbu maqolada umummilliy qadiriylatlarni keng targ'ib qilish bo'yicha olib boriliyatgan tashabbuslar haqida, ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati va o'rgatishning yangi metodlarini yaratish, yosh avlodga umummilliy qadiriylatlarning qadr-qimmatini tushintirish va asrab-avaylashga o'rgatish yuzasidan metodik tavsiyalar beriladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматриваются проводимые инициативы по широкому продвижению общенациональных ценностей, значимость каждой из них в воспитании молодежи, а также создание новых методов обучения этим ценностям. Также уделяется внимание вопросам разъяснения молодому поколению сущности и значимости общенациональных ценностей, их бережного отношения и сохранения.

SUMMARY. This article discusses the initiatives being carried out to widely promote national values, the importance of each value in the upbringing of youth, and the development of new methods for teaching these values. It also focuses on explaining the significance of national values to the younger generation and teaching them to cherish and preserve these values.

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KOGNITIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK TA'MINOTI

A.K.Bazarbaeva – *assistent o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: kognitiv qobiliyat, didaktik ta'minoti, metodlar, keys, dialog, interfaol, kreativ fikrlash, kommunikativ qobiliyat, kompetensiya.

Ключевые слова: когнитивная способность, дидактическое обеспечение, методы, кейс, диалог, интерактивный, креативное мышление, коммуникативная способность, компетенция.

Key words: cognitive ability, didactic support, methods, Case study, dialogue, interactive, creative thinking, communicative ability, competence.

Kirish. Bo'lajak tarbiyachilarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishning didaktik ta'minoti - bu talabalarning aqliy rivojlanishiga turtki beruvchi ta'lim metodlari va metodikalarini o'z ichiga oladi. Bo'lajak tarbiyachilarda kognitiv qobiliyatlar talabalarning olgan bilimlarini mustahkamlab, xulosa chiqarish, diqqat-e'tiborini bir joyga to'plash, muammolarni hal qilish, ma'lumotlarni eslab qolish va fikrlash kabi aqliy jarayonlar bilan bog'liq. Bu qobiliyatlarni rivojlantirishda pedagoglarning roli katta bo'lib, ular ta'lim va tarbiya berishda maxsus didaktik vositalar va metodlardan foydalanishlari kerak [1].

Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni va mohiyati, ularning pedagogik faoliyatida zamonaviy talablarga mos ravishda, aqliy va ijodiy faollikni oshirishga, muammolarni hal qilishda to'g'ri qarorlar qabul qilishga yo'naltirilgan jarayondir. Kognitiv qobiliyatlar, insonning bilimlarni qabul qilish, ishlash, o'rganish, qayta ishlash, shunidek, turli vaziyatlarda aqliy faollik ko'rsatish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Kognitiv qobiliyatlar - tarbiyachilar uchun muhim bo'lgan asosiy qobiliyatlardir. Bu qobiliyatlar tarbiyachilarga o'z pedagogik vazifalarini samarali bajarishga yordam beradi.

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishning mohiyati, asosan, tarbiyachilarning pedagogik ishlash qobiliyatlarini takomillashtirishga, ularning faolligini va ijodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan. Bu mohiyat, tarbiyachilarning intellektual faoliyatining yuqori darajada bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi [2]. Kognitiv qobiliyatlar rivojlangan tarbiyachi, tarbiyalanuvchilarning psixologik holatlarini tushunishga va ularga individual yondashuvlarni ishlatishga ega bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar va ishlanmalar sohaga katta e'tibor qaratayotganini ko'rsatadi. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar, asosan, pedagogika, psixologiya va ta'lim metodologiyasini, talabalarning intellektual salohiyati, aniq fikrlash, muammo yechish qobiliyatlari va ijodiy harakatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarini olib borgan olimlardan Sh.Alimov oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha bir nechta tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlari asosan aniq fanlar ta'limiga va talabalarning analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

J.Hasanboyev tadqiqotlari talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion ta'lim metodlarini qo'llashga qaratilgan. Uning ishlanmalari zamonaviy o'qitish texnologiyalari va metodologiyalariga yo'naltirilgan. X.To'raqulova talabalarning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning tadqiqotlari ta'limdagi innovatsiyalar va kognitiv psixologiyaga asoslangan. O.Hasanboyeva esa maktabgacha ta'limda talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib bormoqda, M.Haydarov talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish va ta'limdagi zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan [3].

Bu olimlar va ularning ishlanmalari talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan muhim tadqiqotlar sifatida ahamiyatga ega bo'lib, ularning ishi O'zbekistondagi ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantiruvchi didaktik ta'minotning asosiy turlari:

1. Ta'lim materiallari. Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli maqsadlarga asoslangan o'quv materiallari, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar va o'yinlar muhim ahamiyatga ega.

2. Ta'lim metodlari. Keys usulida o'qitish, dialog usulida o'qitish, interfaol o'yinlar, kreativ fikrlashga yo'naltirilgan metodlar kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda samarali bo'ladi.

3. Muammolarni hal qilish. Ta'lim va tarbiya jarayonida muammoga asoslangan metodlar va shaxsiy tajribalarga asoslangan misollar bilan ishlash kognitiv qobiliyatlarni mustahkamlashga yordam beradi.

4. Tarbiyachiga qo'yiladigan talablar. Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun talabalarga turtki beruvchi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak. Ular har bir bolaning yoshiga mos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, bolalarning qiziqishini oshirishi, yangi bilimlarni o'zlashtirish va teran fikrlashga yo'naltirishi kerak. Tarbiyachiga qo'yiladigan talablar bolalarni mamlakatimizga foydasi tegadigan inson, jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida tarbiyalash.

5. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda tarbiyachi maktabgacha ta'lim yoki pedagogika sohasida oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lishi, bolalar bilan ishlash usullari, ta'lim va tarbiya metodlarini yaxshi bilishi, maktabgacha ta'lim standartlari va metodik qo'llanmalar bilan tanish bo'lishi, yangi texnologiyalarni, masalan, multimedia, interfaol platformalardan foydalana olishi muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda didaktik ta'minot muhim ahamiyatga ega. Quyida asosiy yo'nalishlar berilgan:

1. Kasbiy-metodik tayyorgarlikni takomillashtirish. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini yaxshilash uchun yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu jarayonda "4+2" dasturidan foydalanish orqali talabalarining kasbiy mahoratini oshirish mumkin.

2. Ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish. Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish uchun mustaqil fikrlaydigan va ijodiy qobiliyatga ega talabalar o'rtasidagi suhbatlar asosida pedagogik faoliyatni amalga oshirish tavsiya etiladi.

3. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish bosqichlari. Kelajakda bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usullar talabalarining innovatsion fikrlashi va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

4. Kognitiv qabul qilish kompetensiyasini shakllantirish.

Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy bilimlarni kognitiv faollik asosida o'zlashtirish kompetensiyasini shakllantirish uchun tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasini qo'llash tavsiya etiladi. Bu usul talabalarining erkin fikrlashini va bilimlarni chuqur o'zlashtirishini ta'minlaydi.

5. Tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish.

Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish uchun ilmiy munozara, dolzarb muammoni tahlil qilish va innovatsion loyiha kabi interfaol metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu usullar talabalarining nostandart fikrlashi va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu metodikalarni qo'llash orqali bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini samarali rivojlantirish va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash mumkin [4].

Akmeologik yondashuv shaxsning oldiga maqsad qilgan ishlarining eng yuqori rivojlanish nuqtasiga erishishi. Ushbu yondashuv doirasida bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda rag'batlantiruvchi metodlar orqali rivojlantiriladi, xususan:

- Emotsional-axloqiy;
- Bilishga oid o'yinlar;

- O'quv tahlillari;
- Kelajakni bashorat qilish;
- O'quv loyihalari.

Bu usullar talabalarining mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

2. Ma'lumotlarni bog'lovchi texnologiyalar (MBT).

MBT bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. MBTdan foydalanish orqali talabalarining muloqot ko'nikmalari va ma'lumotlarni samarali yetkazish qobiliyati oshadi.

Bo'lajak tarbiyachilarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasi – bu talabalarining aqliy faoliyatini shakllantirish, ularning fikrlash, yodlash, diqqat, xotira va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini yaxshilashga qaratilgan ta'lim va tarbiya usullari majmuidir. Kognitiv qobiliyatlar talabalarining aqliy jarayonlarini, xususan, ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash qobiliyatlarini o'z ichiga oladi [5].

Mazkur metodika talabalarda keng dunyoqarash va teran fikrlashni shakllantirishga, ularning muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasining asosiy tamoyillari:

Psixologik-pedagogik jihatdan individual yondashuv: Har bir talabaning qiziqishi, shaxsiy xususiyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, talabalarining individual ehtiyojlariga mos o'qitish metodlarini qo'llash.

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish natijalari:

Diqqat	Talabalarining diqqatini jamlash va uni sog'lom tarzda saqlash.
Eslab qolish qobiliyati	Ta'lim jarayonida har bir talabaning yodlash va bilimlarni o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish.
Mantiqiy fikrlash	Muammolarni to'g'ri va samarali yechish uchun mantiqiy xulosalar chiqarish.
Tanqidiy fikrlash	Talabalarining qaror qabul qilishda ijodiy va keng qamrovli yondashuvini shakllantirish.

Xulosa. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasi talabalarining aqliy jarayonlari va fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodika talabalarining mantiqiy va keng dunyoqarashdan fikrlash, yodlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi va ularning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi. Pedagoglarning roli – talabalarga turli pedagogik metodlar orqali kognitiv qobiliyatlarining rivojlanishiga ko'maklashish.

Kreativ yondashuvlar. Kreativ yondashuvlar talabalarining loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirishda qo'llaniladi. Bu usullar individuallashtirish, tabaqallashtirish, o'z-o'zini faollashtirish va shaxsiy portfolioni boyitish orqali amalga oshiriladi.

Mobil ilovalar va onlayn platformalar. Talabalarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan mobil ilovalar va onlayn platformalar bo'lajak murabbiylar uchun ham foydali bo'lishi mumkin. Bu texnologiyalarni qayta tiklash orqali bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini samarali rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Bazarbaeva A.K. The principle of anthropocentrism of pedagogical culture in the development of cognitive abilities of child educators. // Science and Education in Karakalpakstan. ISSN 2181-9203 №4/1 (44) 2024.376-379-b.
2. Bazarbaeva A.K. Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi. // «Fan va jamiyat», 2023, №3. 8-10-b.
3. Hasanboyev J., To'raqulova X., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'ot. – Toshkent: «Fan», 2008. 153-b.
4. Шукин Г.И. Талабаларнинг когнитив кизиқишларини шакллантиришнинг педагогик муаммолари. Дарслик. – Москва: «Педагогика», 2008. 296-б.
5. Климбери Л.В., Ядрова Н.В., Нуржанова Р.М. Талабаларнинг когнитив фаоллигини шакллантиришга замонавий юндашулар. // «Fan va ta'limning zamonauiy muammolari», 2017, 6-сон.

REZYUME. Maqolada bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlari - bu tarbiyachining ta'limga bo'lgan munosibati, berilgan ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash qobiliyatlarini, ijodiy va tanqidiy fikr yuritishni o'z ichiga olgan. Bu qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'lajak tarbiyachilarning malakasini oshirish va ularning tashkilotlarida samarali ishlashi uchun katta ahamiyatga ega.

РЕЗЮМЕ. В статье утверждается, что когнитивные способности будущих воспитателей включают в себя отношение воспитателя к образованию, способность воспринимать и обрабатывать предоставленную информацию, творческое и критическое мышление. Это имеет большое значение для развития их способностей, повышения квалификации будущих воспитателей и эффективной работы в их организациях.

SUMMARY. In the article, it proves the cognitive abilities of future educators include the educator's attitude towards learning, the ability to receive and process given information, creative and critical thinking. This is of great importance for the development of their abilities, improving the qualifications of future educators, and their effective work in organizations.

MAKTABGACHA YOSHDAgi BOLALARDA NUTQ BUZILISHLARINI TUZATISH JARAYONIDA LOGORITMIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

J.A.Bekmanova – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

A.J.Tajimuratov – stajyor o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: Logoritmika, logopediya, imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalar, psixik rivojlanishida kechikish, nutq, texnologiya, korreksiya, logoped, maxsus usullar.

Ключевые слова: Логоритмика, логопедия, дошкольники с ограниченными возможностями, задержка психического развития, речь, технология.

Key words: Logorhythmics, speech therapy, preschool children with disabilities, delayed mental development, speech, technology.

Kirish. Hozirgi davrda bolalik muammolariga oid har qanday masalani muhokama qilar ekanmiz, hammamiz farzandlarimizni sog'lom, baxtli, tengdoshlari va atrofdagilar bilan erkin muloqot qila oladigan insonlar sifatida ko'rishni istaymiz. Bu ayniqsa, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun og'ir kechadi, chunki so'nggi yillarda bu toifadagi bolalar soni sezilarli darajada ortmoqda.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalar orasida nutq buzilishlari keskin oshgan. Ushbu buzilishlarning sabablari orasida: markaziy asab tizimi tug'ma patologiyasi bilan tug'ilgan bolalar sonining ko'pligi, psixik yuklamalar, ekologik muhitning yomonlashuvi hamda ota-onalarning pedagogik jihatdan tayyorgarligining yetarli emasligi alohida o'rin tutadi. Shu bois, bolalar uchun yanada samarali va ularni qiziqitira oladigan nutq tuzatish shakllarini izlab topish zarur. Shunday vositalardan biri – bu logopedik ritmika, ya'ni **logoritmika** bo'lib, u bolalar salomatligini mustahkamlash, saqlab qolish hamda turli nutq buzilishlarini bartaraf etishga qaratilgan korreksion faoliyatni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar taxlili va metodlar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, nutq buzilishlari har xil darajada bolalarning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ularning jismoniy va aqliy rivojlanishiga ham taalluqlidir. Nutq maktabgacha yoshdagi bolaning harakat faolligi bilan bevosita bog'liq. Umumiy va nutqiy motorika o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik I.P.Pavlov, A.A.Leontev,

A.R.Luriyalar tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilgan va tasdiqlangan.

Logoritmika – bu musiqiy, harakatli va so'zli mashqlar, topshiriqlar, o'yinlar tizimi bo'lib, ular korreksion, ta'limiy va sog'lomlashtiruvchi maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Logoritmikaning asosiy maqsadi:

- bolalarning so'z boyligini oshirish;
- bog'liq nutq va faol kognitiv faoliyatni rivojlantirish;
- atrof-muhitdagi obyekt va hodisalarga nisbatan hissiy sezuvchanlikni tarbiyalash;
- musiqa, adabiyot va tasviriy san'at asarlariga qiziqish uyg'otish.

Logoritmika, musiqa va ritmika – bular bolalar bog'chasidagi bolaga kompleks ta'sir o'tkazuvchi faoliyat turlaridir. Ular bolaning **“o'zini ifodalash mexanizmini”** ishga tushira oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini ifodalash deganda – ular ijodiy faoliyatda mustaqillik namoyon eta olishlari tushuniladi [1:20-21].

Ushbu uch faoliyat turini nima birlashtiradi va nimasi bilan farqlanadi?

- **Logoritmika** – bolalarning nutqini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, u korreksion pedagogika yo'nalishida chuqur ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, bolani har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa o'zini ifoda etish qobiliyatini oshirish salohiyatiga ega.

• **Musiq** – bolalarning musiqiy madaniyatini boyitadi.

• **Ritmika** – bolalarning harakat faolligini rivojlantiradi.

Uchallasini ham ritm birlashtiradi.

Ko'plab pedagog, psixolog va tilshunoslar tadqiqotlari maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy o'zini ifoda etish muammolarini hal qilishda kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatdi. M.Y. Ayupova bolalarda nutq kamchiliklarini bartaraf etishda va nutq tempining buzilishlarini tuzatish ishlari logopedik ritmika, jismoniy tarbiyani o'z ichiga oladi deb ta'kidlab o'tgan [5:315].

Logoritmika mashg'ulotlari ta'lim, tarbiya va korreksiya vazifalarini bolaning ongida noan'anaviy, ixtiyorsiz darajada hal etadi, bu jarayon ijobiy hissiy fon bilan kechadi hamda pedagogga yaxlit tarbiyaviy-korreksion jarayonni tashkil etish imkonini beradi [2:21-22].

Natijalar. Logoritmik mashg'ulotlar quyidagilarga qaratilgan:

- umumiy va mayda motorikani rivojlantirish;
- nafas olish tizimini mustahkamlash;
- mushak ohangini tartibga solish;
- eshitish e'tibori va xotirani, mimika, hissiyotlarni rivojlantirish;

- artikulyatsion apparatni shakllantirish.

Mashg'ulotlar odatda leksik mavzular bilan bog'lanadi. Lug'at boyligini oshirish va bog'liq nutqni rivojlantirish ustida tizimli ish olib boriladi. Bolalar nutqi, kuylash va harakatlari kattalarga taqlid qilish orqali shakllanadi – ya'ni ko'rish, tinglash va takrorlash orqali. Pedagog mashg'ulot davomida qiziqarli, yangilikka boy syujetli holatlar o'ylab topadi, o'yin shakli rang-barang, ko'rgazmali materiallar bilan uyg'unlashadi – bu esa bolalarda muloqotga bo'lgan ehtiyojni rag'batlantiradi, nutqiy taqlidni, umumiy va mayda motorikani rivojlantiradi hamda hissiy-estetik ta'sir uyg'otadi.

2-mashg'ulotlarda turli yo'nalishdagi o'yinlar uyg'unlashadi. Faoliyat turlarini navbatma-navbat almashtirib borish bolalarning qiziqishini saqlab qoladi, ular o'rtasida voqelikdagi hodisa va predmetlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglashlariga yordam beradi.

Xulosa. Logoritmik mashg'ulotlar va san'atning turli turlarini o'zida mujassam etgan integratsiyalashgan o'yin-syujetli darslar nutqiy tizimdagi psixologik mexanizmlarni rivojlantirishning eng samarali shakli hisoblanadi. Logoritmik mashg'ulotlarning yana bir katta afzalligi – ularning

guruhli shaklda olib borilishidir. Bu esa bolaga jamoa ichida ijtimoiylashish, tengdoshlari bilan umumiy til topish, kattalar va bir-biri bilan faol muloqot qilish imkonini beradi.

Mashg'ulotlar bir xil nutqiy buzilishga ega yoki nutq rivojlanish darajasi o'xshash bo'lgan bolalar bilan olib boriladi. Ammo inklyuziv ta'lim sharoitida maktabgacha ta'lim guruhlarini turli nutqiy buzilishga ega bolalar tashkil etadi. Shu bois, nogironligi bo'lgan bolalar bilan frontal va individual mashg'ulotlarni tashkil etishda alohida yondashuv zarur.

Mashg'ulot materiallari quyidagilarni qamrab oladi: harakatni nutq bilan muvofiqlashtirish, barmoq gimnastikasi, artikulyatsion va mimik motorikani rivojlantirish, nafas gimnastikasi. Nogironligi bo'lgan bolalar uchun bir mashg'ulot doirasida quyidagilarni uyg'unlashtirish muhim: nutq – harakat – faoliyat turining tez-tez almashinishi – qulay muhit – ijobiy ruh – ko'rgazmali materiallar – dam olish – guruhdagi ish (hamkorlik ko'nikmalari) – diqqatni mashg'ulot oxirigacha saqlash. Mutaxassislar va tarbiyachilar birgalikda korreksion vazifalarni hal etishadi, imkoniyati cheklangan bolalar uchun chuqurlashtirilgan va har tomonlama rivojlantiruvchi ta'limni ta'minlashadi. Korreksion guruh tarbiyachilari kun davomida logoritmika elementlarini quyidagicha qo'llashadi:

- ertalabki gimnastika nutqli elementlar bilan (takrorlovlar, ovozga taqlidlar);
- ertalabki, tushlikka tayyorgarlik, yotish, uyg'onish va h.k. vaqtlarida she'rlar, toza talaffuz mashqlari;
- mashg'ulot vaqtida logoritmik tanaffuslar (fizkult-minutkalar);
- ovozli jonlantiruvchi mashqlar;
- ko'chada kuylab ijro etiladigan harakatli o'yinlar;
- guruh ichidagi kamharakat o'yinlar.

Yillik kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, logoritmika mashg'ulotlari imkoniyati cheklangan bolalarda nutq va kognitiv jarayonlarni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa nutqiy nuqsonlarning bartaraf etilishi, lug'at boyligining ortishi, e'tibor va xotiraning yaxshilashida o'z ifodasini topmoqda.

Xulosa qilib aytganda, logoritmik mashg'ulotlar imkoniyati cheklangan bolalarda nutqiy tizimning psixologik mexanizmlarini shakllantirish, ularni sog'lomlashtirish, tarbiyalash va o'qitishga xizmat qiladi. Bu esa korreksion ishlardagi natijadorlikni oshirish va ularning davomiyligini qisqartirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Аверина И.Е. Физкультурные минутки и динамические паузы в ДОУ: практ. пособие. – 3-е изд. – Москва: «Айрис-пресс», 2007.
2. Лалаева Р.Н. Нарушения речи и их коррекция у детей с задержкой психического развития. Р.Н.Лалаева, Н.В.Серебрякова, С.В.Зорина. – Москва: «Владос», 2004.
3. Слепович Е.С. Формирование речи у дошкольников с задержкой психического развития. Кн. для учителя. – Минск: «Народная асвета», 1989.
4. Шевченко С.Г. Диагностика и коррекция задержки психического развития у детей. – Москва: «Народная асвета», 2004.
5. Аюпова М.Ю. Логопедия. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2007.

REZYUME. Maqola zamonaviy jamiyatda dolzarb bo'lgan muammoga – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixik rivojlanishida kechikish kuzatilgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar xususiyatlariga va ularni nutq buzilishlaridan chiqarishga qaratilgan kompleks korreksion-tarbiyaviy chora-tadbirlar tizimiga bag'ishlangan. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda nutq kamchiliklarini logoritmik mashg'ulotlar yordamida tuzatish va mashg'ulotlarda logoritmik texnologiyalardan foidalanish bo'yicha ilmiy asoslangan texnologiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ. Данная статья посвящена актуальной проблеме современного общества – особенностям логопедической работы с детьми дошкольного возраста с задержкой психического развития в условиях дошкольных образовательных учреждений, а также системе комплексных коррекционно-воспитательных мероприятий, направленных на устранение речевых нарушений. В статье представлены научно обоснованные технологии коррекции речевых недостатков у детей дошкольного возраста посредством логоритмических занятий и применения логоритмических технологий в процессе этих занятий.

SUMMARY. This article is devoted to an urgent issue in modern society — the characteristics of speech therapy work with preschool children exhibiting delayed mental development in preschool educational institutions, as well as the system of comprehensive corrective and educational measures aimed at overcoming speech disorders. The article presents scientifically grounded technologies for correcting speech deficiencies in preschool children through logorhythmic exercises and the application of logorhythmic technologies during these sessions.

UMUMTA'LIM MAKTAB DIREKTORLARIDA TAYM-MENEJMENT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIYADAN AMALIYOTGA

B.S.Bekniyazov – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: maktab rahbari, rahbarning ish vaqti, boshqaruv algoritmi, funksional vazifalari, boshqaruv faoliyati, strategik boshqaruv, rejalashtirish.

Ключевые слова: директор школы, рабочее время руководителя, алгоритм управления, функциональные задачи, управленческая деятельность, стратегическое управление, планирование.

Key words: school director, director's working hours, management algorithm, functional tasks, management activities, strategic management, planning.

Kirish. Bugungi kunda sifatli uzluksiz ta'lim bilan bog'liq muammolar butun dunyo bo'ylab tadqiqotning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Sifatli ta'limga erishish uchun asosiy to'siqlardan biri bu vaqt etishmasligi muammosidir. Bu maqsadga erishishda maktab direktorining rolini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Maktab direktorlari maktabda sifatli ta'limni tashkil qilish uchun qulay sharoitlarni ta'minlash uchun mas'uldirlar. Buning uchun ular o'z shaxsiy va ish vaqlarini yanada samarali boshqarishlari kerak bo'ladi. Taym-menejment bilan bog'liq tadqiqotlarning aksariyati talabalar va ularning o'quv natijalari, xususan, ularning o'quv yutuqlari va akademik faoliyati bo'yicha olib borilgan [1:17].

Maktab direktorlari o'qituvchilar va jamiyat talablari bilan ishlashda muammolarga duch kelishadi, ammo bu muammolarga tadqiqotchilar milliy va xalqaro darajada kam e'tibor berishgan. Shu sababli, umumta'lim maktab direktorlari ish vaqlaridan qanday foydalanishlari va maktabda o'tkaziladigan turli tadbirlar uchun vaqlarini qanday boshqarishlari kerakligini o'rganish zarur. Shunday qilib, ishonch bilan aytish mumkinki, vaqt nazorat qilinadigan yoki boshqariladigan narsa emas, balki o'zini o'zi boshqaradigan yoki nazorat qiladigan shaxsning o'zidir [3:25].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zamonaviy G'arb biznes konsaltingida taym-menejmentdan foydalanishga misol sifatida Stiven Kovining 1990- yildagi eng ko'p sotilgan "Yuqori samarali odamlarning 7 odati" kitobini aytish mumkin. Kovi o'z kitobida ikki bosqichda shaxsiy kamolotga (etuklikka) erishishning yaxlit konsepsiyasini taklif qiladi: qaramlikdan mustaqillikka ("shaxsiy g'alaba"), mustaqillikdan ongli o'zaro bog'liqlikgacha ("ijtimoiy g'alaba"). Odat – bu shaxsiy kamolotga va insonning yuksak samaradorligiga erishishga yordam beradigan bilim, ko'nikma va itilishlarning birligi sifatida aniqlanadi [4:49].

Qarorlar va vazifalarni ustuvorlashtirish uchun standart vosita bo'lgan "Eyzexauer matritsasi" ni hisobga olgan holda, Kovi taym-menejmentning asosiy vazifasi matritsaning "ikkinchi kvadrati uchun kurash" bo'lishi kerak, deb hisoblaydi (ikkinchi kvadrat: "muhim bo'lgan

narsalar", lekin "shoshilinch emas"). Aynan "ikkinchi kvadrat" ga xos bo'lgan faoliyat turlari "insonni shaxsga aylantiradi", uning ichki imkoniyatlarini ochib beradi, unga mustahkam munosabatlar o'rnatishga va hayotidagi eng muhim maqsadlarga erishishga imkon beradi ("natijalar").

Eyzexauer matritsasining boshqa kvadratlarida lokalizatsiya qilingan faoliyat odamning har doim "boshqa odamlarning ishlari" bilan band bo'lishiga yoki jiddiy psixologik muammolarga (doimiy stress va boshqalar) olib keladi. Doimiy shoshilinch bosim va/yoki "mayda bema'nilik" (doimiy ahamiyatsiz narsalar bilan band bo'lish) ham odamni boshqa odamlar bilan to'liq va chuqur muloqot qilish imkoniyatidan mahrum qiladi [5:37].

Kovi metodologiyasidan foydalanib, biz "ikkinchi kvadrat uchun kurashda" yordam beradigan taym-menejment tizimini yaratish uchun oltita tamoyilni taklif qilishimiz mumkin:

1) izchillik (mos keluvchilik) – individual taym-menejment tizimining barcha elementlarining o'zaro bog'liqligi, birligi (Kovi bo'yicha: ko'rish va missiya, rollar va maqsadlar, ustuvorliklar va rejalar, istaklar va intizom o'rtasidagi birlik);

2) muvozanat – bu holda "muvozanat" hayotning turli sohalarida (oilal, ish, sog'liq va boshqalar) muhim maqsadlarga erishish uchun etarli bo'lishi uchun vaqtni uyg'un taqsimlashni anglatadi;

3) konsentratsiya – siz doimo "ikkinchi kvadrat" faoliyat turlarining hayotingiz uchun muhim ahamiyatini eslab qolishingiz va birinchi navbatda shu kabi masalalarga e'tibor qaratishingiz kerak. Buning uchun Kovi e'tiborni kunlik rejalashtirishga emas (bu uchinchi "to'lqin" taym-menejmentga xos), balki haftalik rejalashtirishga qaratishni taklif qiladi. Haftalik rejalashtirish muhim, shoshilinch bo'lmagan ishlar uchun juda katta vaqtni (yarim kun - bir kun) zaxiralash imkonini beradi;

4) insonparvarlik – boshqa odamlar bilan munosabatlarda uchinchi "to'lqin" ning taym-menejment jadval va bo'ysunishdagi "aniqlik" ga qaratilgan. To'rtinchi avlod taym-menejment uchun "samaradorlik", "marosimlarga" rioya qilishdan ko'ra muhimroqdir. Agar odam bilan muloqotingiz jadvalda belgilangan

chegaralardan tashqariga chiqsa, lekin ayni paytda chuqur va qoniqarli munosabatlar o'rnatishga yordam bersa, o'zingizni aybdor his qilmasligingiz kerak;

5) moslashuvchanlik – sizning rejalarigiz sizning xo'jayinlaringiz emas, balki sizning xizmatkorlaringizdir! Rejalar siz uchun qulay bo'lishi, odatlaringizga, ish uslubingizga va hokazolarga mos kelishi kerak. Agar kerak bo'lsa, rejalashtirilgan narsalarni osongina o'zgartirishingiz mumkin;

6) ixchamlik – rejalashtirish va taym-menejment vositalari (masalan, tashkilotchi) iloji boricha ixcham va har qanday "dala" sharoitida ishlash uchun qulay bo'lishi kerak. Bunday portativlik sizga bitta muhim g'oyani o'z vaqtida qo'lga kiritib, yo'qotmaslikka yordam beradi [4:77].

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Kovining taym-menejment tizimi ikki bo'limdan iborat: strategik uzoq muddatli rejalashtirish va haftalik qisqa muddatli rejalashtirish.

Uzoq muddatli rejalashtirish quyidagi zanjirda rivojlanaadi: shaxsning individual "missiyasi" - rollar - maqsadlar.

Qisqa muddatli rejalashtirish quyidagicha taqdim etiladi: joriy rollar - vazifalar - haftalik reja - reja va taqsimotlarning kunlik bajarilishi.

Zamonaviy xorijiy taym-menejment uchta tendentsiya bilan tavsiflanganligini aniqlash mumkin:

- 1) insoniylashtirish;
- 2) differentsialash;
- 3) kompyuterlashtirish.

Hayotiy faoliyatni tashkil etishning asosi sifatida vaqt omilini har tomonlama ko'rib chiqish qabul qilingan ustuvorliklar bo'yicha vaqt sarfini doimiy ravishda tahlil qilish va kuzatib borish vazifasini qo'yadi. Vaqtinchalik yo'qotishlarni tahlil qilish menejning boshqaruv faoliyatining turli bosqichlarida sodir bo'lishi mumkin. Taym-menejment jarayonining bosqichlari bo'yicha vaqtni yo'qotishning eng tipik tuzilishi 1.1-jadvalda keltirilgan.

Bosqichlar	Menejer faoliyati jarayonida bosqichlar bo'yicha vaqtni yo'qotish
1-bosqich: maqsadni belgilash.	Asosiy sabablar: faoliyat davrining barcha vazifalarini (kun, hafta, dekada, oy va boshqalar) tizimli ko'rib chiqish jarayonida aks ettirish; o'z ishi va butun korxona faoliyati o'rtasidagi munosabatni etarli darajada tushunmaslik; ko'rib chiqish uchun qabul qilingan ishlar va hodisalarning keng doirasi; hal qilinayotgan haddan tashqari ko'p echimlar/hodisalar, ko'pincha bog'liq bo'lmagan muammolar; bo'ysunuvchilarni maqsadga yo'naltirilgan boshqarishni rivojlantirish va individual topshiriqlarni tayyorlash uchun katta vaqt talab qilinishi; topshiriqlarning bajarilishini baholash va monitoring qilish mezonlarini ishlab chiqish, ularni faoliyatning o'zgaruvchan yo'nalishiga muvofiq tuzatish; muntazam ravishda o'z ustida ishlash zarurati; boshqaruv nuqtayi nazarini, yangi g'oyalarni rivojlantirish, bilimlarni chuqurlashtirish, malakani oshirish.

2-bosqich: vaqtni rejalashtirish	Sabablari: mavjud vaqtni noto'g'ri baholash; zaif "vaqt hissi", ya'ni bajarilishi kerak bo'lgan jarayonlar va vazifalarning davomiyligini ifodalash; jarayonlar, operatsiyalar, bosqichlar, protseduralar o'rtasida vaqt byudjetining etarli darajada samarali taqsimlanmaganligi; vaziyatlar va jarayonlarning inqirozdan oldingi, inqirozli, inqirozdan keyingi belgilarini yomon bilish va ifodalash; ishlarni bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga (inqirozlarga) yetarlicha tayyorgarlik ko'rmalik; kutilmagan hodisalar, inqirozlar yoki uzilishlar uchun vaqt ajratish amaliyotining yo'qligi; asosiy ishga xalaqit bermaslik uchun aralashuvga qarshi choralar ko'rishning yo'qligi (yetarli tajribaning etishmasligi); ko'p sonli ish tashriflari yoki xizmat safarlarini rejalashtirish; yozuvlarni yuritish va muddatlarni, vazifalarni va ularni yechishdagi faoliyatni xronometraj jurnalida qayd etish amaliyotining yo'qligi; 24 soatlik jadval ishlar bajarilishini ta'minlamaydi (notug'ri rejalashtirish).
3-bosqich: yechimlarni ishlab chiqish	Sabablari: kelgusi ishni baholashda amaliyotning yetishmasligi, ya'ni bu vaqt ajratishga arziydimi? bajariladigan ishlarga yetarlicha real baho bermaslik; ishlarning ahamiyatiga qarab birinchi o'ringa qo'yish amaliyotining yo'qligi; ishlarning ahamiyatiga ko'ra samarali ustuvorligining etarli emasligi; ularning qiymatiga ko'ra to'g'ri vaqtni baholashga moyilligi pastligi (muhimligi va dolzarbligi), uzoq telefon suhbatlari amaliyoti; tashrif buyuruvchilarni rejadani tashqari qabul qilish yoki jiddiy ahamiyatga ega bo'lmagan uchrashuvlar amaliyoti; ortiqcha vaqtni behuda sarflash va kichik, ahamiyatsiz narsalarga e'tibor berish; oddiy ishlarga ortiqcha vaqt sarflash; qarorlar qabul qilish yoki vazifalarni bajarish uchun batafsil ma'lumotga ko'p vaqt sarflash, shu bilan birga muhimroq va shoshilinch ishlarni bajarish kerakligini bilish; vazifalar orasida ortiqcha vaqtni behuda sarflash.
4-bosqich: ishni tashkil etish	Sabablari: bitta muammo ustida ishlashda ortiqcha vaqtni behuda sarflash, natijada samaradorlik past bo'ladi; hamma narsani mustaqil, vakolatsiz bajarishga moyillik; belgilangan vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan xodimlarning yetishmasligi; ish stoli doimo qog'ozlar bilan to'ldirilgan; ishni osonlashtiradigan zamonaviy yordam vositalaridan noto'g'ri foydalanish; o'z faoliyat sohamdagi ishni

	tizimli soddalashtirish uchun yechimlar/g'oyalarni doimiy ravishda izlash; muayyan ish sharoitida muammolarning muntazam takrorlanishi.		amaliyoti; oddiy yoki batafsil eskizlar orqali o'z yozishmalarini tahlil qilish amaliyoti; oddiy yoki batafsil eskizlar orqali o'z yozishmalarini tahlil qilishni e'tiborsiz qoldirish amaliyoti; faqat aql bovar qilmaydigan voqealar sodir bo'l-ganda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan maxsus ma'lumotlar bazasi qaydlarini saqlash va kiritish amaliyoti; muntazam ishlarni bajarish shakllariga e'tibor bermaslik amaliyoti; muntazam ish uchun shakllardan foydalanish amaliyoti.										
5-bosqich: Ishning boshlanishi	Sabablari: kelgusi ish kuni uchun tadbirlarni rejalashtirishda amaliyotning etishmasligi; ishni boshlashdan oldin hamkasblar bilan suhbatlashish odati; ish kunini shaxsiy masalalarni hal qilishdan boshlash an'anasi; kun boshida gazeta o'qish an'anasi; har bir ishning boshida kayfiyat uchun ma'lum vaqt sarflash an'anasi; har bir ishni o'ylab ko'rishdan oldin o'z-o'zidan boshlang; o'z ish faoliyatiga puxta tayyorgarlik ko'rish, shuning uchun ko'p vaqt talab qiladigan amaliyot; ko'pincha muhim narsalarni kechiktirish amaliyoti; qiyin muammolar yoki vazifalarni faqat ish kunining o'rtasida hal qilish amaliyoti; qiyin muammolar yoki vazifalarni faqat ish kuni oxirida hal qilish amaliyoti; boshla-gan ishni oxirigacha yetkazmaslik odati.		Vaqtini rejalashtirishning asosiy qoidalari: 1) 60% - rejalashtirilgan faoliyat; 2) 20% - kutilmagan faoliyat (vaqt zahiralari va rejalashtirilmagan harakatlar); 3) 20% - spontan faoliyat (boshqaruv faoliyati, ijodkorlik). Ish vaqti: 1) 60% rejalashtirilgan vaqt; 2) 20% kutilmagan vaqt; 3) 20% spontan vaqt. Natijalarga erishishda, shuningdek ularga erishish uchun belgilangan muddatlarda bajarishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan menejerlarning odatiy xatolariga quyidagilar kiradi: 1) muammoni hal qilishni ertaga qoldirish; 2) ishni oxiriga etgazmaslik; 3) hamma narsani birdaniga qilish istagi; 4) hamma narsani o'zingiz qilish istagi; 5) bo'ysunuvchilar orasidagi funksiyalarni to'g'ri chegaralay olmaslik; 6) muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda aybni bo'ysunuvchilarga yuklash istagi; 7) shaxsiy ishni tashkil etish va rejalashtirish masalalarini butunlay e'tiborsiz qoldirish; 8) menejer o'z shaxsiy vaqtini samarali tashkil etish printsiplari jihatdan imkonsiz deb hisoblaydi [7:17]. Yuqori dinamik biznes muhitida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish juda ko'p sonli omillarga bog'liq. Yuqorida sanab o'tilgan rejalashtirilgan natijaga erisha olmaslikning asosiy sabablari vaziyatga qarab, "subyektiv xatolar" va "obyektiv xatolar" deb nomlangan xatolar ta'siri bilan to'ldirilishi mumkin. Vaziyatni belgi-laydigan va jarayonlarning rivojlanish tendentsiyalarini shakllantiradigan "subyektiv" va "obyektiv" xatolarning mumkin bo'lgan tuzilmalari ro'yxati 1.2-jadvalda keltirilgan.										
6-bosqich: kun tartibini yaratish	Sabablari: haqiqiy shaxsiy ish ritmini yomon idrok etish; o'zining haqiqiy holatini yomon idrok etish / ishda (ertalab yoki kechqurun) yuqori mahsuldorlikka tayyorligi; o'z ish kunining mehnat unumdorligi ritmiga muvofiqligini tahlil qilishga e'tibor bermaslik; o'z ish kuni jadvali va unumdorlik ritmi o'rtasidagi nomuvofiqliklar; o'z ish kuni va unumdorlik ritmi o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish yo'llarini topish; o'z ish kuni jadvali va unumdorlik ritmi o'rtasidagi tafovutga e'tibor bermaslik; ishlab chiqarish qobiliyatlaridan to'liq foydalanish uchun muhim vazifalarni bajarish uchun qulay vaqtlarni rejalashtirishga e'tibor bermaslik; mahsuldorlikning eng yuqori soatlarida muntazam ishlarni, bog'liq bo'lmagan masalalarni yoki ahamiyatsiz muammo-larni bajarishning o'rnatilgan amaliyoti.												
7-bosqich: axborotni qayta ishlash	Sabablari: o'qish materiallarini uning ahamiyatini hisobga olgan holda ehtiyotkorlik bilan va ko'p vaqt talab qiladiganini tanlash; "asosiy g'oyani olish uchun chop etilgan ma'lumotlarni oldindan ko'rib chiqish, so'ngra nashrning muhim joylariga chuqurroq nazar tashlash; telefon suhbatini, to'g'ridan-to'g'ri suhbatni yoki uchrashuvni tugatish amaliyoti, agar davom etish befoyda bo'lsa; kuch va vaqtning behuda sarflamaslik uchun suhbatdoshlar va o'zlarining suhbatlari maqsadini tekshirish amaliyoti; kuch va vaqtning behuda sarflamaslik uchun suhbatdoshlar va o'zlarining suhbatlari maqsadini tekshirishga e'tibor bermaslik		<table><tr><th>subyektiv xatolar</th><th>obyektiv xatolar</th></tr><tr><td>1. Ko'p holatlarda "shablonli fikrlash"ni qo'llash.</td><td>1. Rejalashtirilgan davr uchun qabul qilingan qarorlar sonidan ortib ketish va ularni amalga oshirish imkoniyatlari.</td></tr><tr><td>2. O'zining kuchli tomon-larini va mumkin bo'lgan muvaffaqiyatini qayta baholash.</td><td>2. Qabul qilingan qaror-larning nomuvofiqligi.</td></tr><tr><td>3. Qarorlar o'z tajriban-gizga asoslanadi.</td><td>3. Yechimni amalga oshirish uchun vaqt omili-ni natug'ri baholanishi.</td></tr><tr><td>4. Natijani muqarrar sub-yektiv kutish.</td><td>4. Yangi qarorlar oldingi kurs va yechimlar paketiga asoslanadi.</td></tr></table>	subyektiv xatolar	obyektiv xatolar	1. Ko'p holatlarda "shablonli fikrlash"ni qo'llash.	1. Rejalashtirilgan davr uchun qabul qilingan qarorlar sonidan ortib ketish va ularni amalga oshirish imkoniyatlari.	2. O'zining kuchli tomon-larini va mumkin bo'lgan muvaffaqiyatini qayta baholash.	2. Qabul qilingan qaror-larning nomuvofiqligi.	3. Qarorlar o'z tajriban-gizga asoslanadi.	3. Yechimni amalga oshirish uchun vaqt omili-ni natug'ri baholanishi.	4. Natijani muqarrar sub-yektiv kutish.	4. Yangi qarorlar oldingi kurs va yechimlar paketiga asoslanadi.
subyektiv xatolar	obyektiv xatolar												
1. Ko'p holatlarda "shablonli fikrlash"ni qo'llash.	1. Rejalashtirilgan davr uchun qabul qilingan qarorlar sonidan ortib ketish va ularni amalga oshirish imkoniyatlari.												
2. O'zining kuchli tomon-larini va mumkin bo'lgan muvaffaqiyatini qayta baholash.	2. Qabul qilingan qaror-larning nomuvofiqligi.												
3. Qarorlar o'z tajriban-gizga asoslanadi.	3. Yechimni amalga oshirish uchun vaqt omili-ni natug'ri baholanishi.												
4. Natijani muqarrar sub-yektiv kutish.	4. Yangi qarorlar oldingi kurs va yechimlar paketiga asoslanadi.												

5. Xavfni yetarlicha baholamaslik.	5. Yarim-yarim yechimlarning ustunligi.
6. Ishni yakunlash uchun kafolatlangan variantga ustuvorlik (“Uzoqdagi bug‘doydan, yaqindagi somon yaxshi”).	6. Loyiha/qarorlarni amalga oshirish jarayonlarida yuqori darajadagi ziddiyat.
7. O‘z fikrining ustuvorligi (“Men har doim haqman”).	7. Vaziyatga nisbatan “ko‘pchilik” yoki “ozchilik” tomonidan qarorlarning to‘g‘riligini zaif baholash.
8. O‘z g‘oyangizni amalga oshirishga urg‘u berilgan ma‘lumotni tanlash (“Variant ishlashi kerak”).	8. Faoliyatning umumiy printsiplari: “biz uni ish rejimida moslashtiramiz”.
9. Qaror qabul qilishning mavhum uslubi (“Asosiysi - boshlash, keyin biz buni aniqlaymiz”).	9. Faoliyat rejimining dinamikligi tufayli qarorlarning yomon ishlab chiqilishi.
10. Muvaffaqiyatsizlik bosimi (“Sutda kuyib, suvga puflaysiz”).	10. Qarorlarni axborot bilan ta‘minlashning pastligi.
11. Muammoni hal qilishni ertangi kunga qoldirish.	11. Bo‘ysunuvchilar orasidagi vazifalarni to‘g‘ri chegaralay olmaslik.
12. Ishni to‘liq oxirigacha tugallamaslik.	12. Shaxsiy ishlarni tashkil etish va rejalashtirish masalalarini to‘liq

	e‘tiborsiz qoldirish
13. Hamma narsani birdaniga qilish istagi.	
14. Hamma narsani o‘zingiz qilish istagi.	
15. Aybni qo‘l ostidagilarga yuklash istagi.	

Xulosa. Xulosa o‘rmi shuni ta’kidlash lozimki, umumta’lim maktab rahbarlarining ish vaqtidan samarali foydalanish darajasi, ichki energiyasi, resurslari, imkoniyatlari va yondashuvlari har xil. Shuning uchun vaqt taqsimotidagi muhim qoidalaridan biri maktab direktorlarining vaqt oralig‘idagi ichki salohiyati, imkoniyati nimadan iborat ekanligini aniqlashdir. Chuning bilan birga xodimlarning ijrochilikda, fikrlashda, mulohaza yuritishda, innovatsiyada yoki bo‘lmasa biron-bir g‘oyalarni amaliy tushuntirib bera olishda qanshalik tezlikka, tajribaga ega. Shularni hisobga olgan holda vaqt taqsimoti davomiyligini ma’lum bir soatlarda, kunlarda, ma’lum bir davriylikka bo‘lishga ahamiyat berish kerak.

Ta’lim tizimida boshqaruvchi rahbar o‘quv-tarbiya tizimidan boshlab to maktabdan va sinfdan tashqari ishlarga cha barcha maktab ishlarini vaqtini samarali boshqarishni yuksak darajada biladigan va natijalarni tahlil qila oladigan bo‘lishi zarur. Shuni nazarda tutishimiz kerakki, ta’lim muassasasida pedagoglar mehnati yaxshi tashkil etilsa, ta’lim-tarbiya samaradorligi ham shu darajada yuksak bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Богославец Л.Г. Тайм-менеджмент в работе образовательных учреждений: методическое пособие. Л.Г.Богославец, О.И. Давыдова. – Москва: «Сфера», 2013. –С. 125.
2. Давыдова О.И. Тайм-менеджмент в работе руководителя. /Л.Г.Богославец, О.И.Давыдова // Управление дошкольным образовательным учреждением. 2012. № 8. – С. 12-20.
3. Калинин С.И. Тайм-менеджмент: практикум по управлению временем. / С.И.Калинин. – Санкт-Петербург: «Речь», 2006. –С. 370.
4. Кови С. Первое прежде всего. - Москва: «Колибри», 2003. –С. 284.
5. Реунова М.А. Тайм-менеджмент студента университета [Электронный ресурс] - ОГУ, 2012. –С. 103. Режим доступа: <http://rucont.ru/efd/187888>.
6. Телегина Т.В. Тайм-менеджмент руководителей. – Москва: МФПУ «Синергия», 2013. –С. 86.
7. Тайм-менеджмент. Полный курс /Г.А.Архангельский, М.А.Лукашенко, Т.В. Телегина, С.В. Бехтерев; под ред. Г.А. Архангельского. – Москва: Альпина Паблицер, 2016. - С.311. Режим доступа: по подписке. – URL: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=269985>. Библиогр. в кн. ISBN 978-5-9614-1881-1. Текст: электронный.

REZYUME. Mazkur maqolada zamonaviy maktab rahbarlarining funksional vazifalari va boshqaruv faoliyati samaradorligi, umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi strategik boshqaruv va rejalashtirish, boshqaruv algoritmi, boshqaruvda mehnat munosabatlari etikasi, rahbarning ish vaqti va undan foydalanish masalalari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются функциональные задачи современных школьных руководителей и эффективность управленческой деятельности, стратегическое управление и планирование в общеобразовательных средних учебных заведениях, алгоритм управления, этика трудовых отношений в управлении, рабочее время руководителя и его использование.

SUMMARY. The article discusses the functional tasks of modern school leaders and the effectiveness of management activities, strategic management and planning in secondary schools, management algorithm, labor ethics in management, the manager’s working time and its use.

KATTALAR TA’LIMI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

A.A.Davletova – *tayanch doktorant*

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch so‘zlar: kattalik, yetuklik, YUNESKO, ta’lim, rasmiy ta’lim, norasmiy ta’lim, andragogik model.

Ключевые слова: взрослый, зрелый, ЮНЕСКО, образование, формальное образование, неформальное образование, андрагогическая модель.

Key words: adult, mature, UNESCO, education, formal education, informal education, andragogical model.

Kirish. Hozirgi zamon sharoitida kattalar ta’limi ayniqsa dolzarb bo‘lib bormoqda, kattalar ta’limi insonga ko‘plab imkoniyatlar, katta hajmli ma’lumotlar va yangi

kasblarning paydo bo‘lishi fonida yangi bilimlar zaxirasini o‘zlashtirish va kengaytirish imkoniyatini beradi; odamlarga kasbiy malakasini oshirish, mehnat bozorida raqobat-

bardosh qilish, shu orqali hayot sifatini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Har bir inson hayoti davomida bilim olish va o'zini rivojlantirishga muhtoj. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, texnologiyalar rivoji va mehnat bozorida o'zgarishlar tufayli kattalar ta'limiga bo'lgan ehtiyoj kundan – kunga ortib bormoqda. Kattalar ta'limi nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki iqtisodiy barqarorlik va jamiyatda faol ishtirok etish uchun ham muhim hisoblanadi.

Asosiy bo'lim. Katta yoshli odamning eng keng ta'rifi 1976-yilda YUNESKOning Nayrobidagi Bosh sessiyasida berilgan. Unga ko'ra, «o'zi mansub bo'lgan jamiyatda kattalar tomonidan tan olingan har qanday shaxsni» kattalar qatoriga kiritish mumkin [1:2]. Xalqaro tashkilot uchun bu ta'rif yetarli bo'lsa kerak. Biroq muayyan mamlakatda ta'limni amaliy tashkil etish uchun u yetarli emas.

Katta odamning asosiy xarakterli belgisi uning tabiiy yoshi tushiniladi. bunga ko'ra olimlar ham o'z fikrlarini bildirib o'tgan. Ko'pgina rus olimlarining fikricha, yetuklik davrining ma'lum yosh chegaralarini belgilash muhim. Masalan, Ye.I.Stepanova bu davrni 18-40 yosh deb hisoblaydi, Yu.N.Kulyutkin balog'atga yetishni 16-70 yoshga bog'laydi [3:13-15], B.G.Ananev esa ingliz olimi D.B.Bromlining fikriga qo'shilib, 21-26 yoshga to'g'ri keladi [4:131-135]. Ko'rib turganingizdek, yosh davrlarni belgilashda, olimlarning fikri bir-biridan farq qiladi.

Ayrim tadqiqotchilar kattalik tushunchasini ularning tushunchasida bolalik va o'smirlik rollarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan kunduzgi ta'limga bog'liq deb hisoblaydilar.

Shu bilan birga, amerikalik olimlar «katta odam ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan samarali rollarni o'ynaydigan va o'z hayoti uchun mas'uliyatli shaxs» ekanligini ta'kidlaydilar [6:8]. Taniqli amerikalik kattalar ta'limi amaliyotchisi M.Sh.Noulz "o'zini kattalardek tutadigan, ya'ni kattalar rolini o'ynaydigan (ishchi, turmush o'rtoq, ota-ona, mas'uliyatli fuqaro, askar) shaxsni kattalar deb hisoblaydi." M.Sh.Noulzning fikricha, inson o'zini o'z hayoti uchun mas'ul deb biladigan darajada katta odamdir [8:24]. Demak bu yerda, M.Sh.Noulz aniq bir yoshga urg'u bermagan.

Xuddi shu ma'noda rossiyalik tadqiqotchi Y.N.Kulyutkin ham katta yoshli odamga quyidagicha ta'rif beradi: «Bu avvalo ijtimoiy jihatdan shakllangan, jamiyat me'yorlari va talablariga muvofiq mustaqil va mas'uliyat bilan qaror qabul qilishga qodir shaxsdir. Bu ijtimoiy-mehnat faoliyatining subyekti bo'lib, mustaqil hayot kechiradi: ishlab chiqarish, ijtimoiy, shaxsiy. U mustaqil ravishda qaror qabul qiladi, o'z xatti-harakatlarini faol bajara oladi» [3:12].

Katta yoshdagi odamlarning natijali ta'lim olish jarayonini tashkil etish uchun katta yoshdagi odamni aniqlashda uning balog'at yoshiga yetmaganlardan farqlarini va ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini takidlash muhimdir.

Lekin bir qator olimlar o'z e'tiborlarini yoshga emas, balki shaxsning boshqa xususiyatlariga qaratadilar.

Shunday qilib, aksariyat olimlar asosiy e'tiborni katta yoshli odamning voyaga yetmaganlardan (bolalar va o'smirlar) farq qiluvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga qaratadilar.

Biroq, fiziologik omillarni ham, insonning erkinlik darajasini ham, uning atrofdagi voqelikni tanqidiy baholash qobiliyatini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Bizning fikrimizcha, voyaga yetgan shaxs – bu o'zini o'zi mas'uliyatli boshqarish xulq-atvori uchun yetarli darajada fiziologik, psixologik, ijtimoiy, axloqiy yetuklik, iqtisodiy mustaqillik va ichki erkinlikka ega bo'lgan shaxsdir.

Aytishlaricha, kattalar uchun 17-22 yoshdagi odamga qaraganda yangi bilimlarni o'zlashtirish qiyinroq. Ammo, psixologlarning fikriga ko'ra, hayotning barcha bosqichlarida yuqori o'rganish potentsiali saqlanib qoladi. Doimiy aqliy ish, shaxsning ta'lim faoliyatiga qo'shilishi psixofiziologik funktsiyalarning yuqori darajasini saqlab qoladi, bu esa o'z navbatida etuk yoshdagi inqirozlarni muvaffaqiyatli hal qilish usullaridan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ta'lim va aqliy mehnat insonning ruhiy salomatligi uchun zarurdir.

Shunday qilib, ko'rsatilgan xususiyatlarga javob beradigan har qanday yoshdagi odamni kattalar qatoriga kiritish mumkin. Yuqorida aytib o'tilgan xususiyatlar ta'lim jarayonida namoyon bo'lib, kattalar ta'limining o'ziga xosligini ham, kattalar ta'lim oluvchisining asosiy xususiyatlarini ham sezilarli darajada belgilaydi.

Katta yoshdagi o'quvchi uni kichik yoshdagi o'quvchilardan ajratib turadigan beshta asosiy xususiyatga ega: 1) u o'zini tobora mustaqil, o'zini o'zi boshqaradigan shaxs sifatida anglaydi; 2) u hayotiy (kasbiy, ijtimoiy) tajribaning tobora ko'proq zaxirasini to'playdi, bu uning o'zi va hamkasblarini o'qitishning muhim manbaiga aylanadi; 3) uning o'qishga tayyorligi ta'lim jarayoni yordamida o'zining hayotiy muhim masalalarini hal qilishga va aniq maqsadlarga erishishga intilishi bilan belgilanadi; 4) egalagan bilim, ko'nikma, malaka va fazilatlarini zudlik bilan amalga oshirishga intiladi; 5) uning o'quv faoliyati ko'p jihatdan vaqt, makon, kundalik, kasbiy, ijtimoiy omillar (sharoitlar) bilan belgilanadi.

Katta yoshdagi ta'lim oluvchining ushbu xususiyatlari katta yoshdagi odamlarning ta'lim olish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini hal qiluvchi darajada belgilaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, insonning o'rganishi uning butun hayoti davomida sodir bo'ladi.

Shunday qilib, insonni o'qitish turli shakllarda doimo sodir bo'ladi va har doim ham ongli va maqsadga yo'naltirilmagan. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, o'qitishni faqat «ta'lim vositasi» deb ta'riflash noto'g'ri. Boshqa tomondan, ta'limni ta'lim oluvchining bilish faoliyatining bir tarfлама jarayoni sifatida yoki umuman shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida tasavvur qilish noto'g'ri (ko'plab psixolog va pedagog olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan nuqtai nazar).

Ta'limni tashillashtirish uchun amalga oshirishda asosiy jihatlar ta'limning biror manbai, ta'lim oluvchi va bilim, ko'nikma, malaka va fazilatlarini uzatish hamda o'zlashtirish faoliyatining mavjudligidir.

O'qitish - bilim, ko'nikma, malaka, fazilat va axloqiy qadriyatlarini berish va egallashning ikki tomonlama faoliyati.

O'qitish insonning o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va sifatlarni egallash jarayonining eng keng tushunchasidir. U insonning butun hayoti davomida doimiy ravishda sodir bo'ladi va turli shakllarda, ongli va ongsiz, maqsadli va o'z-o'zidan, maxsus shakllarda va uyushmagan holda amalga oshirilishi mumkin.

O'qitishdan farqli o'laroq, ta'lim har doim u yoki bu shaklda ma'lum tarzda tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka va fazilatlarini uzatish va o'zlashtirishning tashkiliy

va maqsadli jarayoni sifatida namoyon bo'lad i (masalan: «Ta'lim - bu bilim, mavqe, qadriyat yoki ko'nikmalarni uzatish, aniqlash yoki egallash bo'yicha tashkil etilgan, o'ylangan, tizimli sa'y-harakatlar» [6:6].

Bizning fikrimizcha, filologik usullar orqali (ta'lim - obraz so'zidan yoki «hosil bo'lmoq» so'zidan) ta'limni inson shaxsining shakllanish jarayoni sifatida ta'riflashga urinish asossizdir. Shaxs ko'p sonli va xilma-xil ijtimoiy hodisalar ta'siri ostida deformatsiyalanadi, ular orasida ta'lim muhim, ammo har yili oldingiga qaraganda nisbatan kamroq ahamiyatli rol o'ynaydi. Bu jamoatchilik aloqalarini kengaytirish, yagona axborot makonini shakllantirish, axborotni uzatish va qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish jarayonining mutlaqo qonuniy natijasidir.

Ta'lim – bu: 1) tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka, fazilatlar va axloqiy qadriyatlarni maqsadga muvofiq uzatish va egallashning tashkil etilgan ko'p qirrali jarayoni; 2) amalga oshirilgan ta'lim jarayonining natijasi.

Turli xil ta'lim turlari (YUNESKO atamali bo'yicha) uchta ta'lim turida taqdim etilgan: rasmiy, norasmiy, norasmiy. Ular bir-biridan quyidagi parametrlar bilan farqlanadi.

Rasmiy ta'lim (formal education) - bu 1) buning uchun maxsus mo'ljallangan muassasalarda o'qitish; 2) maxsus tayyorgarlikdan o'tgan xodimlar; 3) umume'tirof etilgan ma'lumot to'g'risidagi hujjatni olishga olib keladigan; 4) tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka va fazilatlariga; 5) ta'lim oluvchilarning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bilan tavsiflanadi.

Norasmiy ta'lim (non-formal education) - yuqorida sanab o'tilgan parametrlarning ikkitasi bilan tavsiflanadigan ta'limni tashkil etish: tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka va fazilatlarini egallash; ta'lim oluvchilarning maqsadli faoliyati.


Norasmiy ta'lim (informal education) - yuqoridagi parametrlarning hech biriga ega bo'lmagan, tashkil etilmagan ta'lim. (Qat'iy qilib aytganda, ta'limning bu turini ta'limga kiritib bo'lmaydi.)

Ta'lim jarayoni ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining muayyan tarzda tashkil etilgan faoliyatini ifodalaydi. Yuqorida sanab o'tilgan ta'lim turlaridan qat'i nazar, bu

jarayonda u yoki bu shaklda beshita asosiy element ishtirok etadi: ta'lim oluvchi, ta'lim beruvchi, ta'lim mazmuni, manbalari va vositalari, ta'lim shakllari va usullari.

O'quv jarayonining tashkiliy-faoliyatli modeli rasmda keltirilgan.

O'qitish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi: rejalashtirish, amalga oshirish, baholash va tuzatish.



Ta'lim modeli ta'limni amalga oshirishda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi faoliyatining asosiy qonuniyatlarining tizimlashtirilgan majmuasidir.

Andragogik modelda ta'lim oluvchilarning o'qishga tayyorligi ularning muayyan muammolarni hal qilish uchun biror narsani o'rganishga bo'lgan ehtiyoji bilan belgilanadi, binobarin, ta'lim oluvchi motivatsiyani shakllantirish va o'quv maqsadlarini belgilashda yetakchi rol o'ynaydi. Ta'lim beruvchining vazifasi ta'lim oluvchiga qulay sharoit yaratish, uning ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradigan zarur usullar va mezonlar bilan ta'minlashdan iborat. O'quv dasturlari bu holda ularning hayotda qo'llanilishi mumkinligi asosida tuzilishi kerak; shu munosabat bilan har bir ta'lim oluvchining aniq maqsadlarini ko'zlagan holda o'qitishni individuallashtirish jarayonni tashkil etishning asosiga aylanadi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki, katta yoshli odam yetarli darajada fiziologik, psixologik, ijtimoiy, axloqiy yetuklik, iqtisodiy mustaqillik va ichki erkinlikka ega bo'lgan shaxsdir. Katta yoshli odamning samarali ta'limni tashkil etishi uchun kata yoshdagilarni voyaga yetmaganlardan farqlarini aniqlash va ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash lozimdir.

Adabiyotlar

1. ЮНЕСКО. Генеральная конференция приняла рекомендацию по вопросам взрослых. Образование. // Информационные заметки по образованию взрослых. 1977. № 1.
2. Степанова Е. И. Умственное развитие и обучаемость взрослых. // Академия. -Л.: 1973.
3. Кулюткин Ю. Н. Психология обучения взрослых. -М.: «Просвещение». 1985.
4. Ананьев Б. Г. Человек как предмет познания. -Л.: Ленинградский университет. 1968.
5. Даринский А. В. Кого и как включать в систему образования взрослых. // Педагогика. 1995. № 2. Darkenwald G.G., Merriam S. V. Adult Education: Foundations of Practice.
7. Мучиелли Р. Активные методы в педагогике взрослых. - Париж: 1985. Ноулз М.С. Модерная практика образования взрослых. От педагогики к андрагогике. -Чикаго: 1980.
8. Леднев В.С. Непрерывное образование: структура и содержание. АПН СССР. - М.: 1988. И.Смит Р. М. Обучение тому, как учиться. Прикладная теория для взрослых. - Милтон Кейнс, 1983.

REZYUME. Ushbu maqolada katta yoshdagilarning yosh davrlari klassifikatsiyasi, olimlarning kattalik tushunchasi haqidagi fikrlari bayon etiladi. Shunday qilib, aksariyat olimlar asosiy e'tiborni katta yoshli odamning voyaga yetmaganlardan (bolalar va o'smirlar) farq qiluvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga qaratadilar.

РЕЗЮМЕ. В данной статье представлена классификация возрастных периодов взрослых и взгляды ученых на понятие величины. Таким образом, большинство ученых уделяют основное внимание социально-психологическим особенностям взрослого человека, которые отличают его от несовершеннолетних (детей и подростков).

SUMMARY. This article presents the classification of age periods for adults and scholars' views on the concept of magnitude. Thus, most scientists focus on the socio-psychological characteristics of an adult, which distinguish them from minors (children and adolescents).

O'QUVCHILARDA JISMONIY TARBIYADAGI ESTETIK XUSUSIYATLAR HAQIDAGI NAZARIY BILIMLARINI KENGAYTIRISH

R.F.Djoldasov – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch so'zlar: mavzu, samarali, estetik, tadqiqot, jismoniy tarbiya, his-tuyg'ular.

Ключевые слова: предмет, эффективный, эстетический, исследовательский, физическое воспитание, эмоции.

Key words: subject, effective, aesthetic, research physical education, emotions.

Kirish. Estetik rivojlantirish shaxsning estetik ongi, go'zallikka munosabati va estetik faoliyati vujudga kelishi hamda takomillashuvini o'z ichiga oladigan uzoq davomiylikni taqozo etadigan jarayonni anglatadi. Bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqich hamda darajalarga ega. U shaxsning jamiyat estetik madaniyatini egallab olishiga bog'liq bo'lib, turli yo'llar hamda shakllar yordamida amalga oshiriladi. Tarbiya shaxsni estetik rivojlantirishni amalga oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Estetik rivojlantirish shaxsga jamiyat estetik madaniyatining ma'naviy va moddiy ko'rinishlarini muntazam singdirib borish yo'li bilan shakllantiriladi.

Shaxs estetik madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari: estetik ong, badiiy ehtiyojlar va munosabatlar hamda estetik faoliyatdan iborat.

Estetik ong ijtimoiy voqelik, tabiat, san'at bilan bevosita muloqot jarayonida shakllanadigan g'oyalar, nazariyalar, qarashlar, badiiy fikr mezonlari, estetik idrokning majmuidir. U badiiy ta'lim va estetik tarbiya tizimidagi jarayonlar vositasida takomillashib boradi. Estetik ongning asosini estetik idrok tashkil etadi.

Estetik baho kishining muayyan hodisa yoki obrazga insoniyatning butun rivojlanish tarixi mobaynida hosil qilingan estetik normativlar, ideallar bilan qiyoslash asosida munosabat bildirishidir. Estetik baho voqelikdagi hodisa yoki voqealardagi, shuningdek, san'at asarlaridagi go'zallik yoki xunuklik, chiroylilik yoki badbasharalik, qaxramonlik yoki qo'rqqulik, fojiaaviylik yoki komiklik kategoriyalariga tayanib, ularning estetik qiymati, obrazli aks ettirishning chuqurligi va originalligi, muallif ijodiy uslubining yorqinligi va ifodaliligi haqidagi muayyan fikrlarni anglatadi.

Estetik ehtiyoj kishini voqelikni nafosat nuqtai nazaridan bilib olishga, badiiy faoliyatning aniq bitta yoki bir necha turlariga undovchi subyektiv omildir. Estetik ehtiyojlar badiiy axborotga ehtiyoj, go'zallik haqidagi fanning rivojlanish qonunlarini chuqurroq anglash, estetik zavq bag'ishlagan narsani ko'proq idrok etishga intilish; xunuklikka murosasizlik; bir san'at asari va uning muallifi haqidagi yangiliklarni bilish ehtiyoji kabilarni o'z ichiga oladi.

Estetik qiziqish shaxsning estetik faoliyatga, voqelikni va san'at asarlarini estetik jihatdan o'zlashtirishga yo'nalganlik darajasini bildiruvchi tushunchadir. Estetik qiziqishning ko'rsatkichlari shaxsning estetik faoliyatga intilishi, unda o'zi yoqtirgan san'at asarlarining bo'lishi, ularni takror-takror idrok etib, ular haqda fikr bildirishga intilish, boshqalarning fikri bilan qiziqish; muayyan san'at turi, janri, yo'nalishi, maktab va shu kabilarni afzal ko'rishda namoyon bo'ladi.

Estetik faoliyat estetik ong asosida vujudga keladi, shakllanadi, boshqacha qilib aytganda, estetik faoliyat estetik ongning amaliyotda moddiylashuvidir. Estetik faoliyat asosini insonning muayyan talab va ehtiyojlari tashkil etadi.

Yuqoridagi ta'riflarda tilga olingan asosiy qirralar u yoki bu darajada jismoniy tarbiya darslari mazmunida mujassam. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya darslarida ulardan foydalanish estetik tarbiya vositasi sifatida ilgari surilgan ilmiy g'oyaga nazariy asos bo'la oladi.

Go'zallik tabiat, jamiyat, ijtimoiy munosabatlar va san'atga doir hodisa bo'lib, biror narsaga his-tuyg'u orqali ta'sir o'tkazish yo'li bilan insonda jismoniy va ma'naviy kuchlar oqimining ko'payishiga, shodlik, zavqlanish, ma'naviy qoniqish holati vujudga kelishiga sabab bo'ladigan hosiladir. U – ijtimoiy ahamiyatga molik hodisa. Go'zallik tizimda tasavvur va tushunchalarning ongilligi muhim o'rin tutadi [5]. O'quvchilarda estetik tasavvur va bilimlar zahirasi nechog'lik ko'p bo'lib, obrazlarni qabul qilish qobiliyati qanchalik rivojlangan bo'lsa, ular go'zallikni shunchalik tezroq anglaydilar va to'g'ri baholaydilar.

A.D.Xojimirzayev o'z tadqiqoti doirasida o'quvchilarni jismoniy tarbiyalashga bo'lgan talablardan biri hissiylikni ilmga yo'naltirilganligi bilan uyg'unlikda qo'shilishi, ushbu tarbiyadagi aynan estetik jihat ko'rsatilgan talabni ta'minlash, bunga estetik mazmunga boy ta'limiy materialga ijodiy yondashish, o'quvchilarning sport estetikasiga bo'lgan qiziqishini optimallashtiradigan samarali metodlari, vosita va usullarini qo'llash bilan erishish mumkinligini ta'kidlab o'tadi [6].

O'quvchilarning jismoniy tarbiya jarayonida ularning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda jismoniy mashqlaridan foydalanish muammosi T.B.Kozlovaning tadqiqotlarida ham o'rganilgan. Mazkur tadqiqotda maktab yoshidagi bolalar bilan jismoniy tarbiya va folklor mashqlari, sport o'yinlari va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida mashqlarni bajarishga qo'yiladigan pedagogik talablar, jismoniy rivojlantirish, bolalarning individual xususiyatlariga mos o'yinlar tizimini ishlab chiqish, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini takomillashtirish uchun pedagogik metodlardan foydalanish kabi muammolar o'rganilgan [7].

Biz tadqiq etayotgan muammo yuzasidan qator xorijiy manbalar ham mavjudligi masala dunyo miqyosida o'rganilayotganligidan dalolat beradi. Jumladan, Jodee Ann Schaben uy maktablari va maktab o'quvchilarining jismoniy faolligini qiyosiy baholash muammosiga oid dissertatsiyasida bolalarning jismoniy faoliyati akselerometriya asosidagi faoliyat bilan baholanishi.

Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarni estetik tarbiyalashda turli didaktik vositalardan foydalanish yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Buyuk hakim, mutafakkir Abu Ali Ibn Sino: "Badan tarbiya – sog'liqni saqlashda ulug'vor usuldir" – deydi. Demak, inson jismonan sog'lom, har tomonlama yetuk rivojlanishi ma'lum maqsadni ko'zlagan holda, tejamli harakat qilishi uchun tabiat qo'ynida yoki ozoda, shinam sport zalida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish bularning hammasi unda nafosat his-

tuyǵusini, aqliy tushunchasini va estetik didini tarbiyalaydi.

Asosiy qism. Jismoniy tarbiya bilan shugʻullanar ekan, bolaning qaddi-qomati, yurishi, ayrim harakatlarni bajarishda oʻziga xos nazokat, joziba, nafosat yuzaga keladiki, bu komil insonning muhim sifati, bola shaxsining ichki va tashqi jihatdan estetik uygʻunligini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Maktab jismoniy tarbiya darslariga nazar tashlasak, darslarning asosini (1-sinflar 66 soat, 2- va undan yuqori sinflarda 68 soat xaftasiga 2 marta) tashkil etadi. Shu oʻrinda haqli savol tugʻiladi. Oʻqituvchilarning oʻzlarida jismoniy tarbiya darslari mazmunidagi goʻzallik haqida koʻnikma va malakalar yetarli? Ular estetik tarbiya xususiyatlarini oʻquvchilarga yetkazish va ular ongiga singdirish borasida yetarli kasbiy-metodik tayyorgarlikka egamilar? Oʻqituvchilarda oʻquvchilarning jismoniy harakatlardagi goʻzallikni anglash koʻnikmasi shakllanganmi? Agar shakllangan boʻlsa, uni daraja sifatida qanday baholash mumkin?

Shuning uchun ham bu jarayonni oʻrganish, albatta, sotsiologik soʻrovnoma oʻtkazishni taqozo etadi.

Biz tadqiq etayotgan muammoning ahvoli qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida Qoraqalpogʻiston Respublikasi Nukus shahri 1-sonli ixtisoslashtirilgan maktab va 3-, 37-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktablari, Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri 5-, 21-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktablari va Namangan viloyati Davlatobod tumani 58-sonli ixtisoslashtirilgan maktab va 53-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktablarda holatning real ahvoli haqida maʼlumot olish uchun sotsiologik soʻrovnoma savollari orqali holatni oʻrganish ishlari olib borildi. Soʻrovnoma savollarida oʻquvchilarning jismoniy tarbiya darslari mazmunidagi goʻzallikni qay darajada idrok etishlari haqida maʼlumotlar olindi va tahlil qilindi.

Oʻquvchilardan jismoniy tarbiya darslari haqidagi umumiy tushuncha va koʻnikmalarini baholashga qaratilgan ijtimoiy soʻrovda ishtirok etgan respondentlarning 96% jismoniy tarbiya darslariga qiziqishlari, 3.2% esa qiziqmasligini qayd etgan boʻlsa, faqat 0.8% respondentlar “bilmayman”, degan javob bergan. Biroq respondentlarning asosiy qismida ijobiy javob olingan boʻlsa-da, masalaning mohiyatini chuqurroq tahlil etish natijasida umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining jismoniy tarbiyaning mohiyati borasida oʻquvchilarga pedagog-murabbiylar tomonidan tushuntirish ishlari samarali boʻlmaganligidan dalolat berdi. Jismoniy tarbiya darslarida oʻqituvchi tomonidan milliy dastur asosida oʻquv mashgʻulotlarini tashkil etishi borasidagi savolga oʻquvchilarning 62% “ha”, 27% “yoʻq”, 11% esa “bilmayman” deb javob berdi. Bu hol saboqlarda tasdiqlangan jismoniy tarbiya boʻyicha milliy dastur asosida samarali tashkil etilmasligi, natijada esa, oʻquvchilarda zaruriy bilimlar boʻlmashligi, jismoniy tarbiya boʻyicha milliy dasturni amaliyotga tatbiq etish samaradorligi past ekanligini bildiradi.

Oʻquvchilarning jismoniy tarbiya haqidagi bilimlari ham past, yaʼni ular biladigan asosiy harakatlari bu oʻyin turlari ekanligi namoyon boʻldi. Bunday hol malakali kadrlar tanqisligi, hozirgi zamon talabiga koʻra oʻquvchilarga bilim beruvchi pedagog-murabbiylar yetarli tayyorgarlikka ega emasligidan dalolat berdi. Chunki, taʼkidlab oʻtilganidek, jismoniy tarbiya darslari taʼlim jarayonini asosini tashkil etadi.

Maʼlumki, jismoniy tarbiya darslarida qoʻllanilishi mumkin boʻlgan, maʼlum darajada taʼlimiy xususiyatlariga koʻra tasniflangan va jismoniy tarbiya boʻyicha “Milliy” dasturda belgilangan estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasiga eʼtibor qaratilganda, ushbu darslar oʻz xususiyatiga koʻra oʻquvchilarda harakatlardan zavq olish, sinf mashgʻulotlaridan chalgʻish, jamoaviy harakatlanish, jismoniy mashqlarni maromida bajarish, oʻyinlardan baxra olish hamda gʻalaba qozongan vaqtda xursandchilik kabi qator estetik xususiyatlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Biroq, olingan natijalarning tahliliga koʻra oʻqituvchilar tomonidan jismoniy tarbiya darslari dasturga mos tarzda 40%dan kamini tashkil etadi. Bu omil oʻquvchilarga taʼlim beruvchi oʻqituvchilarning jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va olib borish kompetensiyalari, yaʼni nazariy bilim, amaliy koʻnikma va malakalarini oshirish zarurligini koʻrsatadi.

Oʻquvchilardan jismoniy tarbiya boʻlimlari haqida tushuncha berish soʻralganda, oʻquvchilarning 21%i “ha”, 54%i “yoʻq”, 25%i “bilmayman” tarzida javob berishlari oʻqituvchi va murabbiylarning jismoniy tarbiya darslari boʻlimlari (fasllar koʻrinishida) qay tartibda olib borilishi, mashgʻulotlarni tashkil qilish va oʻtkazishda lozim boʻlgan nazariy bilim, amaliy-metodik malakaga ega emasliklarini anglatadi. Bu holat jismoniy tarbiya darslarida uning tarbiyaviy imkoniyatlarini, ayniqsa, oʻquvchilarga estetik tarbiya berish borasidagi imkoniyatlaridan foydalanish talab darajasida emasligini koʻrsatadi.

Oʻrganish natijalariga koʻra, oʻquvchilarning 44 foizi mahallada oʻyindan olinadigan estetik zavq oʻquvchilar ongiga yetarli singdirilmaganligini anglatadi.

Oʻquvchilardan ularning jismoniy tarbiya oʻqituvchilari har darsda yangi vositalardan foydalangan holda jismoniy mashqlar va sport oʻyinlarni oʻrgatishi haqida maʼlumot soʻralganda, oʻquvchilarning 53%i “ha”, 34%i “yoʻq”, 13%i “bilmayman” javobini bergan. Bundan koʻrinadiki, umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻquvchilarning bilim va koʻnikmalarini shakllantirishda, ularning barkamolligiga erishishda oʻqituvchilar tomonidan yangi vositalardan, yaʼni tarbiyaviy imkoniyatlaridan yetarli foydalanmaydilar. Demak, jismoniy tarbiya darslarining taʼlimiy va tarbiyaviy imkoniyatlari dars jarayoniga toʻlaonli tatbiq etilmagan.

Shuningdek, jismoniy tarbiya mashgʻulotlari jarayonida oʻquvchilarni estetik tarbiyalashga oid bilim darajasini aniqlash maqsadida jismoniy tarbiya oʻqituvchilari orasida soʻrovnoma oʻtkazildi.

“Jismoniy tarbiya darslarida estetik tarbiya deganda nimani tushunasiz?” degan savolimizga olingan javoblarni koʻrib chiqish mobaynida oʻqituvchilar estetik tarbiya deganda “goʻzallik” soʻzini etimologiyasidan kelib chiqqan holda bunday turdagi tarbiyani amalga oshirishda milliylikni aks ettiradigan oʻyin faoliyat turida amalga oshirish mumkin deb tushunishlari ayon boʻldi. Bu borada estetik xususiyatlarnigina sanab oʻtdilar. Olingan javoblarning tahlili oʻqituvchi va murabbiylarning bu boradagi bilim va malakalari qoniqarli holatda ekanligini koʻrsatdi. Shu maʼnoda jismoniy tarbiya darslarida estetik tarbiya tavsifi va xususiyatlari haqida oʻqituvchilarga maʼlumotlar berib borish maqsadga muvofiqligi koʻrindi.

“Jismoniy mashqlar hamda sport oʻyinlarida goʻzallik bormi?”, degan savolimizga 100% oʻqituvchi “ha”, deb javob berishdi. Demak, jismoniy tarbiya oʻqituvchilarida jismoniy mashqlar hamda sport oʻyinlaridagi estetik

jihatlarini anglashga oid bilimlari yetarli darajada. Biroq shu o'rinda bir savol tug'iladi.

Buyuk Amir Temur Ko'ragoniy tuzluklarida har bir askar jismonan baquvvat, rahmdil, o'zgalarga yordam qo'lini uzatadigan, bajarayotgan mashg'ulotidan zavq oladigan shaxs bo'lmog'i uchun ularga sardor tayinladim. Bularni men o'nboshi, yuzboshi va mingboshi deb atadim deyiladi. Bu borada tarixiy shaxslarning jismoniy tarbiya mazmunidagi ma'naviy, aqliy, axloqiy va estetik qarashlari fikr yuritilganligi so'ralganda, o'qituvchilar xalq og'zaki ijodi to'g'risida bilimga egaligi, ammo, aynan qaysilari xalq og'zaki ijodiga kirishi haqida tasavvuri yo'qligi ma'lum bo'ldi. Berilgan javoblarning 20% ida o'qituvchilar o'yin turlarini to'g'ri ko'rsatganlar.

"Sizning fikringizcha, jismoniy tarbiya darslarida go'zallik bo'lsa, uning go'zalligi nimada?" tarzidagi savolimizga 30% o'qituvchi jismoniy harakatlardagi go'zallik va uni bejirim va qulay sport kiyimlarida bajarilishida deb bilishar ekan. To'g'ri, estetik jihatlar bejirim kiyimlarda ham aks etgan, lekin biz mazkur savol zahirida harakatlar birdamligi bilan bejirim liboslarda uyg'unlashgan go'zallikni nazarda tutgandik. Demak, o'qituvchilar jismoniy tarbiya darslaridagi go'zallikni to'liq anglab yetmaganlar va o'yinlardagi go'zallik haqida aniq tushunchaga to'liq ega emaslar.

"Jismoniy tarbiya darslarida ifodalangan go'zallik haqida o'quvchilarga ma'lumot berasizmi? Agar shunday bo'lsa aniq misol keltiring" deb berilgan savolga

o'qituvchilarning 70%i o'zlari o'tayotgan darslardagi jismoniy harakatlarda ifodalangan go'zallikni to'liq anglamasliklari, bu go'zallik haqida hech qanday ma'lumot va tushuncha bera olmasliklarini izohlab, bu savolni ochiq qoldirganlar. 30% o'qituvchilarning javoblarida esa o'yin mobaynida tushuncha berishi ta'kidlandi.

Xulosa. O'qituvchilardan "Dars jarayonida qaysi sport o'yinlaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaysiz" deb so'ralganda 22% o'qituvchilar guruhlariga ajratib o'ynaladigan o'yinlarni tavsiya etganlar. Ulardan 23% savolni ochiq qoldirishgan bo'lsa, 27% yengil atletikaga moslashtirilgan o'yinlarni tavsiya etganlar, 38% esa, harakatli o'yinlarning bir nechta turlarini keltirib o'tganlar.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi va murabbiylardan jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarni estetik tarbiyalash borasidagi bilim darajasini aniqlashga qaratilgan so'rovnomalardan olingan natijalarning tahlillaridan shunday xulosaga keldik: jismoniy tarbiya o'qituvchilarining jismoniy tarbiya darslarida jismoniy mashqlar, yengil atletika, gimnastika, sport va harakatli o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarni estetik tarbiyalash borasidagi bilim va malakalari yetarli darajada emas, Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarni estetik tarbiyalashda jismoniy tarbiya o'qituvchisi va murabbiylarning pedagogik texnikasi alohida o'rin tutishini hisobga olgan holda mazkur texnikalarni o'z kasbiy faoliyatida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Акмалова Д.Т. Современные исследования в области компетенций: анализ и перспективы. Проблемы и перспективы современной гуманитаристики: педагогика, методика преподавания, филология: сборник материалов международной научно-практической конференции. -Андижан –Санкт-Петербург: 2024. -С. 53-56. DOI.10.5281/zenodo.10784120.
 2. Печеркина А.А. Развитие профессиональной компетентности педагога: теория и практика [Текст]: монография. / А.А.Печеркина, Э.Э.Сыманюк, Е.Л.Умникова: Урал. гос. пед. ун-т. -Екатеринбург: [б.и.], 2011. –С.233.
 3. Субочев Н.С., Архипова Т.Г. Компетентностный подход в управлении персоналом: учебное пособие. Волгоградский институт управления – филиал ФГБОУ ВО РАНХиГС. –Волгоград: ИздательствоВолгоградского института управления – филиала РАНХиГС, 2016.
 4. Maxmudov B.A. Jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent: "Zebo prints". 2023. 112- b.
 5. Nosirxo'jayeva G. Etika. Estetika (o'quv qo'llanma). – T.: TDYUI nashriyoti, 2006. 114-b.
 6. Hojmirzaev A.D. Jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni estetik tarbiyalash. Ped.f.n.diss... – T.: TDPI 2002. 169-b.
 7. Козлова Т.Б. Использование народных подвижных игр в физической подготовке учащихся младших классов с учетом их индивидуальных особенностей. Дисс.к.п.н. – Улан-Удэ: 2000. –С. 179.
- биогаза. "Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)", 2(3), 280-285. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-3-280-285>.

REZYUME. Estetik tarbiya shaxsni estetik rivojlantirish, kishini tabiat, mehnat va ijtimoiy munosabatlar zahiridagi go'zallikni estetik ideal nuqtai nazaridan idrok etish va baholashga o'rgatishni anglatadi. Shuningdek, bu tushuncha shaxsni estetik faoliyatga, voqelikni go'zallik qonunlariga ko'ra o'zgartirishni ichki ehtiyoj deb hisoblashga yo'naltirish hamda bu borada unga muntazam ta'sir etish jarayonini ko'zda tutadi.

РЕЗЮМЕ. Эстетическое воспитание означает эстетическое развитие личности, обучение человека воспринимать и оценивать красоту, лежащую в основе природы, труда и общественных отношений, с точки зрения эстетического идеала. Это понятие также подразумевает процесс направления индивида к эстетической деятельности, рассматривая преобразование действительности по законам красоты как внутреннюю потребность и постоянно влияя на них в этом отношении.

SUMMARY. Aesthetic education means the aesthetic development of the individual, teaching a person to perceive and evaluate the beauty underlying nature, labor, and social relations from the perspective of the aesthetic ideal. This concept also implies the process of directing the individual towards aesthetic activity, considering the transformation of reality according to the laws of beauty as an internal need, and constantly influencing them in this regard.

ЎРТА МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИДА МАДАНИЯТЛАРАРО МУЛОҚОТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТЛАРИ

А.Ембергенова – ассистент ўқитувчи

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети

Таянч сўзлар: маданиятлараро мулоқот, компетенция, педагогик шарт-шароитлар, халқаро мулоқот, маданий фарқлар, толерантлик, таълим тизими.

Ключевые слова: межкультурная коммуникация, компетентность, педагогические условия, межнациональное общение, культурные различия, толерантность, образовательная система.

Key words: intercultural communication, competence, pedagogical conditions, interethnic communication, cultural differences, tolerance, educational system.

Кириш. Инглиз тилини ўрганиш жараёнида маданиятлараро мулоқотни ривожлантириш замонавий таълим тизимининг асосий таркибий қисми ҳисобланади. Замонавий жамият ёш авлоддан нафақат чет тилларини юқори даражада билишни, балки ривожланган маданиятлараро мулоқот қобилиятларини ҳам талаб қилади. Глобаллашув ва маданиятлараро интеграция шароитида инглиз тилини ўқитиш алоҳида аҳамиятга эга, чунки у халқаро алоқа воситасидир. Ушбу мақолада инглиз тилини ўрганиш жараёнида ўрта мактаб ўқувчилари ўртасида маданиятлараро мулоқотни ривожлантиришга ёрдам берадиган педагогик шарт-шароитлар кўриб чиқилади.

Мактаб нафақат билим олиш жойига, балки ўқувчиларда маданиятлараро ўзаро муносабат кўникмаларини ривожлантириш майдонига айланмоқда. Замонавий педагогиканинг устувор вазифаларидан бири ўрта мактаб ўқувчиларининг ижтимоий ва коммуникатив компетенциясининг муҳим таркибий қисми сифатида маданиятлараро мулоқотни ривожлантиришдир.

Маданиятлараро мулоқот нафақат турли маданият вакиллари ўртасида ахборот алмашинуви, балки ҳурмат, тушуниш ва ҳамкорликка асосланган бағрикенг мулоқот шаклидир. Бироқ, бу компетенцияни самарали ривожлантириш учун махсус ташкил этилган педагогик шароитлар зарур.

Тадқиқотнинг мақсади - ўрта мактаб ўқувчилари ўртасида маданиятлараро мулоқотни ривожлантиришга ёрдам берадиган педагогик шартларни аниқлаш ва асослаш.

Маданиятлараро мулоқот - бу турли маданиятларга мансуб одамларнинг ўзаро таъсири, шу жумладан ахборот, ғоялар ва маданий қадриятлар алмашинуви жараёни. Верещагин ва Костомаров фикрича, тилнинг лингвистик ва маданий жиҳатларини тушуниш маданиятлараро мулоқотда муҳим рол ўйнайди. Муаллиф маданий контекстларни ўрганиш зарурлигини таъкидлайди, бу тил ва унинг сўзловчиларини чуқурроқ тушунишни шакллантиришга ёрдам беради [2:75-79].

Маданиятлараро мулоқот турли маданият вакиллари ўзаро таъсирини ўз ичига олади, бунда улар маълумот, ғоялар ва маданий қадриятлар алмашади. Г.Хофстеднинг фикрича, маданиятлараро мулоқот маданий омиллар туфайли идрок, фикрлаш ва хатти-ҳаракатлардаги фарқларни тушунишни ўз ичига олади [5]. Муваффақиятли маданиятлараро мулоқот маданий хабардорлик, бағрикенглик ва эмпатия каби жиҳатларни ҳисобга олишни талаб қилади [1].

В.Сафонованинг таъкидлашича, халқаро мулоқот тилларини ўргатиш маданиятлар мулоқоти контекстида амалга оширилиши керак. У ўқувчиларда маданиятлараро компетенциянинг ажралмас қисми бўлган

бағрикенглик ва бошқа маданиятларга ҳурматни ривожлантириш муҳимлигига ишора қилади [4:122-126].

Методология. Белгиланган мақсадга эришиш ва тадқиқот муаммоларини ҳал қилиш учун назарий ва эмпирик даражаларнинг ўзаро боғлиқ усулларида фойдаланилган.

Назарий усулларга қуйидагилар қиради:

-маданиятлараро ўзаро муносабатлар, коммуникатив ва маданиятлараро компетенцияни шакллантириш, мактаб ўқувчиларида бағрикенгликни тарбиялаш муаммоларига бағишланган психологик, педагогик, ижтимоий-маданий ва услубий адабиётларни таҳлил қилиш. Ушбу таҳлил маданиятлараро мулоқотни ривожлантиришнинг назарий асослари ва мавжуд ёндашувларини аниқлаш, шунингдек, тадқиқотнинг концептуал ва категориялар апаратини аниқлаш имконини бери.

-ўрта мактаб ўқувчилари ўртасида маданиятлараро мулоқотни ривожлантириш моделини ишлаб чиқишга қаратилган педагогик дизайн. Лойиҳада педагогик фаолиятнинг мақсадлари, мазмуни, усуллари, шакллари ва воситаларини белгилаш, шунингдек, зарур педагогик шарт-шароитларни аниқлаш қиради.

Маданиятлараро мулоқотни ривожлантириш учун қулай педагогик шароитлар қуйидагилардан иборат: ўқув дастурини маданий жиҳатдан бойитиш, яъни инглиз тилида сўзлашувчи мамлакатларнинг маданий хусусиятларини акс эттирувчи материалларнинг киритилиши ўқувчиларнинг маданий дунёқарашини кенгайтиришга ёрдам беради. Академик матнлар, видеолар, ҳақиқий адабиётлар ва мақолалар ўрта мактабнинг юқори синф ўқувчиларига маданий фарқлар ва ўхшашликларни яхшироқ тушунишга ёрдам беради.

Ролли ўйинлар, мунозаралар ва гуруҳ лойиҳалари каби интерфаол ўқитиш усулларида фойдаланиш талабаларга инглиз тилидан мулоқотда фаол фойдаланиш имконини беради. Бундай усуллар маданиятлараро мулоқот қобилиятларини ривожлантиришни рағбатлантиради, чунки улар суҳбатдошларнинг маданий хусусиятларини ҳисобга олишни талаб қилади.

Эмпирик усулларга қуйидагилар қиради:

Мақсад ўрта мактаб ўқувчиларида маданиятлараро мулоқотни ўтказиш учун зарур бўлган кўникма ва муносабатларни ривожлантиришнинг дастлабки даражасини аниқлашдан иборат бўлган фактларни аниқлаш тажрибаси. Ушбу босқичда сўровлар, талабалар ва ўқитувчилар билан суҳбатлар, маданиятлараро мулоқот шароитида мактаб ўқувчиларининг хатти-ҳаракатларини кузатиш ўтказилди.

Шакллантирувчи педагогик эксперимент, унинг доирасида маданиятлараро мулоқотни ривожлантириш учун ишлаб чиқилган модел синовдан ўтказилди.

Тажриба давомида аниқланган педагогик шартлар асосида ўқув-тарбиявий тадбирлар ташкил этилди.

Ўрта мактаб ўқувчилари ва ўқитувчилари ўртасида ўтказилган сўровлар ва суҳбатлар уларнинг маданиятлараро ўзаро муносабатларга бўлган муносабатини, маданиятлараро мулоқотга тайёригини, кадриятлар тизимини, мулоқотдаги тўсиқларни ва бошқа маданият вакиллари билан мулоқот қилишдаги қийинчиликларни аниқлашга қаратилган.

Современные реалии образования диктуют необходимость формирования у студентов устойчивой учебной мотивации, опирающейся не только на внешние стимулы, но и на внутренние убеждения. Особое внимание в этом контексте уделяется национальным ценностям, которые могут служить мощным источником вдохновения и самоидентификации. Через призму этнопедагогики становится возможным раскрытие воспитательного потенциала культурных традиций, что способствует усилению учебного интереса.

Значение национальных ценностей в образовательном процессе

Национальные ценности — это система ориентиров, укоренённая в сознании народа, отражающая его мировоззрение, мораль и культурные установки. Их внедрение в учебный процесс способствует формированию не только академической, но и гражданской ответственности, чувства принадлежности к обществу. Национальные ценности, согласно исследованиям И.А.Зимней и Ф.Ильсова, представляют собой систему идеалов, норм и установок, которые регулируют поведение личности в социокультурной среде [2:17]. Они формируются на протяжении веков и отражают специфику исторического, религиозного, культурного и социального развития нации. Мотивация в обучении, по мнению А.Н.Леонтьева, является ключевым фактором, определяющим эффективность учебной деятельности, поскольку направляет активность обучающегося на достижение цели [3:5].

Национальные ценности представляют собой систему культурных норм и убеждений, передаваемых из поколения в поколение. Они формируют отношение к образованию, труду, самореализации и успеху. В образовательном процессе можно выделить несколько механизмов влияния национальных ценностей на мотивацию:

В обществах с сильными традициями уважения к старшим и знаниям (Китай, Япония, Корея) учебная мотивация часто основана на авторитете преподавателя и социальном статусе, связанном с образованием. В странах, где семья играет важную роль (например, в Средней Азии и на Кавказе), хорошие успехи в учебе считаются способом повысить авторитет семьи. В странах с преобладанием индивидуалистических ценностей (США, Западная Европа) акцент делается на личные достижения и самостоятельность в принятии решений. Эти особенности необходимо учитывать при разработке образовательных стратегий и методов стимулирования мотивации студентов.

Этнопедагогика как мотивационный ресурс.

Применение этнопедагогических методов, таких как народная мудрость, легенды, фольклор, позволяет преподавателю воздействовать на эмоционально-ценностную сферу студентов. Такие подходы усиливают осмысленность обучения и создают доверительную

атмосферу, способствующую развитию познавательного интереса.

Как утверждает Ш.К.Юлдашева, «именно национальные ценности формируют у молодёжи устойчивую потребность к обучению и самореализации» [4:56].

Национальные традиции, такие как уважение к знаниям, коллективизм, ответственность перед обществом, становятся действенным средством мотивации, когда они встроены в содержание и форму образовательной деятельности.

Методы педагогического стимулирования мотивации.

1. Метод кейс-стади: анализ ситуаций, отражающих реальные культурные и профессиональные условия студентов, способствует развитию критического мышления и применению теоретических знаний на практике.

2. Групповая работа: организация команд с учетом культурных особенностей студентов способствует развитию коммуникативных навыков и умения работать в коллективе.

3. Система наставничества: поддержка первокурсников старшими студентами облегчает адаптацию к учебному процессу и повышает мотивацию через передачу опыта и знаний.

4. Проектное обучение: разработка учебных проектов, связанных с национальными традициями, позволяет студентам применять знания в практической деятельности, укрепляя связь между теорией и культурной идентичностью.

5. Использование поощрений и положительного подкрепления: признание достижений студентов через похвалу, награды или другие формы поощрения способствует формированию положительной мотивации к обучению.

6. Создание проблемных ситуаций: предоставление студентам задач, требующих самостоятельного поиска решений, стимулирует интерес к предмету и развивает исследовательские навыки.

7. Интеграция национально-культурных элементов в учебный процесс: включение в содержание обучения материалов, отражающих национальные ценности и традиции, усиливает чувство принадлежности и повышает мотивацию. Применение данных методов, основанных на педагогических исследованиях, способствует созданию образовательной среды, которая поддерживает и усиливает мотивацию студентов к обучению.

Методология. Исследование проводилось на базе педагогических вузов Узбекистана, с участием студен-

тов 2-4 курсов. Использовались методы анкетирования, наблюдения и интервью. Для диагностики уровня учебной мотивации применялась методика А.М.Приожкова. Анализ данных позволил выявить связь между включением национальных ценностей в образовательный процесс и повышением учебной мотивации студентов [5:75]. Положительное влияние оказывает использование родного языка в отдельных элементах обучения, проведение открытых занятий с включением национальных элементов, а также межпредметные связи с историей, литературой и искусством. Преподавателям рекомендуется использовать междисциплинарный подход и активно вовлекать студентов в исследовательскую деятельность, связанную с этнокультурным наследием.

Практическая реализация (опыт НГПИ им. Ажинияза)

На факультетах института были проведены тематические семинары и практикумы, в рамках которых студенты анализировали влияние культурных и семейных традиций на их образовательные установки. Результаты анкетирования показали рост мотивации и интереса к учебному материалу при использовании этнопедагогических приёмов.

На базе НГПИ им. Ажинияза был реализован факультатив «Этнопедагогика и мотивация», в ходе которого студенты исследовали феномены каршинской и каракалпакской культур, проводили социологические опросы, анализировали влияние семейных традиций на мотивацию к обучению.

Заключение. Таким образом формирование учебной мотивации с опорой на национальные ценности способствует не только успешному обучению, но и гармоничному развитию личности студента. Включение национальных ценностей в образовательную практику позволяет не только повысить мотивацию студентов, но и укрепить их духовно-нравственные ориентиры. Этнопедагогический подход позволяет педагогам более эффективно выстраивать воспитательно-образовательный процесс, формируя внутренние стимулы к обучению, а также открывает возможности для формирования личностного смысла образования, обеспечивая гармоничное развитие будущего специалиста. Для повышения мотивации необходимо включать в процесс элементы культуры в образовательные программы, учитывать традиционные представления о знаниях и профессии, а также применять методы обучения, соответствующие культурным особенностям студентов.

Литература

1. Зимняя И.А. Психология обучения: Учебник. – Москва: «Логос», 2006.
2. Ильясов Ф. Национальные ценности и образование. –Ташкент: «Фан», 2020.
3. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: «Политиздат», 1977.
4. Юлдашева Ш.К. Национальные ценности и воспитание молодёжи. // Народное образование. 2022. №3.
5. Приожков А.М. Методика диагностики мотивации профессионального обучения студентов. – Киев: 2001.

РЕЗЮМЕ. Мақолада миллий ва маданият кадриятлари таълим муҳитига сингдириш призмаси орқали бакалаврият талабалари учун мотивацияни шакллантириш хусусиятлари таҳлил қилинади.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируются особенности формирования мотивации студентов бакалавриата через призму интеграции национально-культурных ценностей в образовательную среду.

SUMMARY. The article analyzes the features of the formation of motivation for undergraduate students through the prism of the integration of national and cultural values into the educational environment.

BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA‘LIM O‘QITUVCHILARIDA KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA TADBIRKORLIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

A.P.Kurmanov – katta o‘qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: tadbirkorlik, kreativ yondasuv, kompetentlik, ko‘nikma, malaka.

Ключевые слова: предприимчивость, творческий подход, компетентность, навыки, квалификация.

Key words: entrepreneurship, creative approach, competence, skills, qualification.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta‘minlash, yoshlarni bozor iqtisodiyoti munosabatlarida faol ishtirok etishga tayyorlash muhim vazifalardan biridir. Respublikamizning jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallashi, rivojlangan davlatlar bilan tenglik tamoyili asosida o‘zaro hamkorlikka erishishida, talaba-yoshlarning iqtisodiy ijtimoiylashuvi hamda tadbirkorlik faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishi katta ahamiyat kasb etadi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan uchinchi yo‘nalishida makroiqtisodiy barqarorlikni mustaxkamlash, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirish kabi qator vazifalar belgilab berilgan [1]. 2012-yil 2- maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda “Tadbirkorlik faoliyati – subyektlar tomonidan qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir”, deb ta‘rif berilgan [2].

O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiyotni erkinlashtirish, bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish, aholining umumiy bandligini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish milliy iqtisodiyotimiz oldida turgan eng dolzarb muammolardan biridir.

Tadbirkorlikning bir turi hisoblangan milliy hunarmandchilikni kichik biznesning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri sifatida iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati yanada oshib bormoqda, uning rivojlanishini rag‘batlantirish, ayniqsa, yoshlar orasida keng targ‘ib etish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish bugungi kundagi oliy ta‘lim tizimi oldida turgan vazifalardan hisoblanadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yoshlarni tadbirkorlik ko‘nikmalarini egallashga tayyorlash, ularga zamonaviy sharoitda kichik biznes va tadbirkorlikka oid bilimlarni o‘rgatish lozim. Bu esa ularning mamlakat iqtisodiy barqarorligi va taraqqiyotini ta‘minlash uchun mehnat qilishi, o‘z vaqtini foydali ishlarga sarflashiga ko‘maklashadi.

Iqtisodiy tarbiya, hunarmandchilik vositasida ijodkorlik va mustaqil ta‘limni rivojlantirish muammolari xorijiy olimlardan K.McConnel, S.Brew, Wood Robin, Macqueen W.M., Schnepf, J.Gerald, R.Howard kabilari tomonidan o‘rganilgan.

MDH olimlaridan I.L.Timonina, I.V.Jijina, A.A.Filozop, E.I.Pakulova kabilarning tadqiqotlarida milliy hunarmandchilik masalalari umumiy tarzda yoritilgan. E.M.Pesherova o‘z tadqiqotlarida O‘rta Osiyo hududidagi badiiy hunarmandchilik, xususan, Qadimgi va O‘rta asrlardagi kulolchilik tarixini tahlil qilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning nazariy asoslari va uni rivojlantirish muammolari o‘zbekistonlik olimlar B.Yu.Xodiev, I.A.Bakieva, A.Yo.Ostonov, S.Parmonov, Q.H.Muftaydinov, N.S.Kasimova, M.S.Qosimova kabilari; talaba va yoshlarda iqtisodiy bilim va tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari N.A.Kamalova, S.Boboqulov, R.R.Hakimov va A.B.Nizamov va boshqalar; hunarmandchilik va tadbirkorlikning ma‘lum jixatlari ilmiy xolislik, tarixiylik nuqtai-nazaridan H.Z.Ziyoev, G‘.A.Ahmadjonov, H.N.Bobobekov, Sh.X.Vohidov, Q.Rajabov, N.Abdurahimova, Z.E.Azimova, M.B.Artaqova, X.T.Azizov, G.A.Agzamova va boshqalarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Psixolog olimlardan G.I.Shchukina, M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziev, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova va boshqalar muammoning psixologik jixatlarini tadqiq etgan bo‘lsalar, pedagogik fasilitatsiya masalalari esa P.Nummi, D.Yo‘ldosheva, N.M.Egamberdieva kabilarning ishlarida yoritilgan.

Mavzuning nazariy-metodologik asoslari. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, shu jumladan, milliy hunarmandchilikni rivojlantirish iqtisodiy o‘rta sinfning hamda o‘rta mulkdorlar sinfini istiqbolli rivojlantirishning muhim omili sifatida, nafaqat, jamiyatning milliy va ma‘naviy salohiyatini oshirishga ko‘maklashadi, balki milliy boylikni ko‘paytirish, iqtisodiyotning jahon tizimiga uyg‘unlashuvini hamda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlaydi.

Talabalarda tadbirkorlik sohasiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish orqali kelajakda aholi turmush farovonligini oshirish va iqtisodiyotni yaxshilash bo‘yicha mamlakatimizda yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish uchun bizga eng avvalo, iqtisodiy bilimlarni mukammal egallagan, tashabbuskor, g‘ayratli, tadbirkorlik ko‘nikmalariga ega kadrlar zarur. Bunday kadrlarni tayyorlashdek mas‘uliyatli vazifani hal etish oliy ta‘lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar zimmasiga yuklatiladi. Professor-o‘qituvchilar talabalarda iqtisodiy bilim, xususan, tadbirkorlikning nazariy va amaliy jihatlarni takomillashtirish, xalqning turmush sifati, aholi talabi hamda takliflari, harajat, jamg‘armalar, eksport va import darajasi, korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hajmi kabi tushunchalarni o‘zlashtirishda ilmiy asoslangan ma‘lumotlar berishi hamda rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalarini tahlil qilishi, ularni qiyosiy ifodalab beruvchi usul va vositalardan foydalanish taqozo etiladi.

Tadbirkorlikning asoslarini o‘rgatishga yo‘naltirilgan fanlarni o‘qitishda innovatsion axborot texnologiyalarini, usul va vositalarini qo‘llashning ahamiyati talabalar uchun mavjud tadbirkorlik haqidagi tushinchalar hamda ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi [3]. Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, aholining ijtimoiy farovonligini ta‘minlash va ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalari bevosita tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bilan

uyg'un holda amalga oshiriladi. Shuning uchun tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va talabalarni iqtisodiy jihatdan tarbiyalash ayni paytda ortga surib bo'lmaydigan masalalardan biridir.

Yurtimizda oilada milliy hunarmandchilik orqali tadbirkorlikni rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati rivojiga qaratilayotgan e'tibor ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, davlat eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini hamda turmush farovonligini oshirishda muhim omil bo'lmoqda.

Boshqa har qanday sohada bo'lgani kabi, tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan har qanday shaxs muayyan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Dastavval shu soha uchun kerakli bo'lgan nazariy bilimlarni boyitishga harakat qilish kerak. Shu bilan birga quyidagi xususiyatlarga ega bo'lish darkor:

1. Extiros va ishtiyoq. Bu xususiyatlar juda muhim. Har qanday tadbirkorlik faoliyati - biznes-rejani tuzishdan tortib, uni amalga oshirish va loyiha taraqqiyoti ijobiy natijasi unga bog'liq bo'ladi.

2. Tavakkalchilikka tayyor bo'lish. Muvaffaqiyatli ishbilarmen kishini tavakkalchilik nuqtai-nazaridan olib qaraganda boshqalardan ajratib turadigan narsa nima? Vaqt va pulni oldindan natijasi 100 foiz ma'lum bo'lmagan narsalarga tikib, muvaffaqiyatsizlikka uchraganida vositalar zaxirasi va "B reja"ga ega bo'ladi.

3. O'ziga ishonish, mehnatsevarlik, intizom va maqsad sari olg'a intilish. Tadbirkor bajarayotgan faoliyatidan zavq olishi darkor. Ba'zida esa qaysarlik ham asqotadi.

4. Moslashuvchanlik va egiluvchanlik. Bozor talablari juda tezlik bilan o'zgaradi. Muvaffaqiyatli ishbilarmenlar har qanday talab, optimallashtirish va yangi kashfiyotlarga tayyor turadilar. Bu esa mahsulot va xizmatlarga talabni oshirish va mijozlar ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

5. Mablag'ni boshqara olish qobiliyati. Ish rentabel bo'lguniga qadar biroz vaqt talab etiladi. O'sha paytgacha xarajatlarni o'ta qattiqqo'llik bilan chegaralay bilish va qo'yilmalarni aql bilan ishlata olish lozim. Tajribali tadbirkorlar bu majburiy talabni juda yaxshi tushunadilar hamda hozirgi va kelajakni moliyaviy majburiyatlarni hisobga olgan holda mablag'ni boshqarish rejasini tuzadilar. Dastlabki paytlarda ko'proq yaratishga harakat qilish juda yaxshi qadam. Haqiqatda esa biznes-rejani qadamma-qadam rivojlantirib borish talab etiladi.

Kasb – kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. O'zbek tilimiz izohli lug'atida kasb so'ziga quyidagicha izoh beriladi. Kasb – biror narsani o'rganish, egallash, foyda, hunar, mashg'ulotni odat qilmoq yoki umuman odat qilingan ishga aytiladi [4].

Yuqorida keltirilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda, aytishimiz mumkin ki kasb mehnat faoliyatining paydo bo'lgan shakllari, ularni bajarish uchun inson, albatta, ma'lum bilim va ko'nikmalarga, maxsus qobiliyatlar va rivojlangan muhim kasbiy sifatlariga ega bo'lishlari kerak. Ma'lumki, kasbiy sifatarning mutaxassis shaxsida shakllanishi undagi kasbiy shakllanishining rivojlanishiga turtki beradi.

Kasbiy sifatlar – shaxsning muayyan sohadagi bilim, ko'nikmalari, malakalari majmui va mehnat faoliyatida o'z qobiliyatini sifatli va samarali amalga tadbiiq etish imkoniyatidir. Bo'lajak texnologik ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida kasbiy sifati darajasini rivojlantirish kasbiy savodxonlik hamda milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmat vositasida yuzaga kelar ekan, bunda avvalo, o'tmish, ajdodlar an'analari va ular bosib o'tgan yo'lga nazar tashlash kerak bo'ladi [5].

Kasbiy sifatlarini o'zida shakllantirish uchun bo'lajak texnologik ta'limi fani o'qituvchisida fanga, ilmga, kreativlikka qiziqishi, nazariya bilan amaliyotni bog'lay olishi, olgan nazariy bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llay bilishida virtual texnologiyalarni o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning oldida turgan vazifa va muammolarni yechishga innovatsion, texnologik yondashish orqali qo'shimcha imkoniyatlar berishini tushuna olishi kerak bo'ladi. Quyida ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz:

- jamiyatdagi yangi faoliyat turlariga, yangicha yondashuvlarga tez moslashib keta olish;

- virtual texnologiyalar inson hayotining ma'nosiga, o'zini namoyon qilish usuliga aylanishi mumkin;

- virtual texnologiyalar texnik va ishlab chiqarish masalalarini yechish jarayonida, shuningdek, ular o'rtasida yuzaga keluvchi qarama-qarshiliklarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi;

- virtual texnologiyalar asosida bo'lajak texnologik ta'lim mutaxassislarida maqsadga erishishdagi qat'iyatlilik, tanqidni to'g'ri qabul qila olish kabi eng oliyanob shaxsiy sifatlar tarkib topadi;

- mazkur jarayonlar asosida kasbiy sifatlarini shakllanishi jarayonida aqliy va jismoniy mehnatning o'zaro uyg'unlashuviga erishiladi.

Mamlakatimiz va xorij pedagog olimlari tomonidan bo'lajak texnologik ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida kasbiy sifatlarini shakllantirish muammolarini tadqiq qilish borasida izlanishlar olib borganlar. Ularning maktablari, yondashuvlari, yo'nalishlari turlicha bo'lib, olimlarning ilmiy izlanishlarida aynan oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarida kasbiy sifatlarini virtual texnologiyalar vositasida shakllantirish mazmunini takomillashtirishning pedagogik zarurati ekanligi alohida tadqiq qilinmagan.

Bundan ko'rinadiki, shaxsning kasbiy sifatleri vaqt o'tishi bilan takomillashib borishi, yoshlarda kasbiy sifatlar kreativlik, hissiy tafakkur bilan bir qatorda aqliy tafakkur mahsuli, shu bilan birga insonda egallangan bilimlar majmuiga ko'ra tavsiflanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, oliy ta'lim tizimiga ijodiy kompetent yondashuvni joriy etish ta'lim maqsadi, mazmuni, o'qitish shakli, o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiyalar, nazorat usullari hamda o'qituvchi va ta'lim oluvchini o'z ichiga oladi. Ular o'rtasidagi munosabatlarda jiddiy o'zgarishlar qilishni talab qiladi. Shunga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida talimni tashkil etishning mavjud shakllari bo'lgan ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari mazmunini o'zgartirish nazarda tutilmoqda. Amaliy mashg'ulotlarda muammoli ta'lim shaklida ma'ruza mashg'ulotlari, ijodiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan seminar mashg'ulotlari, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi yangi tahrirdagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-son Qonuni.
3. Антони М.А. Интерактивные методы обучения как потенциал личностного развития студентов. // Психология обучения. 2010. № 12. –С. 53–63.
4. Карпова Е.А. Интерактивное обучение: концептуальные подходы // Вестник Полоского государственного университета. 2012. № 7. –С. 11–14.
5. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Quysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi. Kasb tanlashga yo'llash. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449-b.
6. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. –Toshkent: «Fan», 2004.

REZYUME. Maqolada texnologiya fanini o'qitishda tadbirkorlikka tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari va uslublari haqida so'z etilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье обсуждаются особенности и методы подготовки к предпринимательству в преподавании предмета технология.

SUMMARY. The article discusses the features and methods of entrepreneurship training in teaching technology.

Ekologik ong va fizika: maktab o'quvchilarida ilmiy tafakkur va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish

A.E.Otarbaev – *assistent o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: fizika, ekologik ta'lim, saqlanish qonunlari, termodinamika, ekologik ong, maktab ta'limi.

Ключевые слова: физика, экологическое образование, законы сохранения, термодинамика, экологическое сознание, школьное образование.

Key words: physics, environmental education, conservation laws, thermodynamics, environmental consciousness, school education.

Kirish. Jahonda ekologik vaziyat tobora keskinlashib bormoqda, bu nafaqat siyosiy qarorlar va iqtisodiy tuzilmalar darajasida, balki har bir inson ongida ham o'zgarishlarni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan o'quvchilarda ekologik dunyoqarashni shakllantirishda fizika muhim o'rin tutadi. Fizikani o'qitish o'quvchilarga nafaqat tabiatda sodir bo'layotgan jarayonlarni tushunishga, balki inson faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini anglashga yordam beradi. Barqaror ekologik dunyoqarashni yaratish ilmiy tafakkurni rivojlantirish, tabiat va texnologiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni anglash bilan bog'liq bo'lib, bu to'g'ridan to'g'ri fizikani o'qitish bilan bog'liq.

Zamonaviy ekologik dunyoqarash barqarorlik, tabiiy resurslarni saqlash va inson va tabiatning muvozanatli o'zaro ta'siri tamoyillariga asoslanadi. Aynan fizika orqali ko'plab ekologik jarayonlarni tushuntirish, o'quvchilarga ekosistemalar asosida yotuvchi tabiat qonunlari haqida tushuncha berish mumkin. Masalan, termodinamika qonunlari, energiya va materiyaning saqlanish qonunlari Yerdahayot mavjud bo'lishi uchun ekologik muvozanat nima uchun muhimligini va inson faoliyati uni qanday buzishi mumkinligini tushuntiradi.

Bundan tashqari, fizika o'quvchilarga, bir tomondan, fan yutuqlari va texnologiyalarning ahamiyatini, ikkinchi tomondan, ularning ekologik muammolarga ta'sirini anglashga imkon beradi. Maktab fizikasi doirasida ekologik ta'lim atrof-muhitning ifloslanishi yoki iqlim o'zgarishlarini o'rganish bilan cheklanib qolmaydi. Maktab o'quvchilarida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan ekologik xavfsiz texnologiyalar va yechimlarni yaratishda fizika qonunlari va tamoyillaridan qanday foydalanish mumkinligi haqida tushunchalarni shakllantirish muhim jihat hisoblanadi [1-3].

Maqolaning keyingi qismida ushbu jarayonda fizikaning asosiy roli, jumladan, o'quvchilarning ekologik ongini rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan

aniq darslar va laboratoriya ishlari namunalari ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism. Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi dunyoning barcha mamlakatlari oldida turibdi. U iqlim o'zgarishi kabi global tahdidlarga ham, havo, suv va tuproqning ifloslanishi kabi mahalliy, xususiy muammolarga ham tegishli. Maktab o'quvchilarida ekologik ongni tarbiyalashning ahamiyati shubhasiz, chunki ular sayyoramizning kelajagini belgilaydi. Shuning uchun ta'lim muassasalarining vazifasi o'quvchilarni ekologik muammolarni hal qilishda mas'uliyatli fuqarolar va faol ishtirokchilar bo'lishga yordam beradigan zarur bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlashdir.

Bunda aynan maktab ta'limiga alohida ahamiyat beriladi, chunki o'quvchilar o'z qarashlari va qadriyatlarini aynan maktabda shakllantiradi, inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sir asoslarini o'rganadi.

Bu jarayonda fizikaning roli fizik qonunlar, tabiiy resurslar va barqaror rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatishdan iborat. Fizika aniq fanlardan biri sifatida dunyoning qat'iy, tekshiriladigan manzarasini beradi va aynan shu orqali atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan muno-sabatda bo'lish nima uchun muhimligini va buni qanday amalga oshirish mumkinligini tushuntirish mumkin [4, 5].

Fizikani ekologiya nuqtayi nazaridan o'qitishning asosiy vazifasi nafaqat nazariy asoslar bilan tanishtirish, balki o'quvchilarda ekologik muammolarni tahlil qilishga ilmiy yondashuvni shakllantirishdan iborat.

Tabiiy jarayonlarni fizika orqali tushunish. Maktab o'quvchilarida ekologik dunyoqarashni shakllantirishning asosiy jihatlaridan biri ekologik hodisalar asosida yotuvchi tabiiy jarayonlarni tushunishdir. Tabiat haqidagi fan sifatida fizika o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki fizik qonunlar va tabiiy jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishni ham taqdim etib, bu jarayonda markaziy rol o'ynaydi. Fizikadan olingan bilimlar o'quvchilarga tabiat

qonuniyatlarini chuqurroq anglashga, shuningdek, buzilgan tabiiy jarayonlar hozirgi dunyo duch kelayotgan ekologik muammolarga qanday olib kelishi mumkinligini tushunishga yordam beradi [6-8].

Fizika fan sifatida tabiatning qanday ishlashini, elementar zarrachalardan tortib, iqlim o'zgarishi va ekotizim tebranishlari kabi keng ko'lamli jarayonlarni tasvirlaydi. Bu atrof-muhitda sodir bo'layotgan hodisalar ortida turgan mexanizmlarni ochib beradigan va o'quvchilarga ushbu jarayonlarni tahlil qilish uchun vositalar beradigan fan. Energiyaning saqlanish qonuni, termodinamika qonunlari, shuningdek, mexanika va elektromagnetizm asoslari kabi fizik qonunlar barcha tabiiy jarayonlar, jumladan, biologik, kimyoviy va ekologik jarayonlar asosida yotadi.

Ushbu qonunlarni o'rganish orqali o'quvchilar ekotizimlarda energiya almashinuvi qanday sodir bo'lishini, nima uchun ekologik muvozanatni saqlash muhimligini va inson xatti-harakatlari bu muvozanatni qanday buzishi mumkinligini yaxshiroq tushunishlari mumkin. Fizika nafaqat nazariy anglash, balki ekologik muammolarni hal qilishda bilimlarni amalda qo'llash uchun noyob imkoniyat yaratadi. Masalan, termodinamika tamoyillari va energiyaning saqlanish qonunini tushunish atrof-muhit ifloslanishi, iqlim o'zgarishi oqibatlarini, shuningdek, muqobil energiya manbalariga o'tish zarurligini tushuntirishga yordam beradi.

Tabiatga fizik qonuniyatlarning kirib kelishi va ularning ekologik jarayonlar bilan o'zaro ta'sirlashuvi o'sib kelayotgan yosh avlodni ilmiy bilimlarga asoslangan barqaror ekologik dunyoqarashni tarbiyalashda va sayyoramiz kelajagi uchun o'z mas'uliyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida fizika o'quvchilarga tabiiy resurslarni saqlash va tabiat bilan barqaror o'zaro ta'sirning muhimligini anglashga qanday yordam berishiga doir misollarni ko'rib chiqamiz.

1. Saqlanish qonunlari va ularning ekotizimlarga ta'siri

Tabiatni tushunish uchun fizika taklif qilishi mumkin bo'lgan eng muhim tushunchalardan biri bu saqlanish qonunlari hisoblanadi. Xususan, energiyaning saqlanish qonuni va massaning saqlanish qonuni ekosistemalar qanday ishlashi va ularning faoliyatiga inson aralashuvi qanday oqibatlarga olib kelishini tushuntiruvchi asosiy tamoyillar hisoblanadi.

Energiyaning saqlanish qonuniga ko'ra, energiya yo'q bo'lib ketmaydi, balki bir shakldan boshqa shaklga o'tadi. Masalan, organik moddalarda to'plangan energiya yoqilg'ini yoqish jarayonida issiqlik, mexanik ish yoki yorug'likka aylanadi, lekin energiya miqdori o'zgarmaydi. Bunday tushunish o'quvchilarga nima uchun, masalan, qazilma yoqilg'i turlaridan foydalanish atrof-muhitning ifloslanishiga olib kelishini tushunishga yordam beradi. Ko'mir yoki neftning yonish jarayoni karbonat angidrid gazining atmosferaga chiqarilishi bilan birga kechadi, bu esa uglerod sikli muvozanatini buzadi va global isishga olib keladi.

Fizika darslarida energiyaning turli sistemalarda qanday o'zgarishini ko'rsatuvchi tajriba o'tkazish mumkin. Masalan, o'quvchilar issiqlik dvigatellarining ishlashini o'rganishlari yoki quyosh panellarining samaradorligini tahlil qilishlari mumkin. Bunday tajribalar o'quvchilarga inson faoliyati ekologik jarayonlarga qanday ta'sir

ko'rsatishini va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish uchun nimalar qilish mumkinligini tushunishga yordam beradi.

2. Termodinamika va ekotizimlar

Har qanday jarayonda energiya sochilishiga intiladi, degan termodinamikaning ikkinchi qonuni ham ekologik jarayonlarni tushunish uchun muhimdir. Bu qonun ekosistemalar nima uchun muvozanat holatiga intilishini va nima uchun insonning har qanday aralashuvi bu muvozanatni buzishi mumkinligini tushuntiradi.

Misol: Ekotizimlarda energetik sikl. Quyoshdan keladigan energiya o'simliklar orqali (fotosintez jarayonida) va so'ngra oziq zanjirlari orqali o'tib, barcha tirik mavjudotlarning hayot faoliyatini ta'minlaydi. Bu jarayon, garchi ko'p energiya talab qilsa-da, muqarrar ravishda issiqlik ko'rinishidagi energiya yo'qotish bilan birga kechadi (bu termodinamikaning ikkinchi qonunini aks ettiradi). Shunga qaramay, agar ekotizim buzilmasa, bu energiya oqimi barqarorlik va muvozanatni saqlab qoladi. Biroq, karbonat angidrid gazining ortiqcha tashlanishi, iqlim o'zgarishi yoki o'rmonlarning yo'q qilinishi ushbu jarayonni buzishi va ekotizimlarning degradatsiyasiga olib kelishi mumkin. Ushbu qonun resurslardan samarali foydalanishning muhimligini tushuntirishda ham qo'llaniladi.

3. Mexanika va insonning tabiatga ta'siri

Mexanika, harakat va kuchni o'rganuvchi fizika bo'limi, shuningdek, inson faoliyati tabiatga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi. Daryolarda suvning harakati yoki atmosferada havoning harakati kabi oddiy mexanik jarayonlar ekologik muvozanatni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Misol: Daryolar gidrodinamikasi va ifloslanishi. Odamlar to'g'on qursa, daryo o'zanini o'zgartirsa yoki tabiiy manbalardan suv chiqarsa, tabiiy gidrodinamik jarayonlar buziladi. Maktab o'quvchilari turli tipdagi nasoslar va suv chiqarish tarmoqlarining daryolardagi suv sathi, oqim tezligi va suvning sifatiga qanday ta'sir qilishini o'rganishlari mumkin. Mexanik bilimlar bu o'zgarishlar qurg'oqchil hududlar, baliq populyatsiyalarining yo'q bo'lib ketishi yoki suv havzalarining ifloslanishi kabi ekologik muammolarni qanday keltirib chiqarishini tushunishga yordam beradi.

4. Elektr hodisalari va ularning atrof-muhitga ta'siri

Elektr va elektromagnit hodisalar fizikaning muhim jihati bo'lib, undan ifloslanish, energiyadan ortiqcha foydalanish va uglerod chiqindilarini kamaytirishga yordam beradigan texnologiyalar kabi bir qator ekologik muammolarni tushuntirishda foydalanish mumkin [9, 10].

Misol: Qayta tiklanuvchi energiya va fizika. Quyosh panellari va shamol elektr stansiyalari quyosh va shamol energiyasini elektr energiyasiga aylantirish orqali ishlaydi, bu esa qazib olinadigan yoqilg'ilar sarfini sezilarli darajada kamaytiradi. Ushbu texnologiyalarda fizika tamoyillarini qo'llash ekologik toza energiya olish usullarini yaratishga yordam beradi, bu esa ekotizimlarga ta'sirni kamaytirishga yordam beradi. Maktab o'quvchilari Quyoshning elektromagnit nurlanishi qanday qilib elektr energiyasiga aylanishini o'rganishlari mumkin, bu ularga nafaqat fizik jarayonlarni bilish, balki texnologik innovatsiyalardan tabiatni muhofaza qilishda qanday foydalanish mumkinligini tushunish imkonini beradi [11, 12].

Ushbu misollarning har biri – xoh u termodinamika, mexanika, elektr yoki saqlanish qonunlari bo'lsin –

o'quvchilarga ekotizimlarda muvozanatni saqlaydigan turli xil fizik jarayonlar qanday o'zaro ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi. Ammo insonning bu jarayonlarga aralashuvi, u atmosferaga ifloslantiruvchi moddalarni chiqarishmi, tabiiy resurslarni ortiqcha iste'mol qilishmi yoki tabiiy landshaftlarni o'zgartirishmi, bu nozik muvozanatni buzadi va uzoq muddatli ekologik muammolarni keltirib chiqaradi.

Fizika o'quvchilarga nafaqat ushbu jarayonlar qanday ishlashini tushunish, balki tabiatga salbiy ta'sirni kamaytirishga yordam beradigan barqaror texnologiyalar va yechimlarni yaratish uchun bilimlardan foydalanishni o'rganish imkonini beradi. Bu tushuncha o'quvchilarni atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatda bo'lishga va ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqishga yo'naltiruvchi ekologik dunyoqarashni shakllantirishga asos bo'ladi.

Xulosa. Shunday qilib, tabiiy jarayonlar va fizik qonuniyatlarni o'rganish orqali o'quvchilar nafaqat atrof-muhit qanday ishlashini tushunishlari, balki unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish muhimligini anglab yetishlari mumkin, bu esa barqaror ekologik dunyoqarashni shakllantirishga asos bo'ladi.

Fizikani o'rganish jarayonida o'quvchilar nafaqat tabiiy qonunlari va ilmiy tafakkur asoslarini o'zlashtiradilar, balki barqaror ekologik rivojlanishning asosini tashkil etuvchi eng muhim tamoyillarni ham o'rgatadilar. Tabiiy

jarayonlar, inson faoliyati va ekologik oqibatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy anglash maktab o'quvchilarida barqaror ekologik dunyoqarashni shakllantirish yo'lidagi muhim qadamdir. Shuni tushunish muhimki, har bir fizik qonun, xoh u energiyani saqlanish qonuni, xoh termodinamika yoki elektromagnit hodisalar bo'lsin, zamonaviy jamiyat duch keladigan muammolarga bevosita aloqador: iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi, resurslardan samarasiz foydalanish va boshqalar.

Eng muhim jihatlardan biri o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bo'lib, bu ularga atrof-muhitni muhofaza qilish uchun ilm-fan yutuqlarini qanday qo'llashni tushunadigan mas'uliyatli fuqarolar bo'lishga yordam beradi. Xususan, qayta tiklanadigan energiya manbalari, energiya samarador texnologiyalar va ifloslanishni kamaytirish usullari haqidagi bilimlar bolalarda inson va ekotizimlarga foyda keltirishi mumkin bo'lgan barqaror texnologiyalarni yaratishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, fizika bilimlariga asoslangan barqaror ekologik dunyoqarash tabiatga yanada mas'uliyatli va ongli munosabatda bo'lish yo'lidagi muhim qadamdir. Muhimi, har bir o'quvchi fizika asoslarini o'zlashtirib, atrof-muhitni asrash uchun o'zining shaxsiy mas'uliyatini anglashi va global ekologik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishi lozim.

Adabiyotlar

1. Hadzigeorgiou Y., Skoumios M. The Development of Environmental Awareness through School Science: Problems and Possibilities //International Journal of Environmental and Science Education. 2013. T. 8. №. 3.
2. Boeve-de Pauw J., Donche V., Van Petegem P. Adolescents' environmental worldview and personality: An explorative study //Journal of environmental psychology. 2011. T. 31. №. 2.
3. Зиятдинов Ш.Г. "К изучению экологических проблем современности в школьном курсе физики" // Символ науки, №. 8, 2018, -С. 67-69.
4. Каршиев Д.У., and Турсунов А.И. "Физика ўқитишда экологик мазмунда масалалардан фойдаланишнинг hozirgi holati" // Экономика и социум, №. 4-2 (83), 2021, -С. 21-24.
5. Сооронбаева Н. А. Экологическое воспитание на уроках физики. //Известия ВУЗов Кыргызстана. 2018. №. 10.
6. Свентецкая Г. Д. Экологическое воспитание на уроках физики . //Инновационные технологии обучения физико-математическим и профессионально-техническим дисциплинам. 2022. – С. 125-127.
7. Абдуллаева Д. Н. Мактабда геоэкологик маданиятни шакллантириш: тажриба, муаммолар ва ечим йўллари //Современное образование (Узбекистан). 2023. №. 6 (127). – С. 46-52.
8. Андреева Н. С. Межпредметные связи при изучении физики. //Вестник науки. 2024. Т. 4. №. 6 (75). Анисимов П. Н. «О влиянии электромагнитных полей на окружающую среду» Вестник магистратуры, №. 11-1 (50), 2015.
9. Бадёр М. П. Передача электрической энергии электромагнитными полями и их воздействие на окружающую среду. //Электрификация транспорта. 2016. №. 11.
10. Гринчук А. В. Опасность электромагнитного загрязнения окружающей среды //ISBN 978-5-7831-2032-9© ФГБОУ ВО «Уфимский государственный нефтяной технический университет», 2020© Коллектив авторов, 2020.
11. Тазмеев Б.Х. и др. Изучение альтернативных источников электроэнергии в рамках курса физики //Материалы пула научно-практических конференций. 2023. – С. 738-743.

REZYUME. Ushbu maqolada maktab o'quvchilarida barqaror ekologik dunyoqarashni shakllantirishda fizika fanining roli ko'rib chiqiladi va saqlanish qonunlari, termodinamika va mexanika kabi asosiy fizik tamoyillar hamda ularning ekologik jarayonlar va texnologik taraqqiyot bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, maktab fizika kursida ekologik ta'limni laboratoriya tajribalari va loyiha asosidagi ta'lim orqali integratsiyalash usullari muhokama qilinadi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматривается роль физики в формировании устойчивого экологического мировоззрения у школьников и анализируются законы сохранения, основные физические принципы, такие как термодинамика и механика, а также их связь с экологическими процессами и технологическим прогрессом. Также в школьном курсе физики обсуждаются методы интеграции экологического образования посредством лабораторных экспериментов и проектного обучения.

SUMMARY. This article examines the role of physics in shaping a sustainable ecological worldview in schoolchildren and analyzes conservation laws, basic physical principles such as thermodynamics and mechanics, as well as their relationship with ecological processes and technological progress. Also, in the school physics course, methods of integrating environmental education through laboratory experiments and project-based learning are discussed.

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM JARAYONIDA KOGNITIV YONDASHUVNING O'QUVCHILARDAGI IQTIDORNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

M.A.Pazilov – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: kognitiv ta'lim, kognitiv yondashuv, ixtisoslashtirilgan ta'lim, iqtidor, iste'dod, o'qituvchi, paradigma, kontekst.

Ключевые слова: когнитивное образование, когнитивный подход, специализированное образование, талант, одаренность, учитель, парадигма, контекст.

Keywords: cognitive education, cognitive approach, specialized education, giftedness, talent, teacher, paradigm, context.

Kirish. Inson aqli asosan ta'lim jarayonida shakllanadi, u orqali dunyoviy bilimlarni egallaydi hamda barcha ilmlarning nazariy jihatdan ma'no-mazmunini tushunib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda ta'lim jarayonida o'quvchining o'qishdagi ko'zlagan maqsadini belgilab berish talab qilinadi. Zero, fanlarni hayotga tatbiq etishni bugungi kun talabi deb oladigan bo'lsak, mana shu talabning ijrosi doirasida o'quvchilardagi iqtidorni kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Uning uchun fanlar chuqurlashtirilgan tarzda o'tilishi lozim, buni esa umumta'lim maktablariga nisbatan ixtisoslashtirilgan maktablarda amalga oshirish imkoniyati ko'proq.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining yangi tahririda belgilangan vazifa va qo'yilgan talablar o'quvchilar iqtidorini, qobiliyatini qo'llab-quvatlash, ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etilishi va "ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan" [1]. Shuning uchun ham ixtisoslashtirilgan ta'lim maskanlarini tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirish asosiy maqsad etib belgilandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Demak, ixtisoslashtirilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirishda kognitiv yondashuvning zarurligi o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi. Ma'lumot o'rnida aytish joiz "Kognitiv yondashuv - (element, mezon) bilimlarni tarjima qilish va o'zlashtirish, idrok etish, e'tibor, xotira, fikrlash va nutq jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, ta'limga har qanday yondashuv uchun zarur hisoblanadi va "bilish" paradigmasida alohida rol o'ynaydi" [2].

Insondagi ilm-bilim sirlarini bilishga bo'lgan qiziquvchanlik, hayotda yashashga bo'lgan intilishlar, yaratuvchanlik, ixtiro – bularning barchasi aqliy faoliyatning ustunligidan, iqtidorning to'g'ri rivojlanganligidan darak beradi. Zardusht dinining muqaddas kitobi "Avesto"da "...qobiliyati bo'lib aqli bo'lmasa, buni qobiliyat deb bo'lmaydi" [3] deb keltiriladi. Shuningdek insoniyat hayotida o'qitish va o'qishning zarurligi, bu tushunchalarning negizida insondagi iqtidor va qobiliyatni rivojlantirish xususiyatlari to'g'risida ham mantiqiy fikrlarni bildiradi.

Toifalarga ajratishga asoslangan ta'lim nazariyasini 1950-yillarda psixologiyada o'rgangan Jerom Bruner yaratdi va Devid Ausubel og'zaki o'rganish jarayonida ong fenomeniga ko'proq e'tibor qaratdi. Shunday qilib, bosqichma-bosqich o'rganish va o'qitishga doir kognitiv yondashuv ishlab chiqildi. Bu yondashuvlar asosan axborot bilan tushunchalarni anglashga qaratildi. Bu esa, kognitiv ta'limning yodlash yoki yodda saqlashini emas, balki

o'rganishning qanday holatda sodir bo'lishi haqida haqiqiy tushunchani rivojlantirishning quyidagi maqsadi bilan bog'liqligini tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval. Ta'limda kognitiv yondashuvning asosiy maqsadi

O'qitish	O'qituvchi	O'quvchi
Kognitiv ta'lim	Yangi vaziyatlarga moslashish jarayonini amalga oshirishga imkon beradigan aqliy qobiliyat va strategiyalar majmuasini ishlab chiqishdan iborat	Tafakkuridagi mavjud tushunchalariga asoslangan bilimlarni o'zlashtirish orqali mustaqil qaror qabul qilishi kerak.
Kognitiv yondashuv	Idrok etishda mexanik yodlashga asoslanmasligi, zarur sharoitlar yaratilganda, ma'lumotning mohiyatini o'rganishning faol jarayoniga jalb qilinishi kerak	Ma'lumotlarni tahlil qilib, bilim va aqliy qobiliyatlariga tayanadi, iqtidorini namoyon etadi

Demak, kognitiv yondashuv o'quvchilarning dars jarayonida olgan bilimlarini to'g'ri o'zlashtirishi, tafakkur va ongdagi qabul qilish jarayonlarini erkin fikrlashi orqali aytish olishi, asosiysi sohalarga oid ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi.

Har qanday yoshdagi iqtidorni sinashda bosim kuchayib ketish holatlari ham uchraydi. Natijada, inson ongidagi tushuncha va fikrlar o'zgarishga uchraydi. Masalan, qandaydir fanga qiziquvchi iqtidorli o'quvchidan shu fanning unga notanish bo'lgan xususiyatlari so'raladi. Bu haqda o'quvchida tushuncha yo'q, chunki, u kichkina hayotiy tajribasida biz so'ragan xususiyatga duch kelmagan. U o'zi darajasidagi natijaga erishgan. O'quvchidagi iqtidorni rivojlantirish borasida, uning imkoniyat darajasini hisobga olish, qiziquvchanligini so'ndirmaslikka harakat qilish ixtisoslashtirilgan ta'lim jarayonida kognitiv yondashuvning quyidagi vazifalarini belgilab beradi:

- o'quvchi ongida fikrlarning qanday paydo bo'lganligini va tafakkurning ishlashini tushunish va tushuntirib berish;

- ta'lim kontekstida yangi ma'lumotlarni qo'llashga imkon beradigan strategiyalarni yaratish;

- o'qituvchi yangi ma'lumotlarni o'quvchidagi mavjud bo'lgan bilimlar bilan hamohang tarzda taqdim etish;

Natijalar. Albatta insonning bilish qobiliyati rivojlanishida sezgi a'zolarining ham o'rni beqiyosdir. Chunki inson ko'rish, eshitish, ushlab ko'rish orqali o'z

tushunchalarini boyitib boradi va o'zida paydo bo'lgan ma'lum savollarga javob topish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qolaversa insonga narsa yoki buyumning qanday ko'rinishi, qanday sezilishi, qanday eshinishi orqali, unda o'ziga xos tushunchalar paydo bo'ladi. Bu holat kognitiv idrok deyiladi. Chunki, ta'limning ham, tarbiyaning ham asoslaridan biri o'rganish hisoblanadi. O'rganish sezgilar orqali olingan tashqi dunyoni va xulq-atvorni idrok etishda o'zgarishlarga olib keladi va "...xatti-harakatlarning kuzatilgan o'zgarishi o'rganish deyiladi" [4].

Jarayonni takomillashtirishda o'quvchilarning iqtidor yo'nalishlari bo'yicha mantiqan tuzilish shaklini aniqlashi, ma'lum darajada topshiriqlarning berilishi, bu bo'yicha uslubiy tavsiya va ko'rsatmalarni tayyorlash orqali o'quvchilarning iqtidoriga qarab ta'lim jarayoniga joriy etish, o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchining o'quvchilarga kognitiv yondashishi orqali ta'sir qilishida tomonlarning do'stlik munosabatlarini o'rnatishga asos bo'ladigan, o'qitishning demokratik usullaridan foydalanish ham maqsadga muvofiqligi seziladi. Bu usulni A.S.Nauruzbaeva, R.O.Nurjanova va boshqa qator pedagog olimlar "o'z faoliyati natijalariga qiziqish uyg'otgan xolda, o'zi uchun o'zi harakat qilish lozimligini bildiradi va o'z-o'zini boshqarishga o'rgatadi" [5], deb tavsiflaydi.

Muhokama. Ushbu nazariyaning refleksiv ta'sirchanligi o'quvchining ertangi kun mas'uliyatini his etishi va berilgan topshiriqni bajarish javobgarligini olishga qodir kelajak avlodni tarbiyalash bilan xarakterlanadi. Chunki iqtidorni rivojlantirish jarayonidagi kognitiv yondashuvda o'quvchilarni ijtimoiylashtirish ko'lamini kengaytirishga zarurat paydo bo'ladi. Sababi, "Mehnat va kasb ko'nikmalari vositasida o'quvchilarni ijtimoiylashtirish (ijtimoiy hamkorlikka kirishish, mehnat jamoalarida o'zini tutish, birgalikda faoliyat ko'rsatishga undash, ijtimoiy munosabatlar madaniyatini egallash, jamoada faollik ko'rsatish va boshqalar)ning didaktik tizimi ularda innovatsion kasbiy dunyoqarashni boyitish asosida takomillashtirilgan" [6] ligi keyingi davr tadqiqotchilarining ilmiy yangiligi sifatida e'tirof etilib kelinmoqda.

Mazkur muammolarning kelib chiqish zahiriga nazar tashlaydigan bo'lsak, ta'limni tashkillashtirishda

raqamlarga ko'proq e'tibor berilib, sifatni esdan chiqarganimizda ko'rinadi. Bu esa maktab bitiruvchilarining erkin kasb tanlashida psixologik va aqliy jihatdan qiynalib, o'z qiziqishi bilan emas, balki, atrofidagilarning tavsiyalariga ishongan holda, tushunchasidan xoli bo'lgan kasblarni tanlashga majbur bo'lgan holatlari hayotimizda ko'p uchragan. Natijada iqtidor tushunchasi unutila boshlab, iqtidorni iste'dodga qo'shib foydalanib, iste'dodni rivojlantirish yo'llarini izlay boshlaganmiz. Bir so'z bilan aytganda biz iqtidorni emas, iste'dodni tan olganmiz.

Bu bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribalariga nazar tashlaydigan bo'lsak AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Isroil, Yaponiyada o'z navbatida jamiyatning ijtimoiy rivojlanish dinamikasi, zamonaviy texnologiyalarning intensiv shakllanishi, mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan izohlanadi. Shuning uchun o'quvchilardagi iqtidorni aniqlash va ularni kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish bo'yicha amaliy ahamiyatga egadir. Birgina misol Angliya ta'lim tizimida o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirishda yangicha yondashuv iqtidorli bolalar uchun ta'limdagi ilmiy jarayonda evolyutsion o'zgarishlarni amalga oshirishning shart-sharoitlarni yaratdi. Bunda turli omillar, raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, global iqtisodiy jarayonlar hisobga olindi. Ingliz modeli iste'dodli va iqtidorli bolalarni kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali g'oyalarni hal qilish orqali beqarorlikdan qochishning mumkin bo'lgan usullarini taqdim etdi. Bunday ijobiy yondashuv yordamida iqtidorli shaxslar ilm-fan, biznes va madaniyat dunyosida o'zlarini muvaffaqiyatli ko'rsata oldi. Ushbu yondashuv iste'dodli va iqtidorli bolalarning ta'lim maqomini sezilarli darajada oshirdi.

Xulosa. Xalqimizda hayot va turmush chig'irigidan o'tgan, ilm-fanga yo'g'rilgan tajribalar mavjud. Ajdodlarimizning jismida jam bo'lgan iqtidor va qobiliyat bugungi yoshlarimizda ham yo'q emas, faqat ularni yuzaga chiqarib ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri olib borish lozim. Shuning uchun ham ixtisoslashtirilgan ta'lim maskanlarida o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirishda kognitiv yondashuv ahamiyatli hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonuni, 3-modda.
2. Загвязинский В.И., Закирова А.Ф. и.т.д Педагогический словарь. –Москва: «Академия», 2008. – С. 243.
3. Raimov A., Raimova N. Hikmatlar shodasi. –Toshkent: «O'zbekiston», 2013, 12-b.
4. Ishak Demir. Yaz kuran kurslarinda okutulan dinimizi o'g'reniyorum kitabinda tedricilik kavrami. Yüksek Lisans Tezi Çorum, Hitit Üniversitesi, 2015, 6-sayfa.
5. Nauruzbaeva A.S., Nurjanova R.O. va boshqalar. Ta'ربيya isleri metodikasi. (o'qiw qollanba). – Toshkent: «Tafakkur bo'stoni», 2019, 67-b.
6. Maxmudova D.B. Mehnat va kasb ko'nikmalari vositasida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini ijtimoiylashtirishning didaktik tizimi. Avtoreferat. – Nukus: 2019, 8-b.

REZYUME. Maqolada ixtisoslashtirilgan ta'lim jarayonida kognitiv yondashuvning o'quvchilardagi iqtidorni rivojlantirish xususiyatlari va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Natijalar va muhokama. Yakuniy bosqichda qurilgan lokal kompyuter tarmog'i sinovdan o'tkaziladi va xakerlik urinishlariga chidamliligi tekshiriladi. Tarmoqqa hujum qilishda talabalar hal qiladigan asosiy vazifalardan biri ma'lumotlarning sizib chiqishining mumkin bo'lgan sabablarini aniqlashdir. Simsiz tarmoq xavfsizligini sinab ko'rish va tizimning zaifligini aniqlash uchun talabalarga tarmoqni buzishga harakat qilish vazifasi beriladi. Bundan tashqari, bo'lajak informatika o'qituvchilari buni ikki yo'l bilan bajarishlari kerak: birinchisi, kalitga ega bo'lmasdan; ikkinchisi – turli foydalanuvchilarning foydalanuvchi kompyuteridan parolga ega bo'lish: talaba, o'qituvchi va tarmoq administratori.

Hozirgi vaqtda Internet simsiz tarmoqlarni buzish usullari bo'yicha takliflar bilan to'lib-toshgan, ammo ikkita asosiysi mavjud: qo'lda tanlash usuli, Brute force (ingliz tilidan – to'liq ro'yxatga olish yoki "qo'pol kuch" usuli) – serverlarda va turli dasturlarda parollarni buzishning mashhur usullaridan biri.

Brute Force usuli Wi-Fi egasi tomonidan belgilangan mezonlarga muvofiq parollarni sinab ko'rish orqali dastur yoki Wi-Fi tarmog'iga kirishga harakat qiladigan xakerlik dasturidan iborat. Tanlashning bu usuli yaxshi, chunki parolni buzish mumkin, lekin bu juda ko'p vaqt talab qilishi

mumkin. Shuning uchun talabalar "murakkab" parol (katta va kichik harflar, raqamlar, maxsus belgilar, sezilarli uzunlik va boshqalar) axborotni himoya qilishning kuchli vositalaridan biri ekanligini tushunadilar.

Tarmoqni buzishga urinayotganda, talabalarga tarmoqda ishlatiladigan VPN sozlamalari, yashirin SSID bilan MAC yordamida IP manzillash muhim xavfsizlik xususiyatlari ekanligi o'rgatiladi. Bundan tashqari, hujjatlarni qo'shimcha himoya qilish uchun ularni to'g'ridan-to'g'ri dasturlarning o'zida yoki umumiy papka sozlamalarida tahrirlash yoki o'chirish uchun parol o'rnatish kerak bo'ladi.

Shunday qilib, o'qitish natijasida bo'lajak informatika o'qituvchilari taklif qilingan modelga muvofiq lokal kompyuter tarmog'ini mustaqil ravishda loyihalashtiradi, yaratadi va boshqaradilar. Ushbu tarmoqning asosiy afzalliklari – uning qurilish tezligi; shakllantirish jarayonida foydalanish imkoniyati; yangi qurilmalarni qo'shish qulayligi; binoni ta'mirlash va qurilish qulayligi paytida boshqa ofisga ko'chirish imkoniyati mavjudligi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bunday tarmoqning xavfsizligi simli tarmoqqa qaraganda ancha yuqori va xavfsizlik darajasini oddiy ochiqdan maksimal himoyalangan holatga qadar sozlash mumkin. Modelning kamchiliklari quyidagilardan iborat:

1) VPN tarmog'i yordamida ma'lumotlar almashinuvining past tezligi, garchi tarmoqning o'zi 750 Mbit/sek tezlikda ma'lumot almashish imkonini bersa ham;

2) standart (o'rnatilgan) axborot xavfsizligi vositalarining zaifligi, chunki bu vositalar juda keng tarqalgan va ushbu zaifliklarni topish usullari takomillashtirilmoqda.

Ta'lim muassasasida axborot-ta'lim muhitini rivojlantirishni boshqarish, shuningdek, bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashda axborot tarmog'i resurslaridan foydalanish jarayonini boshqarish uchun tarmoq texnologiyalarini ishlab chiqish "Tarmoq texnologiyalari", "Zamonaviy dasturlash tillari", "Kompyuter grafikasi va web-dizayn" fanlari bo'yicha fanlararo yondashuvga asoslanadi.

HTML belgilash tiliga, CSS kaskadli uslublar jadvallariga, JavaScript va ActionScript dasturlash tillariga asoslangan tarmoq resursini yaratish, keyinchalik Internetda joylashtirish va boshqarish "Kompyuter tarmoqlari, Internet va multimedia texnologiyalari" modulida amalga oshiriladi. Bo'lajak informatika o'qituvchilari olingan bilim va ko'nikmalardan "Zamonaviy dasturlash tillari" va "Ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish" fanlarini o'rganishda foydalanadilar, bu yerda C dasturlash tilidan dan foydalangan holda PHP server skript tili asosida tarmoq resurslarini yaratadilar. Xususan, talabalar o'zlarining bitiruv oldi pedagogik amaliyoti davomida NDPI qoshidagi 1-akademik litsey va Nukus shahridagi 48-sonli taklif qilingan modelga muvofiq lokal kompyuter tarmog'ini yaratdilar va sozladilar. Ko'pgina maktablarda o'quvchilar D-Link kaliti orqali kompyuterlarni ma'lumotlarga ochiq kirish bilan bog'laydigan xavfsiz simli lokal kompyuter tarmog'ini o'rnatdilar; provayderni o'zgartirish, server sotib olish va hokazolarni taklif qildilar.

Xulosa. Tarmoqli texnologiyalarni o'qitish jarayoni o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni hamda informatika o'qituvchilarining yuqori malakasini taqozo etadi. Tarmoq kompetensiyasi kompyuter tarmog'ida bilim va ko'nikmalarni qo'llash

qobiliyatini o'z ichiga oladi. Maqolada bo'lajak informatika o'qituvchilariga tarmoq texnologiyalarini o'rgatishning fanlararo yondashuvga asoslangan metodikasi keltirilgan. Ushbu metodikada lokal kompyuter tarmoqlarini loyihalash, yaratish, boshqarish, server bilan bog'liq masalalarni hal qilish, brandmauer turini tanlash, tarmoq

ta'lim resurslarini yaratish hamda ularni internetga joylashtirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan tarmoq texnologiyalarini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari keltirilgan. Bo'lajak informatika o'qituvchilarini o'qitish jarayonida ushbu metodikani tadbqiq etish natijalari taqdim etilgan.

Adabiyotlar

1. Бабанский Ю.К. Проблемы повышения эффективности педагогических исследований: (Дидактический аспект), -М.: 1982. –С.192.
2. Никитин П.В. Роль междисциплинарных связей в аспекте компетентностного подхода при подготовке будущих учителей информатики // Международный электронный журнал «Образовательные технологии и общество (Educational technology & Society)». 2011. Т. 14, № 1. – С. 317-337.
3. Alaminov M.X., Utemuratov T.R. Kompyuter tarmoqlari. O'qiw qollanba. –T.: Fan va texnologiya, .2018, 164- b.
4. Alaminov M.X. Tarmaq texnologiyalari. –N.: O'qiw qollanba.Ilimpaz, 2023, 168- b.
5. Alaminov M.X. "Tarmoq texnologiyalari" fanini o'qitishda amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvdan foydalanish// Ilim ham jamiyet , 2024. №6 (2) , 59-60- b.
6. Alaminov M.X. Tarmoq texnologiyalarini o'qitishdagi asosiy muammolar haqida. // « Ilim ham jamiyet», 2025, №3.

REZYUME. Maqolada bo'lajak informatika o'qituvchilariga tarmoq texnologiyalarini o'rgatish metodikasi keltirilgan. Ushbu metodika fanlararo yondashuvga asoslangan bo'lib, unda lokal kompyuter tarmoqlarini loyihalash, yaratish, boshqarish, server bilan bog'liq masalalarni hal qilish, brandmauer turini tanlash, tarmoq ta'lim resurslarini yaratish hamda ularni internetga joylashtirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan tarmoq texnologiyalarini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari keltirilgan. Bo'lajak informatika o'qituvchilarini o'qitish jarayonida ushbu metodikani tatbiq etish natijalari taqdim etilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье представлена методика обучения сетевым технологиям будущих учителей информатики. Данная методика основана на междисциплинарном подходе и представляет современные тенденции развития сетевых технологий, направленные на формирование знаний и навыков, необходимых для проектирования, создания и управления локальными компьютерными сетями, решения проблем, связанных с серверами, выбора типа межсетевого экрана, создания сетевых образовательных ресурсов и размещения их в сети Интернет. Представлены результаты применения данной методики в подготовке будущих учителей информатики.

SUMMARY. The article presents a methodology for teaching network technologies to future computer science teachers. This methodology is based on an interdisciplinary approach, which presents modern trends in the development of network technologies aimed at developing the knowledge and skills necessary for designing, creating, managing local computer networks, solving server-related issues, choosing a firewall type, creating network educational resources and placing them on the Internet. The results of applying this methodology in the process of training future computer science teachers are presented.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA BASKETBOL ELEMENTLARINI O'RGATISHNING METODIK YONDASHUVI

Sh.Arziev – *assistent o'qituvchi*

I.Kalmuratov – *assistent o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: basketbol, texnika, taktika, sport mashg'uloti, jamoaviy o'yin, interaktiv mashg'ulotlar, qaror qabul qilish, himoya va hujum, to'p bilan ishlash, tezkorlik, koordinatsiya.

Ключевые слова: баскетбол, техника, тактика, спортивная тренировка, командная игра, интерактивные тренировки, принятие решений, защита и атака, работа с мячом, скорость, координация.

Key words: basketball, technique, tactics, sports training, team play, interactive training, decision-making, defense and attack, ball work, speed, coordination.

Kirish. Sport mashg'ulotlarida texnika va taktika elementlarini chuqur va puxta egallash – sportchining yuqori natijalarga erishishida muhim omillardan biridir. Ayniqsa, zamonaviy sport turlari orasida basketbol murakkab texnik harakatlar, dinamik harakatlanish, tezkor qaror qabul qilish va jamoaviy hamkorlikni talab qiluvchi sport turi sifatida ajralib turadi. Ushbu sport turida o'yinchilar nafaqat individual jismoniy tayyorgarlikka, balki murakkab taktik holatlarda to'g'ri yo'l tutish, raqib harakatlariga moslashish va jamoaviy strategiyani anglab harakat qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlari talab etiladi. Bu esa o'z navbatida, sportchini professional darajaga olib chiqishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Basketbol o'zining o'yin xususiyatlari bilan boshqa sport turlaridan farq qiladi. Bu o'yin jarayonida o'yinchi bir vaqtning o'zida bir nechta kognitiv va motorik funktsiya-

larni faollashtiradi: masalan, tez harakatlanish, qaror qabul qilish, vizual kuzatuvchanlik, joylashuvni baholash va jamoaviy harakatlarni muvofiqlashtirish. Shu boisdan ham basketbol mashg'ulotlari nafaqat jismoniy faollikni oshiradi, balki o'quvchilarning aqliy va psixologik rivojlantirishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, texnik harakatlarni ongli va avtomatik tarzda bajarish, jamoaviy o'yinlarda o'z o'rnini to'g'ri anglash va tezkor vaziyatlarga mos qaror qabul qilish malakalari sportchilarda faol sport tafakkurini shakllantiradi.

Basketbol mashg'ulotlarining ilmiy asoslangan holda tashkil etilishi o'quvchilarning har tomonlama rivojlantirishida muhim rol o'ynaydi. Bunday mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda sportga nisbatan ijobiy munosabat, sog'lom turmush tarzi madaniyati, raqobatbardoshlik, jamoaviylik va irodaviy sifatlar shakllanadi. Shu nuqtai nazardan olib

qaralganda, basketbol o'rgatish jarayonida texnika va taktika elementlarini samarali, bosqichma-bosqich, vizual va taktik kontekstda o'rgatish metodikasini ishlab chiqish – dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Amaliyot ko'rsatmoqdaki, texnik va taktik harakatlarning mukammal o'zlashtirilishi sportchining o'yindagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezondir. Masalan, to'pni yuritish, to'p uzatish, savatchaga aniq tashlash kabi texnik harakatlar avtomatik darajaga olib chiqilmasa, o'yin davomida yuqori darajadagi samaradorlikka erishish qiyin bo'ladi. Shu bilan birga, taktik jihatdan pozitsion joylashuv, pressing, himoyaviy harakatlar, tezkor hujum kabi elementlarni jamoa bilan uyg'unlikda bajarish sport o'yinining sifati va natijasi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy sport pedagogikasi nuqtai nazaridan qaraganda, faqatgina an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolmasdan, interaktiv texnologiyalar, videoanalizlar, rolli o'yinlar, differensial yondashuvlar va sport simulyatorlaridan foydalanish texnik va taktik harakatlarni tezroq, chuqurroq va ongli o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan basketbol mashg'ulotlarini puxta tashkil qilish va har bir sportchini individual yondashuv asosida tayyorlash – ularning kelajakdagi sport faoliyati uchun poydevor yaratadi.

Shunday qilib, basketbol mashg'ulotlarida texnika va taktikani samarali o'rgatish nafaqat sport natijalarini yaxshilaydi, balki o'quvchilarning intellektual, psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ham muhim ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar va amaliy tajribalar doimiy rivojlanish va yangilanib borishni talab qiladi.

Metodologiya. Basketbol mashg'ulotlarida texnika va taktikani samarali o'rgatish nafaqat sport maktablarida, balki umumta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya darslarida ham muhim o'rin tutadi. Bu orqali yosh avlodga sport madaniyati, sog'lom turmush tarziga intilish, jamoada ishlash qobiliyati, raqobatbardoshlik va irodaviy sifatlar shakllanadi. Basketbolda muvaffaqiyatli natijalarga erishgan sportchilar tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'yinchilik mahoratining asosiy poydevori aynan erta yoshdagi texnik-taktik tayyorgarlikdan boshlanadi.

Shu sababli ushbu maqola basketbol o'yinida texnika va taktika elementlarini samarali o'rgatish, ularni sportchilar ongiga chuqur singdirish yo'llari va amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladigan ilg'or metodlar asosida chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot orqali basketbol texnikasi va taktikasini o'rgatishda innovatsion usullarning samaradorligi, pedagogik jarayonlarga integratsiyalashuvi va yosh sportchilar tayyorgarligiga ta'siri ilmiy asosda yoritiladi.

Metodlar. Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

1. *Empirik kuzatuv:* bunda 10-16 yoshdagi o'quvchilar tanlab olindi. Ular bilan 6 oy davomida basketbol mashg'ulotlari o'tkazilib, o'yin jarayonida texnik va taktik usullardan foydalanish usullari o'rgatildi.

2. *Eksperimental guruh tahlili:* Ikki guruh tuzildi: nazorat guruhi (standart mashg'ulot dasturi bilan) va eksperimental guruh (interaktiv, bosqichma-bosqich texnika-taktika asosida).

3. *Anketalar va suhbatlar:* Mashg'ulotlardan keyin murabbiy va o'quvchilar bilan suhbatlar tashkil etilib, o'rgatish samaradorligi haqida fikrlar olindi.

4. *Vaqtli testlar:* Har uch oyda texnik harakatlar (uzatmalar, to'p yuritish, to'p tashlash) va taktik yondashuvlar (pozitsion himoya, tezkor hujum) bo'yicha sinovlar o'tkazildi.

Natijalar. Yuqoridagi metodlar asosida olib borilgan tadqiqotlarda quyidagi ijobiy natijalar qayd etildi:

Eksperimental guruhda:

- *Texnik malakalar:* O'yinchilarning to'pni yuritish aniqligi 23% ga, to'p uzatish aniqligi 19% ga yaxshilandi.

- *Taktik qarorlar:* Taktik holatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'rsatkichi 32% ga oshdi.

- *Jamoaviy hamkorlik:* jamoaviy o'yinni tushunish va muvofiqlashtirish darajasi yuqoriroq bo'ldi (murabbiylar fikriga ko'ra 8,5 ball).

- *Sportchilar motivatsiyasi:* Interaktiv metodlardan foydalanilgan mashg'ulotlarda ishtirokchilarning darsga kelish ko'rsatkichi 15% ga oshdi.

Nazorat guruhda:

Eksperimental guruhga nisbatan ijobiy o'zgarishlar deyarli kuzatilmadi yoki o'rtacha darajada bo'ldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, basketbol mashg'ulotlarida faqat jismoniy yuklamalarga emas, balki texnikani bosqichma-bosqich, vizual va taktik kontekstda o'rgatish usullariga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Murabbiylar tomonidan "ko'rsat – tushuntir – bajartir – tahlil qil" tamoyiliga amal qilish, o'yinchilarda texnika va taktikani samarali o'zlashtirish imkonini beradi [2].

Shuningdek, o'rgatish jarayonida interaktiv texnologiyalar – videoanalizlar, simulyatsion mashqlar va rolli o'yinlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va harakatlanish layoqati rivojlanadi. Taktik mashg'ulotlarda tez o'zgaruvchi holatlarga tayyorlash (masalan, 2x1, 3x2 hujum-himoya mashqlari) katta samara beradi.

Muhokama. Texnika – bu basketbolchining to'p bilan yerda yurishi (dribbling), to'p uzatish, qabul qilish, to'pni savatchaga otish, himoyaviy harakatlar, raqibdan to'pni olib qo'yish, yugurish va to'xtash kabi asosiy harakatlarni to'g'ri va avtomatik tarzda bajarishidir. Taktika esa o'yin davomida o'zaro kelishilgan jamoaviy harakatlarni, raqibga nisbatan ustunlikni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan pozitsion va situatsion strategiyalarni anglatadi. Basketbol o'yinida muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun texnika va taktika o'rtasidagi uyg'unlik alohida ahamiyatga ega. Shu bois sportchilarni tayyorlashda faqat jismoniy faollik emas, balki analitik fikrlash, harakat tezligi, vizual kuzatuvchanlik, hamkorlik va muvozanatli reaksiya ham e'tiborga olinadi.

Zamonaviy basketbol pedagogikasida texnika va taktikani o'rgatish usullari ko'p bosqichli, bosqichma-bosqich murakkablashuvchi va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida olib boriladi. Bunda nafaqat an'anaviy mashqlar, balki zamonaviy texnologiyalar, videotasvirlar, model-lashtirish, interaktiv o'yinlar, differensial yondashuv, sport simulyatorlari va raqamli tahlillar asosida mashg'ulotlar tashkil etiladi. Sport psixologiyasi va didaktikasiga tayan-gan holda, mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish uchun har bir sportchining individual xususiyatlari – temperament, e'tibor darajasi, harakat koordinatsiyasi va motivatsiyasi hisobga olinadi.

Basketbol o'yinida texnika va taktika o'rgatish murakkab va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan jarayon bo'lib, bu jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan tanlangan metodik yondashuvlar, sportchilarning yosh va psixofizio-

logik xususiyatlari hamda murabbiyning pedagogik mahoratiga bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, basketbol mashg'ulotlarida innovatsion yondashuvlardan – videoanaliz, simulyatsiya, interaktiv o'yinlar, differensial mashqlar, sport tahlil dasturlari va boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalanish texnik va taktik harakatlarni tezroq va chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi. An'anaviy metodlar bilan solishtirganda, zamonaviy vositalar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, harakatlarni anglab bajarish darajasini mustahkamlaydi, o'yindagi vaziyatlarga moslashuvchanlik va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mashg'ulotlar jarayonida texnik ko'nikmalarni avtomatlashtirish – ya'ni to'pni yerda olib yurish, aniq uzatish, to'pni qabul qilish, savatchaga tashlash kabi harakatlarni tabiiy va reflektor darajada bajarish – o'yinchining umumiy samaradorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, taktik harakatlar: zona himoyasi, pozitsion joylashuv, pressing, tezkor hujum va qarshi harakatlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni to'g'ri va jamoa bilan muvofiqlikda bajarish – jamoaning umumiy o'yin sifatini belgilaydi. Shuning uchun basketbolni o'rgatish jarayonida nafaqat harakatni o'rgatish, balki ularni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'liqliklarini anglash, har bir harakatning o'yindagi o'rni va rolini tushuntirish orqali chuqur o'zlashtirishga erishiladi.

Tajriba asosida aniqlanganki, o'quvchilarning psixologik tayyorgarligi, motivatsiyasi, raqobatga tayyorlik darajasi va jamoa bilan ishlash salohiyati ham murabbiyning

yondashuviga bog'liq. Shaxsga yo'naltirilgan, ijobiy rag'batlantiruvchi va qiziqarli metodlar qo'llanilganda, o'quvchilar basketbolga bo'lgan qiziqishini saqlab qoladi va o'zini rivojlantirishga intiladi. Ayniqsa, real o'yin vaziyatlarini yaratish, o'yinli mashqlar tashkil etish, erkin harakatlar orqali muammoli vaziyatlarni hal qilish o'quvchilarda sport tafakkurini shakllantiradi.

Shuningdek, basketbol o'rgatishda murabbiylarning o'z ustida doimiy ishlashi, metodik yangiliklardan xabardor bo'lishi, ilmiy izlanishlar bilan tanishib borishi ham muhim hisoblanadi. Sababi har bir o'yinchi o'ziga xos psixofizik xususiyatlarga ega bo'lib, ularga mos yondashuv – yondashuvning individuallashtirilganligini taqozo etadi. Bu esa nafaqat o'rgatish samaradorligini oshiradi, balki sportchining o'ziga bo'lgan ishonchini, mustaqil fikrlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, basketbol o'yinida texnika va taktikani o'rgatish murakkab, ammo to'g'ri yondashuv bilan nihoyatda samarali bo'lishi mumkin bo'lgan pedagogik jarayondir. Interaktiv, bosqichli va nazariy-amaliy integratsiyalangan metodikalar orqali nafaqat sport ko'rsatkichlari yaxshilanadi, balki o'quvchilarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy jihatdan kamol topishi uchun mustahkam zamin yaratiladi. Bu esa o'z navbatida, yosh sportchilarning kelajakda yuqori darajadagi raqobatbardosh basketbolchilarga aylanishi uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Карпенко Л.А. Современная методика обучения баскетболу. –Москва: «Физкультура и спорт», 2016.
2. Фомин А.В. Баскетбол: Основы техники и тактики. – Санкт-Петербург: «СпортЛит», 2020.

REZYUME. Maqolada basketbol o'yinida texnika va taktika elementlarini samarali o'rgatishning metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqot davomida 10-16 yoshdagi o'quvchilar bilan olib borilgan amaliy mashg'ulotlar natijalariga tayanilgan. Maqolada shuningdek, murabbiylar uchun amaliy tavsiyalar va ilg'or pedagogik metodlar ham taklif etilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье освещены методические основы эффективного обучения элементам техники и тактики в баскетболе. В ходе исследования опирались на результаты практических занятий, проведенных с учащимися 10-16 лет. В статье также предлагаются практические рекомендации и передовые педагогические методы для тренеров.

SUMMARY. This article covers the methodological foundations for effectively teaching the elements of technique and tactics in basketball. During the research, we relied on the results of practical exercises conducted with students aged 10-16. The article also offers practical recommendations and advanced pedagogical methods for coaches.

SO'Z TURKUMLARINI O'RGANISH METODIKASI

S.J.Atiyazov – o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: so'z turkumlari, metodika, interfaol usullar, til, ta'lim, pedagogika.

Ключевые слова: лексика, методика, интерактивные методы, язык, образование, педагогика.

Key words: vocabulary, methodology, interactive methods, language, education, pedagogy.

Kirish. Grammatikaning bir qismi morfologiya bo'lib, so'z shakllari, bu shakllarning hosil bo'lish yo'llari va so'zlarning ma'lum belgilar asosida guruhlariga, ya'ni so'z turkumlariga bo'linishini o'rganadi.

Adabiyotlarda leksik birliklar va grammatik birliklarlar birgalikda so'z termini bilan nomlanib, ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish so'zlar mustaqil so'z turkumlari deb, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama yordamchilar deb guruhlanadi, modal so'z, undov, taqlid so'z alohida-alohida turkumlar deb ajratiladi [2:34].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sobiq Ittifoq parchalangach uning tarkibidan ajralib chiqqan respublikalarda morfologiya va sintaksisni bog'lab o'rganish masalalari har bir tilning xususiyatlaridan kelib chiqib yondashgan holda tadqiq qilina boshlangan. Milliy

maktablarda rus tilini o'qitishda morfologiya va sintaksisni bog'lab o'rganishga lingvodidaktik prinsip sifatida yondashuv (M.Shxapaseva, N.Kazanskaya), rus tilini chet tili sifatida o'qitishda sintaksis asosida leksika va morfologiyani o'rganish masalalari (Y.Rubsova), ta'lim mazmuni komponentlarini bog'lab o'rganishning ahamiyati (A.Zvezdina), ta'lim mazmuni komponentlarini bog'lab o'rganishning o'ziga xos prinsiplari (A.Tenixina), tadqiq qilingan.

So'z turkumlari ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi so'zlarning leksik-grammatik, morfologik va sintaktik belgilariga ko'ra turli guruhlariga ajratilishi, ya'ni so'z turkumlari haqidagi ilm hisoblanadi.

So'zlarni leksik-grammatik turkumlarga ajratishda uch belgi:

1) leksik ma'nosi (nimani ifodalashi, ya'ni shaxs, narsa, harakat yoki holat, belgi kabilarning umumlashtirilgan ma'nolari);

2) morfologik (so'zning turli shakllari tizimi);

3) sintaktik (turli morfologik shakllarning sintaktik vazifa bajarishi) belgilariga asoslaniladi. Demak, so'z turkumlari ustida ishlash o'quvchilarning muayyan guruhdagi so'zlarning umumlashtirilgan ma'nolarini, kishilarning aloqa vositasi sifatidagi rolini tushunib olishlariga qaratilishi lozim.

Natijalar tahlili. Morfologiyani o'rganish o'quvchining mustaqil va ijodiy tafakkur doirasini kengaytiradi, so'zning turli shakllarini o'rganish va yangi so'z hosil qilish, ularni o'zaro qiyoslash va tanlash, tanlab olingan so'zni gap tarkibida hamda bog'lanishli nutqda o'rinli ishlatish ko'nikmalarini rivojlantiradi [1:86].

So'z turkumlarini o'rganishning boshlang'ich bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratish va shakllantiriladigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. O'quvchilar ot, sifat, son, fe'ining quyidagi xususiyatlarini bilib oladilar:

1) so'z nimani bildirishi (shaxs, narsa, belgi, miqdor va tartib, harakat yoki holat);

2) qanday so'roqlarga javob bo'lishi;

3) o'zgarish-o'zgarishligi, qanday doimiy kategoriya-lari mavjudligi;

4) gapda, asosan, qanday bo'lak vazifasida kelishi.

O'quvchilar mana shu o'rgangan belgilari asosida so'z turkumlarini qiyoslaydilar. Ular nimani o'rganganlariga qarab, har bir so'z turkumining grammatik belgilari haqidagi bilimlari asta kengayib chuqurlashib boradi.

Masalan, „Ot“ mavzusini o'rganish tizimi maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, bunda shu so'z turkumining umumlashtirilgan ma'nosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog'liqlikda o'rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to'g'ri foydalanish va to'g'ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtirib boriladi.

Til hodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni o'rganish vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ulami o'rganish izchilligi belgilangan.

Otni o'rganish vazifalari quyidagilar:

1) „ot“ haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish;

2) *kim?* so'rog'iga javob bo'lgan (shaxs bildirgan) otlardan *nima?* so'rog'iga javob bo'lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash ko'nikmasini hosil qilish;

3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo'yilgan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasini shakllantirish;

4) otlarda son (otning birlik va ko'plikda qo'llanishi) bilan tanishtirish;

5) otlarni egalik qo'shimchalari bilan to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish;

6) otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish;

7) o'quvchilar lug'atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o'rinli foydalanish malakasini o'stirish;

8) so'zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish.

Bu vazifalarning har biri alohida emas, balki bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda hal etiladi. Shu bilan birga, „Ot“ mavzusini o'rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo'lgan bir vazifani hal qilishga ko'proq ahamiyat beriladi. O'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish vazifasi esa mavzuni o'rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materialni o'rganish va orfografik malaka hosil qilishning butun jarayoni o'quvchilar lug'atini boyitishga, bog'lanishli nutq malakalari va fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga qaratiladi.

Morfologiya grammatikaning bir qismi bo'lib, so'zlarning shakllari, bu shakllarning hosil bo'lish yo'llari va so'zlarning ma'lum belgilar asosida guruhlarga, ya'ni so'z turkumlariga bo'linishini o'rganadi. Shu bois, morfologiyani o'qitishda asosiy e'tibor so'zning tuzilishi, yasalishi, so'z turkumlariga bo'linishiga qaratiladi [3:205].

So'z turkumi sifatida ot muayyan leksik ma'nolari va grammatik belgilari bilan ajralib turadi. Barcha otlarning umumiy leksik ma'nosi shaxs va narsani ifodalash hisoblanadi. Ot jonli mavjudotlar (*kishi, qush, hayvon, asalari*), yer va osmonga oid narsalar (*quyosh, yulduz, daryo, tog'*), o'simliklar (*paxta, beda, gul*), voqealar (*yig'in, majlis*), tabiat hodisalari (*shamol, bo'ron, yomg'ir, momaqaldiraq*), belgi-xususiyat (*ahillik, kuchlilik, samimiyat*), harakat-holat (*uyqu, sevinch, kurash*), o'rin va vaqt (*yoz, bahor, joy*) nomlarini bildiradi.

Otlarning grammatik belgilari: otlar birlik va ko'plikda qo'llanadi, egalik qo'shimchalari bilan o'zgaradi, kelishiklar bilan turlanadi, gapda ko'proq ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, shuningdek, hoi va kesim vazifasida keladi. Ot nutqda sifat, son, olmosh, fe'l bilan birika oladi.

Otning ma'nolari va grammatik belgilari xiyla murakkab, shuning uchun ham ot haqidagi bilim o'quvchilarda amaliy vazifalarni bajarish jarayonida asta shakllantira boriladi.

Otni o'rganishda izchillik. Otni o'rganishga tayyorlov bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda o'quvchilar shaxs-narsalarni va ularning nomi bo'lgan so'zlarni farqlashga o'rganadilar, so'zning leksik ma'nosiga e'tibor ko'proq qaratiladi, ma'nolarini hisobga olgan holda so'zlar (qushlar, meva va sabzavotlar, kiyimlar va hokazolarni bildirgan otlar)ni guruhlash ko'nikmasi shakllantiriladi. So'zlarni leksik ma'nosi asosida guruhlash mashqlari otlarni taqqoslash, o'xshash tomonlarini aniqlash, umumlashtirish ko'nikmasini o'stiradi. Shunga qaramay, grammatik tushunchani shakllantirish uchun o'quvchilar so'zning aniq ma'nosini yetarli bilmaydilar, so'zning leksik ma'nosini bilish bilan birgalikda uning grammatik belgilari ham o'zlashtirish zarur.

Keyingi bosqichda otning leksik ma'nolari va grammatik belgilari ustida maxsus ishlanadi (*kim? yoki nima?* so'rog'iga javob bo'lishi, shaxs, narsani bildirishi tushuntiriladi). O'quvchilar *kim?* so'rog'iga javob bo'lgan otlarni *nima?* so'rog'iga javob bo'lgan otlardan farqlashni, ularni so'roq berish bilan ajratishni o'rganadilar, o'quvchilarda mavhum grammatik tafakkur o'sa boradi, ularda atoqli otlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasi shakllana boradi.

„Ot“ tushunchasini shakllantirish uchun shu so'z turkumiga kiradigan otlarni asosiy leksik guruhlarga ajratish, barcha otlarga xos bo'lgan belgilarni, ularning nutqimizdagi o'rnini ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda mavzuni o'rganishga bag'ishlangan birinchi darslardayoq

shaxs va narsani bildiradigan soʻzlar bir tizimga solinadi, kishilarni, buyum, oʻsimliklar va hayvonlarni, tabiat hodisalarini, voqealarni bildiradigan soʻzlar guruhlariga ajratiladi. Shu soʻzlarning hammasi uchun umumiy boʻlgan belgilar aniqlanadi: bu soʻzlar shaxs, narsalarni bildirib *kim?* yoki *nima?* soʻrogʻiga javob boʻladi.

Dasturga koʻra, oʻquvchilar sifat va boshqa soʻz turkumlaridan yasalgan mavhum maʼnodagi (*yaxshilik, goʻzallik, ishonch, sevinch, oʻkinch, qoʻrqinch, tayanch* kabi) otlar bilan tanishtirish talab etilmaydi. Ammo matnda uchrasa va oʻquvchilar qiziqib soʻrasalar, otlarning bolalar oʻrgangan belgilari asosida (*nima?* soʻrogʻiga javob boʻlishi, shaxs yoki narsa nomini bildirishi) tushuntiriladi. Otlarning nutqda katta ahamiyatga ega ekanini koʻrsatish uchun Oʻqituvchi oʻqish kitobidan matn tanlab, oʻquvchilarga matndagi otlarni topishni, soʻngra matnni shu soʻzlarsiz oʻqishni topshiradi. Oʻquvchilar matndagi otlarni tushirib qoldirib oʻqiganda, matn mazmunini tushunib boʻlmashligini anglaydilar. Xulosa chiqariladi: ot atrofimizni oʻrab olgan shaxs va narsalarning nomi, bu soʻzlarsiz bir-birimizga oʻz fikrimizni tushuntira olmaymiz.

Otlarning birlik va koʻplikda qoʻllanishi. „Otlarning birlik va koʻplikda qoʻllanishi“ ustida ishlash jarayonida oʻquvchilarda: 1) birlik va koʻplikda qoʻllangan otlarning maʼnosi va qoʻshimcha orqali farqlash, 2) birlikdagi oldan koʻplik shaklidagi va, aksincha, koʻplikdagi oldan birlik sondagi ot hosil qilish, 3) gapda soʻzlarning bogʻlanishini hisobga olgan holda, otlardan nutqda toʻgʻri foydalana olish koʻnikmalari shakllantiriladi.

Otlarning birlik va koʻplikda qoʻllanishi taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi. Buning uchun bir predmetni va shunday bir nechta predmetni bildirgan otlar taqqoslanadi: *daftar* — *daftarlar*, *qalam* — *qalamlar*, *nok* — *noklar* kabi. Suhbat asosida *daftar* soʻzi nechta (bitta) predmetni va *daftarlar* soʻzi nechta (ikki va undan ortiq) predmetni bildirishi aniqlanadi. Boshqa soʻzlar bilan ham shunday ishlanadi. Oddiygina xulosa chiqariladi va fikrlar iimulashtiriladi: agar otlar bir predmetni bildirsa, birlikda qoʻllanadi, agar ikki va undan ortiq shaxs yoki narsani bildirsa, koʻplikda qoʻllanadi. Koʻplikdagi otni yasash uchun birlikdagi otga -lar qoʻshimchasi qoʻshiladi. Birlikdagi otlar kim? yoki nima? soʻrogʻiga, koʻplikdagi otlar esa kimlar? yoki nimalar? soʻrogʻiga javob boʻladi.

Oʻquvchilarga faqat birlikda qoʻllanadigan otlar, yaʼni *armiya*, *qoʻshin*, *xalq* kabi otlar koʻplik maʼnosini bildirishi, bunday otlarga koʻplik qoʻshimchasi qoʻshilganda anglatadigan maʼnosi maxsus tushuntirilmaydi. Agar oʻquvchilar bu haqda savol bersalar, soddagina shaklda tushuntirish mumkin.

Otlarning birlik va koʻplikda qoʻllanishini kuzatish aslida soʻz shakli ustida ishlashning boshlangʻich bosqichi hisoblanadi. Bunda oʻquvchilar otlarni koʻplik qoʻshimchasi bilan oʻzgartirish, yaʼni otga shakl yasovchi qoʻshimcha qoʻshish bilan soʻzning leksik maʼnosi oʻzgarishligiga ishonch hosil qiladilar.

Oʻquvchilarga egalik qoʻshimchasi shaxs, narsa birlik va koʻplikdagi uch shaxsdan biriga taalluqli ekanini bildirishini tushuntirish qiyin. Shularni hisobga olib, oʻquvchilarni otlarning egalik qoʻshimchalari bilan qoʻllanishini oʻzgartirishda oʻqituvchi ishni sarlavhadagi „egalik“ soʻzining leksik maʼnosini tushuntirishdan boshlashi maqsadga muvofiq: „egalik“ ega boʻlish, qarashlilik, tegishlilik, oidlik maʼnolarini bildiradi, demak, egalik

qoʻshimchasi deganda biror narsaga ega boʻlishni, shu narsa tegishli, shu narsaning egasi ekanini bildiradigan qoʻshimchalar tushuniladi. Otlar egalik qoʻshimchalari bilan qoʻllanadi. Otga qoʻshilgan egalik qoʻshimchasi shu ot ifodalagan shaxs, narsaning kimgadir qarashli ekanini, shu narsaning egasi ekanini bildiradi. Misollarni kuzataylik: *Kecha oʻqigan kitobim juda qiziqarli ekan. Sening kitobing ham qiziqarlirmi?* Raʼnoning kitobi ham qiziqarli edi.

Kitobim, kitobing, kitobi soʻzlari soʻz tarkibiga koʻra tahlil qilinadi va oʻquvchilar *kitob* — oʻzak, -im, -ing, -i qoʻshimcha ekanini aniqlaydilar. Oʻqituvchi *kitob* va *kitobim* soʻzlarini taqqoslashni, -im qoʻshimchasining maʼnosi haqida oʻylab koʻrishni topshiradi, muammoli vaziyat yaratadi; oʻquvchilar qoʻshimchaning maʼnosi haqida fikr yuritadilar, ammo *kitobim* soʻzining maʼnosiga (*mening kitobim* — kitob meniki) tushunsalar ham, fikrlarini shakllantirib aytib berolmaydilar. Oʻqituvchi qisqa tushuntiradi:

— Tilda uchta shaxs mavjud:

I shaxs - soʻzlovchi II shaxs — tinglovchi III shaxs — oʻzga

Hozir men sizga soʻzlayapman, tushuntiryapman, demak, men — soʻzlovchi, hozir siz meni tinglayapsiz, demak, siz (sen) tinglovchi, hozir tinglashga qatnashmayotganlar ham bor, u (ular) — oʻzga hisoblanadi. Siz otlar birlik va koʻplik sonda qoʻllanishini bilasiz. Maʼlumki, biror narsa bir shaxsga yoki ikki va undan ortiq shaxsga tegishli boʻlishi mumkin. Mana shu maʼnolarni, yaʼni biror shaxs va narsaning birlik yoki koʻplikdagi uch shaxsdan biriga qarashli ekanini otga qoʻshilgan egalik qoʻshimchalari bildiradi. Masalan, *kitobim* soʻziga qoʻshilgan -im qoʻshimchasi kitobning I shaxsga taalluqli ekanini, yaʼni kitobing egasi I shaxs ekanini bildiradi (-ing, -i qoʻshimchalari ham shunday tushuntiriladi). *Kitobimiz* soʻzidagi -imiz qoʻshimchasi kitob soʻzlovchi shaxsga, shu bilan birga, koʻp shaxsga (koʻp soʻzlovchiga) tegishli ekanini bildiradi (-ingiz, -i qoʻshimchalari ham shunday tushuntiriladi). Qisqa xulosa chiqariladi: otlarga qoʻshilgan mana shunday qoʻshimchalar egalik qoʻshimchalari deyiladi. Egalik qoʻshimchalari tegishlilik, egalik maʼnosini bildiradi.

Egalik qoʻshimchalari otlarga ikki variantda qoʻshiladi. *Akam* va *kitobim*, *akang* va *kitobing*, *akasi* va *kitobi* kabi oxiri unli hamda undosh tovush bilan tugagan otlar soʻz tarkibiga koʻra tahlil qilinadi, qoʻshimchalar taqqoslanadi, suhbat asosida xulosa chiqariladi: oxiri unli tovush bilan tugagan otlarga -m, -ng, -si, -miz, -ngiz, -si egalik qoʻshimchalari, oxiri undosh tovushlar bilan tugagan otlarga -im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -i egalik qoʻshimchalari qoʻshiladi. Shundan soʻng oʻquvchilar „Ona tili“ darsligidagi qoidani oʻrganadilar, jadvalni tahlil qiladilar.

Oʻquvchilarga egalik qoʻshimchalari haqidagi koʻnikmani shakllantirish uchun matndan egalik qoʻshimchasi bilan qoʻllangan otni topish, uni tarkibiga koʻra tahlil qilib, egalik qoʻshimchasining shaxssonini aniqlash, matnda berilgan otga tushirib qoldirilgan egalik qoʻshimchasini qoʻshish, narsa qaysi shaxs yoki shaxslarga qarashli ekanini aytish kabi mashqlardan foydalaniladi.

Egalik qoʻshimchasi ustida ishlash bu bilan tugamaydi. Otlarning kelishiklar bilan turlanishini oʻrganish jarayonida egalik qoʻshimchasi bilan qoʻllangan ot qaratqich kelishigida kelgan boshqa ot bilan (*kitobning muqovasi, Rahimning kitobi*), kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turla-

nishini o'rganish jarayonida esa egalik qo'shimchasi bilan kelgan ot qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshi bilan bog'lanib, so'z birikmasi hosil qilishi haqida bilim beriladi.

Otlaming kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatish. Kelishiklar sintaktik kategoriya hisoblanadi. Kelishik otlaming gapda boshqa so'zlar bilan munosabatini ifodalaydi. Demak, kelishiklarni o'rgatishda o'quvchilarning gapda so'zlarning bog'lanishini bilishlari nazarda tutiladi. Kelishiklar ustida ishlashni o'quvchilar gapda ma'no va grammatik tomondan bog'langan so'zlarni (so'z birikmalarini) ajratishga o'rgananlaridan so'ng boshlanadi. Kelishiklar ustida ishlash gapda so'zlarning bog'lanishi ustida ishlash hamdir. Kelishiklarni bilish uchun o'quvchi ot gapda qaysi so'z bilan bog'langanini aniq bilishi kerak. Ot gapda boshqa so'zlar bilan bog'langanda qo'shimchalar bilan o'zgarishi ancha oldindan kuzatib boriladi. Aslida o'quvchilar

Otlaming kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi — turlanish haqida tushuncha berish bilan o'quvchilarga kelishik qo'shimchalari gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilishi, o'zbek tilidagi olti kelishik, ularning nomi, so'roqlari, qo'shimchalari va joylashish tartibi tushuntiriladi.

O'quvchilar turlanish bilan kelishiklarning mohiyatidan kelib chiqib gapni tahlil qilish jarayonida tanishtiriladi, gapning asosi (ega va kesim) va so'z birikmalari ajratiladi. Ular gapda bir otning boshqa har xil so'zlar bilan shakl yasovchi qo'shimchalar (*ning, -ni, -go, -da, -dan*) yordamida bog'lanishini kuzatadilar, bu qo'shimchalar kelishik qo'shimchalari ekanini, otlaming kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi turlanish deyilishini bilib oladilar. Bolalarga kelishiklarning joylashish tartibi, so'roqlari va bosh kelishikdan boshqa kelishiklarning aniq qo'shimchalari mavjudligi darslikda berilgan jadval yordamida tushuntiriladi. Bosh kelishikdagi ot gapda ega vazifasida, boshqa kelishikdagi otlar esa ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi bilan ham tanishtiriladi.

O'quvchilar o'zlashtirgan grammatik bilimlarini imloni o'zlashtirishda foydalana olishlari uchun ishni bajarishda izchillikka katta ahamiyat beriladi. Bajarilgan ish yozib boriladi: o'quvchilar awal gapda ot bog'langan so'zdan shu otga savol beradilar va savolni qavs ichiga yozadilar; keyin so'roqqa qarab kelishikni aniqlaydilar. Masalan, *o'qidi* (nimani?) — kitobni, tushum kelishigi). Ular buni yaxshi o'zlashtirganlaridan so'ng, mashq tez bajariladi, yozish talab etilmaydi.

Ko'plikdagi otlaming turlanishini o'rganishda nutqda ko'plikdagi otlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini takomillashtirish maqsadi ko'zda tutiladi. O'quvchilar suhbat yordamida bosh kelishikdagi otning so'rog'ini va bitta shaxs, narsani bildirishini aytadilar, (nima? —*kitob, kim?* —*o'quvchi*); o'qituvchi agar shu ot ikki va undan ortiq, shaxs yoki narsani bildirsa, qanday so'roqqa javob bo'lishini, qaysi kelishikni bildirishini so'raydi, ular qiyinalmay javob beradilar (nimalar? —*kitoblar, kimlar?* —*o'quvchilar*). Xulosa chiqariladi: ko'plikdagi otlar bosh kelishikda *nimalar?* yoki *kimlar?* so'rog'iga javob bo'ladi. O'quvchilar otlarning kelishiklar bilan turlanishi jadvalidan foydalanib, shu otlarni ko'plikda turlaydilar va ko'plik qo'shimchasi doim kelishik qo'shimchasidan oldin qo'shilishini, so'roqlarini bilib oladilar.

Har bir kelishikni alohida o'rganishning vazifasi kelishikni o'rganish bilan bog'liq holda kelishik

qo'shimchalarining yozilishi haqidagi malakani shakllantirish va o'quvchilarning kelishiklar bilan turlangan otlardan ongli foydalanishlariga erishish hisoblanadi.

Kelishiklarni bilib olish maqsadida so'roqlardan foydalaniladi. Buning uchun o'quvchilar, birinchidan, so'roqni otning yakka o'ziga emas, balki gapda ot ma'no tomondan bog'langan so'zdan shu otga berishni o'rganishlari, ikkinchidan, kelishiklarning so'roqlarini yaxshi bilishlari zarur. Kelishiklarni o'zlashtirishda gapning asosini aniqlagach, gapda o'zaro bog'langan so'zlarni (so'z birikmalarini) belgilash, ot bog'langan so'zni topish, so'roq berib, qaysi kelishik bilan turlanganini, birlik yoki ko'plikda qo'llanganini aniqlash izchilligida ishni uyushtirish maqsadga muvofiq (Masalan, *Alisher Nodirni muzeyga taklif qildi*. Gap *Alisher* haqida aytilgan. (Kim?) *Alisher* — ega (bosh kelishikda, birlik); *Alisher* (nima qildi?) — *taklif qildi* — kesim; *taklif qildi* (kimni?) — *Nodirni* (ot, tushum kelishigida, birlik); *taklif qildi* (nimaga? yoki qayerga?) — *muzeyga* (ot, jo'nalish kelishigida, birlik).

Kelishiklarning xususiyatlarini o'rganishga qulaylik yaratish uchun har bir kelishikni quyidagi umumiy reja asosida o'rganish maqsadga muvofiq:

1. Kelishikning grammatik ma'nosi.
2. So'roqlari.
3. Qo'shimchasi.
4. Gapdagi vazifasi.

Kelishiklarni shu tarzda o'rganish ularni o'zaro taqqoslashni yengillashtiradi va ongli o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Bir kelishik o'zining muhim belgilari (ma'nosi, so'rog'i, qo'shimchasi, sintaktik vazifasi) bilan boshqa kelishiklardan farqlanadi. Muayyan bir kelishikdagi ot dan ongli foydalanish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozish uchun o'quvchilar kelishiklarning muhim belgilarini puxta o'zlashtirishi talab etiladi, shuning uchun ham kelishiklarning muhim belgilarini o'zlashtirib, bir kelishikni ikkinchidan farqlash ko'nikmasini shakllantirishga katta o'rin beriladi.

Bosh kelishikning xususiyatlarini o'rganish bilan otning kelishik qo'shimchasi yo'q holati bosh kelishik ekani, bosh kelishikdagi ot boshqa so'zni o'ziga tobe qilishi, *kim?*, *kimlar?*, *nima?*, *nimalar?* so'roqlariga javob bo'lishi, gapda ega vazifasida kelishi haqida o'quvchilarda ko'nikma hosil qilinadi; lug'atlarda otlar bosh kelishik shaklida berilishi va bosh shakl hisoblanishi, ba'zan egalik qo'shimchasi olib qo'llanishi bilan tanishtiriladi.

O'quvchilar qaratqich va tushum kelishigini farqlashda qiyinaladilar, bir qo'shimcha o'rniga ikkinchisini ishlatadilar. Bu kelishiklarning xususiyatlarini o'rganishda bunday qiyinchilikning oldini olish va o'quvchilarda kelishiklardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini hosil qilish maqsadi ko'zda tutiladi. Bu maqsadga erishish uchun bu ikki kelishikning ma'nosi, so'roqlari, qo'shimchasi va gapdagi vazifasi taqqoslanadi va suhbat asosida xulosa chiqariladi.

Qaratqich kelishigida turlangan ot: 1) qarashlilik ma'nosini bildirib, gapda boshqa otga bog'lanadi, u bog'langan ot egalik qo'shimchasi bilan qo'llanadi (*o'quvchining daftari, gulning bargi* kabi); 2) *kim(lar)ning?*, *nima(lar)ning?*, ba'zan *qayerning?* so'roqlariga javob bo'ladi; 3) *-ning* qo'shimchasi bilan qo'llanadi; 4) gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi.

Tushum kelishigida turlangan ot: 1) harakatni o'ziga olgan shaxs, narsa ma'nosini bildiradi, gapda doim fe'lga

bog‘lanadi (*vazifani bajardim, kitobni o‘qidi* kabi); 2) *kim(lar)ni?*, *nima(lar)ni?*ba‘zan *qayemi?* so‘roqlariga javob bo‘ladi; 3) *-ni* qo‘qchimsi bilan qo‘llanadi; 4) gapda ikkinchi darajali bo‘lak vazifasini bajaradi.

O‘quvchilarning bu ikki kelishik qo‘shimchasidan nutqda to‘g‘ri foydalanish va ulami to‘g‘ri yozish haqidagi bilimni takomillashtirish uchun gapda o‘tning qaysi so‘z bilan bog‘langanini aniqlash, so‘roqlar o‘rniga gapning mazmuniga mos so‘zni kelishik bilan turlab qo‘yish, tushirib qoldirilgan kelishik qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib ko‘chirish, tanlab ko‘chirish mashqlaridan, saylanma va eslatish diktantlaridan ko‘proq foydalaniladi.

O‘quvchilarni qaratqich va tushum kelishigida o‘tning belgisiz qo‘llanishi bilan tanishtirish tavsiya etiladi.

O‘quvchilar jo‘nalish kelishigining xususiyatlari bilan tanishtirilgach, jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasining yozilishi tushuntiriladi: a) oxiri jarangsiz undosh tovush bilan tugagan so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi *-ga* qo‘shilganda talaffuzda *-ka* eshitisli, ammo aslida yozilishi *sinfga, ishga, Shavkatga* kabi so‘zlarni tovush-harf tomonidan tahlil qilish bilan tushuntiriladi; b) o‘quvchilar „*Mehnat yetkazar har tilakka*“ kabi gapni o‘qib, *tilak* so‘zining o‘zgarishini kuzatadilar; gapdagi *tilakka* bog‘langan so‘zni topadilar va shu so‘zdan otga so‘roq beradilar (*yetskazar* (nimaga?) *tilakka*); bu jo‘nalish kelishigining so‘rog‘i ekanini aytadilar; *tilakka* so‘zi so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qilinadi va *tilak* — o‘zak, *-ka* qo‘shimcha ekani aniqlanadi; so‘ng u tovush-harf jihatidan tahlil qilinib, o‘zakning oxiri *-k* undoshi bilan tugagani, qo‘shimcha ham κ undoshi bilan boshlanishi aniqlanadi. Suhbat usuli bilan xulosa chiqariladi: jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi oxiri κ undoshi bilan tugagan otlarga *-ka* shaklida qo‘shiladi. „*Baliq qarmoqqa ilindi*“ gapidagi *qarmoqqa* so‘zi ustida

ham yuqoridagi kabi ishlanadi. Xulosani o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilarning o‘zlari chiqaradilar: oxiri *q* undoshi bilan tugagan otlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi *-qa* shaklida qo‘shiladi.

O‘quvchilar o‘rin-payt kelishigining xususiyatlari bilan tanishtirilgach, *-da* kelishik qo‘shimchasi *-ta* bo‘lib eshitisli ham, *-da* shaklida yozilishi tushuntiriladi. Ba‘zi o‘quvchilar o‘rin-payt kelishigi o‘rniga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini ishlatib, xatoga yo‘l qo‘yadilar. Bunday xatoning oldini olish uchun o‘quvchilar bilan fe‘ldan jo‘nalish va o‘rin-payt kelishigida qo‘llangan otga so‘roq berib, so‘z birikmasini topishni ko‘proq mashq qilish va kelishiklarning so‘rog‘i va ma‘nosiga qarab farqlashga o‘rgatiladi. Masalan, *bordi* (qayerga?) — maktabga,

bo‘ldi (qayerda?) — maktabda; *oldim* (kimga?) — ukamga, *ko‘rdim* (kimda?) — ukamda.

O‘quvchilar chiqish kelishigining xususiyatlari bilan ham reja asosida tanishtirilib, ularga kelishik qo‘shimchasining yozilishi tushuntiriladi.

Xulosa va tavsiyalar. Shunday qilib, tayanch sinflarda ot yaxlit holda o‘rganiladi va uni o‘rganish o‘quvchilar shu so‘z turkumining belgilarini, vazifasini o‘zlashtirishiga, shuningdek, ularda kelishik qo‘shimchalarini to‘g‘ri yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratiladi, shuning uchun maktabda morfologiyani o‘qitishning ham ilmiy, ham amaliy zaruriyati bor. Kelishiklar haqidagi malakani shakllantirish ustida ishlashning samaraliligini ta‘minlaydigan shartlar, birinchidan, maqsadga muvofiq mashq tanlash, mashq materialini asta murakkablashtirib borish bilan o‘quvchilarning mustaqilligini oshirish, ikkinchidan, imloni grammatik bilimni takomillashtirib borish va o‘quvchilarning nutqini o‘stirish bilan bog‘lab o‘rgatishdir.

Adabiyotlar

1. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilari uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006, 86-b.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: «Universitet», 2006.
3. Xolmonova Z., Yusupova T. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: «Navoiy universiteti» nashriyot-matbaa uyi, 2019, 205-b.

REZYUME. Ushbu maqolada so‘z turkumlarini o‘rganish metodikasining ahamiyati va ushbu sohani qay tarzda o‘qitish haqida ma‘lumot berilgan. Bundan tashqari so‘z turkumlarini o‘qitish metodikasi bo‘yicha amaliy misollar va mashqlarni interfaol usullardan foydalangan holda taqdim etish borasida so‘z boradi.

РЕЗЮМЕ. В статье представлена информация о важности методологии изучения словарного запаса и о том, как преподавать эту область. Кроме того, будут представлены практические примеры и упражнения по методике преподавания лексики интерактивными методами.

SUMMARY. This article provides information on the importance of vocabulary learning methodology and how to teach this area. In addition, practical examples and exercises on the methodology of teaching vocabulary using interactive methods will be presented.

AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARINING FIZIKA FANIDAN TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA DEBAT METODIDAN FOYDALANISH

B.B.Batirov – tayanch doktorant

Andijon davlat texnika instituti

Tayanch so‘zlar: debatlar, tanqidiy fikrlash, yarim o‘tkazgich materiallari, fizika, ta‘lim jarayoni, argumentatsiya, tahliliy ko‘nikmalar, ta‘lim texnologiyalari, akademik litseylar.

Ключевые слова: дебаты, критическое мышление, полупроводниковые материалы, физика, образовательный процесс, аргументация, аналитические навыки, образовательные технологии, академические лицеи.

Ádebiyatlar analizi hám metodologiya. Tájiriye dawamında pedagogikalıq analiz, anketa ótkeriw, ekspert bahalaw hám pedagogikalıq eksperiment, kognitiv-pragmatikalıq klassifikaciyalaw, statistikalıq analiz, intervyu, nátiyjelerdi matematikalıq-statistikalıq analizlew usıllarınan paydalanıldı. Tájiriye obyektı sıpatında dene tárbiya oqıtıwshıları hám pedagogika baǵdarında oqıp bilim alıwshı talabalar tańlap alındı.

Paydalanılǵan ádebiyatlardı analizlew nátiyjeleri, dene tárbiya hám pedagogika tarawındaǵı zamanagóy tájiriyeler akmeologiyalıq jantasıwdıń nátiyjeliligin tastıyıqlaydı. Mısalı, Q.Abdurahmonov [1] miynetinde pedagogikalıq sheberlik hám innovaciyalardıń kásiplik rawajlanıwındaǵı áhmiyeti kórsetip ótilgen. Sonday-aq, Sh.Nasriddinov [2] tárepinen dene tárbiya hám sport pedagogikasına tiyisli tájiriyeler oqıtıwshılardıń kásiplik kompetenciyasın asırıwda hár qıylı innovaciyalıq metodlardan paydalanıw zárúrligin atap ótken.

Bunnan tisqari, T.Pashkova [4] óz miynetinde pedagoglardıń kásiplik rawajlanıwında psixologiyalıq hám pedagogikalıq faktorlardıń roli analizlegen. R.Nazarov [3] bolsa, akmeologiyanıń tiykarǵı principlerin hám olardıń pedagogika tarawında engiziliwi hám qollanılwı haqqında keńnen bayan etken.

Usı analiz nátiyjeleri ótkerilgen tájiriyebeniń teoriyalıq tiykarı sıpatında qabil etilip, dene tárbiyası oqıtıwshılardıń akmeologiyalıq jaqtan jantasıw tiykarında tayarlawda keńnen paydalanıladı.

Talıqlaw. Dúnya júzi boylap bilimlendiriw tarawlarında dene tárbiyası oqıtıwshısınıń kásiplik hám individual rawajlanıwına erisiwine qaratılǵan akmeologiyalıq jantasıw ámelıyatqa keń túrde engizilmekte. AQShtıń Michigan universiteti “K-12 Dene tárbiya standartları”, Singapur Milliy tálim institutınıń “Kásiplik rawajlanıw ushın birgeliktegi video talıqlaw hám analizleniwshi ortalıq” veb-platforması, Qubla Koreya Milliy izertleniw asociaciyasınıń “Kásiplik rawajlanıw dástúrińiń orta arnawlı dene tárbiya oqıtıwshılarınıń turmıs kónlikpelerine úyretiw ámelıyatqa tási” jobası, Ullı Britaniya Birmingem universiteti “Dene tárbiya oqıtıwshılarınıń jaslardıń dóretiwshilik rawajlanıwına baǵdarlanǵan dene tárbiyası hám mektep sportına kómelesiw ushın úzliksiz kásiplik rawajlanıwı” jobası, Finlyandiyanıń Shıǵıs Finlyandiya universiteti “Finlyandiya mekteplerinde fizikalıq iskerlikti oqıtıwǵa integraciyalasıw” boyınsha teoriyalıq bilimler hám oqıtıwshılardıń tájiriyelerin arttırıw dástúrlerinde interaktiv tálim, reflektiv-ámeliy hám innovaciyalıq oqıtıw usılları arqalı óz kásibiniń (“acme” – shoqqı, “logos” – ilim, pán) eń joqarı shoqqısına erisiw, dene tárbiyası arqalı háreket kónlikpeleri, kognitivlik ózlestiriw hám emociyalıq intellekti birlestiriwge baǵdarlanǵan ámeliy proektlerdi qollanıwǵa qaratılǵan sistemalı túrdegi jumıslar ámelge asırılmaqta [4].

Akmeologiyanıń áhmiyetli wazıypası insan rawajlanıwınıń túrli jas dáwirlerinde óz imkaniyatların tolıq kórsete alıw qábiletin anıqlaw hám ilimiy jaqtan tiykarlawdan ibarat.

Atap aytqanda, pedagogikalıq akmeologiya, áskeriy akmeologiya, basqarıw akmeologiyası, medicina akmeologiyası, iskerlik akmeologiyası, ekonomikalıq

akmeologiya, huqıq akmeologiyası sıyaqlı bir qatar baǵdarlar jedel rawajlandı hám rawajlanbaqta.

Akmeologiya – shaxstıń kásiplik hám sociallıq rawajlanıwın úyreniwshi pán sıpatında oqıtıwshılardı tayarlawda áhmiyetli orın iyeleydi.

Akmeologiyalıq jantasıw pedagoglardıń jumıs iskerliginde nátiyjelerge erisiw hám rawajlanıw jolların belgilep beriwge járdem beredi. Akmeologiyalıq jantasıw pedagoglardıń potencialın rawajlandırıw, dóretiwshilik qábiletlerin asırıw hám olardıń jeke hám kásiplik bilimlerin hám tájiriyelerin rawajlandırıwǵa unamalı tásir jasadı [1, 2].

Zamonagóy jámiyette tálim-tárbiya procesine qoyılıp atırǵan jańa talaplar, pedagog kadrlardan joqarı kásiplik kompetentlik hám innovaciyalıq bilimlerde talap etedi. Sonlıqtan, dene tárbiyası oqıtıwshıları tálim-tárbiya procesin joybarlastırıw barısında akmeologiyalıq principlerge ámel etiwleri tiyis. Bunda olardıń pedagogikalıq sheberligi, innovaciyalıq texnologiyalardan paydalanıw qábileti hám dóretiwshilik uqıplılıqları áhmiyetli orın iyeleydi.

Nátiyjeler. Izertlew nátiyjelerine kóre, akmeologiyalıq jantasıw tiykarında dene tárbiyası oqıtıwshılardıń tayarlaw tómendegishe ústinliklerge erisiwge iye ekenligi anıqlandı:

1. **Kásiplik kompetentlikti rawajlandırıw** – oqıtıwshılardıń jeke hám kásiplik rawajlanıwın támiyinlewshi metodlar islep shıǵıladı.

2. **Kreativlik qábiletlerdi qalıplestiriw** – innovaciyalıq hám dóretiwshilik qábiletleri arqalı pedagoglardıń óz betinshe pikirlew qábiletleri jaqsılanadı.

3. **Innovaciyalıq pedagogikalıq texnologiyalardan paydalanıw** – tálim-tárbiya procesinde xabar texnologiyaları hám zamanagóy metodikalıq qollanıladı.

4. **Motivaciyalawshı faktorlardı kúsheytiw** – oqıtıwshılardıń óz ústinde islewleri hám kásiplik kámal tabıwlarına baǵdarlanǵan is-rejeler islep shıǵıladı.

Dene tárbiyası oqıtıwshılarınıń kásiplik tayarlıqları kollektivlik jumıs usılları hám ámeliy shınıǵıwlar arqalı jáne rawajlanadı hám bekkemlenedi. Sonday-aq, olardıń psixologiyalıq turaqlılıǵın asırıw boyınsha arnawlı treningler ótkerildi. Usılar tiykarında, kásiplik kompetentlik hám dóretiwshilik qábiletlerdi rawajlandırıw boyınsha kriteriyalar islep shıǵıldı.

Juwmaq. Shaxstıń ózin-ózi dóretiwshilik jaqtan kórsetiwın ańlatıwshı akmeologiyalıq túsinik áyyemgi filosof hám oyshılar Platon, Leonardo da Vinchi, Al Xorezmiy, Ibn Sina, Jalaliddin Rumiy, Bahawatdin Naqshband, V.S.Solovev, N.O.Losskoy, N.I.Pirogov, V.M.Bexterev iskerligi menen de tıǵız baylanıslı.

Tájiriye nátiyjeleri boyınsha akmeologiyalıq jantasıw dene tárbiya oqıtıwshılarınıń kásiplik tájiriyelerin asırıwda nátiyjeli metodlardıń biri bolıp esaplanadı. Bunnan tisqari, kreativlik qábiletlerdi qalıplestiriw hám bahalaw kriteriyaları tiykarında oqıtıwshılardıń rawajlanıw dárejesi hám kásiplik kompetentligi anıqlandı. Usı jantasıw oqıtıwshılardıń kásiplik rawajlanıwına kómelesip, tálim-tárbiya procesin nátiyjeli shólkemlestiriw imkaniyatın jaratıp beredi. Ol bilimlendiriw procesin nátiyjeli joybarlastırıw, motivaciyanı rawajlandırıw hám zamanagóy bilimlendiriw talaplarına beyimlestiriwdi támiyinleydi. Dene mádeniyatı qánigelerin tayarlaw sistemasına akmeologiyalıq principlerdi engiziw bilimlendiriwdiń sapasın arttırıwdıń tiykarǵı faktori bolıwı múmkin.

Ádebiyatlar

1. Абдурахмонов Қ. Педагогик маҳорат ва инновациялар. – Тошкент, 2020.
2. Насриддинов Ш. Жисмоний тарбия ва спорт педагогикаси. – Нукус, 2019.
3. Акмеология асослари. Таҳририят: Назаров Р. – Тошкент, 2021.
4. Pashkova T. Psychological and pedagogical aspects of teacher professional development. – Moscow, 2018.

REZYUME. Maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarini akmeologik yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash xususiyatlari tahlil qilinadi. Akmeologiya fanining asosiy tamoyillari va ularning jismoniy tarbiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini shakllantirishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar va individual yondashuvlar orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil etish usullari tahlil etiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются особенности проектирования образовательного процесса учителей физического воспитания на основе акмеологического подхода. Рассматриваются основные принципы акмеологии и их значение в формировании профессиональной компетентности учителей физического воспитания. Также анализируются методы эффективной организации образовательного процесса через инновационные технологии и индивидуальный подход.

SUMMARY. This article analyzes the features of designing the educational process of physical education teachers based on the acmeological approach. The main principles are considered of acmeology and their significance in the formation of professional competence of physical education teachers. Methods of effectively organizing are also analyzed the educational process through innovative technologies and an individual approach.

PSIXOLOGIYA ILIMLERI

БОЛАЛАРДА ХУЛҚ-АТВОР БУЗИЛИШЛАРИНИ КОРРЕКЦИЯ ҚИЛИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРНИНГ САМАРАДОРЛИГИ

К.Я.Бахронова – доцент

Бухоро инновацион таълим ва тиббиёт университети

Таянч сўзлар: когнитив қайта қуриш, когнитив реструктуризация, когнитив-бихевиорал терапия, хулқ-атвор бузилишлари, психологик коррекция, стресс бошқаруви, психотерапия, когнитив ёндашув.

Ключевые слова: когнитивная реструктуризация, когнитивно-поведенческая терапия, поведенческие нарушения, психологическая коррекция, управление стрессом, психотерапия, когнитивный подход.

Key words: cognitive restructuring, cognitive-behavioral therapy, behavioral disorders, psychological correction, stress management, psychotherapy, cognitive approach.

Кириш. Ҳозирги замон жамиятида болалар ва ўсмирлар ўртасида хулқ-атвор бузилишлари кенг тарқалган муаммолардан бири бўлиб, бу нафақат педа-гогик, балки ижтимоий ва психологик нуқтаи назардан ҳам долзарб ҳисобланади. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотларига кўра, дунёнинг ҳар тўртинчи боласи ёки ўсири турли даражадаги хулқ-атвор бузилишларидан азият чекади.

Ушбу бузилишлар нафақат боланинг шахсий ривожланишига, балки унинг оиласи ва жамиятдаги муносабатларига ҳам салбий таъсир кўрсатади. Шунинг учун, самарали коррекция технологияларини ишлаб чиқиш ва уларни амалиётга татбиқ этиш муҳимдир. Ушбу муаммони ҳал қилиш, нафақат ижтимоий соҳада, балки психологик ва педагогик тадқиқотларда ҳам долзарб вазифа бўлиб қолмоқда.

Хулқ-атвор бузилишларининг классификацияси ва сабабларига тўхталадиган бўлсак: Хулқ-атвор бузилишлари турли ёшдаги болалар ва ўсмирларда намоён бўлади. Психология ва педагогикада бу бузилишлар турли типларга ажратилади:

1. Агрессив хулқ-атвор – бошқаларга зиён етказишга мойиллик.

2. Гиперактивлик ва диққатнинг тақсимланиши – беқарор ҳаракатлар ва диққат топишда қийинчиликлар.

Ушбу бузилишлар кўпинча генетик, экологик ёки ижтимоий омилларга боғлиқ бўлади. Масалан, оилалардаги психологик иқлим, ўқув муассасаларидаги муносабатлар ёки фарзанд тарбиясида йўл қўйилган хатолар асосий сабаблар сифатида келтирилади.

Хулқ-атвор бузилишлари турли йўналишларда намоён бўлиши мумкин. Улар одатда қуйидаги турларга ажратилади:

1. Ижтимоий-номақбул хулқ-атвор: Жамият қоидаларига зид бўлган хатти-ҳаракатлар (масалан, ўғрилиқ, ўқишга бефарқлик).

2. Агрессия ва таъсирчанлик: Жисмоний ёки вербал агрессия, бошқаларга зарар етказишга мойиллик.

3. Гиперактивлик ва диққатни топлаш муаммолари: Бундай болаларда беқарорлик, вазифаларни ўз вақтида бажаришда қийинчиликлар кузатилади.

4. Эмоционал бузилишлар: Кўрқув, депрессия, ўзини ёлғиз ҳис қилиш, ижтимоий ўйинларда қатнашишдан қочиш.

5. Субординация бузилишлари: Ўқитувчилар ёки катталарга бўйсунмаслик, қоидаларни қасддан бузиш ҳолатлари [2].

Хулқ-атвор бузилишларининг келиб чиқиш сабаблари кўпинча қуйидагилар билан боғлиқ:

Ижтимоий факторлар: оиладаги муаммоли муносабатлар, ижтимоий қийинчиликлар, қашшоқлик.

Биологик омиллар: мия ривожланиши билан боғлиқ патологиялар, генетик ёки неврологик бузилишлар.

Психологик омиллар инсоннинг ҳис-туйғулари, фикрлаш жараёнлари ва руҳий ҳолатига таъсир қиладиган муҳим жиҳатлардан бири ҳисобланади. Бундай омиллар шахснинг қарор қабул қилиш қобилиятига, муомала маданиятига ва атрофдагилар билан муносабатларига таъсир кўрсатиши мумкин.

Психологик омиллар: паст даражадаги эмоционал интеллект, стресс ёки руҳий босим.

Эмоционал интеллект – бу инсоннинг ўз ҳис-туйғуларини англаш, бошқариш ва бошқаларнинг ҳис-туйғуларини тушуниш қобилиятидир. Эмоционал интеллект паст даражада бўлганда, инсон:

Ўз ҳис-туйғуларини бошқара олмаслиги мумкин. Масалан, у осонгина ғазабланиб кетиши ёки қайғуни енгишда қийналиши мумкин. Атрофдагиларнинг ҳис-туйғуларини тушунмаслиги сабабли муомала жараёнида муаммолар юзага келиши мумкин. Иш жойида ёки шахсий ҳаётда стресс ва тушқунлик ҳолатига тушиши мумкин. Низоларни ҳал қилишда қийинчиликларга дуч келиши, ёлғизлик ҳиссини кечириши мумкин.

Стресс – инсоннинг турли муаммоларга ва қийин вазиятларга жавоб реакциясидир. У қисқа муддатли ёки узок муддатли бўлиши мумкин. Жуда катта стресс инсоннинг жисмоний ва руҳий саломатлигига жиддий таъсир кўрсатади [3].

Стрессга олиб келадиган омиллар қуйидагилар бўлиши мумкин:

Катта юкламалар, масалан, ишдаги ёки ўқишдаги талаблар; Шахсий муаммолар, оилавий низолар ёки молиявий қийинчиликлар; Ўзини намоён қила олмаслик, бошқалар томонидан танқид қилиниши; Узлуксиз руҳий босим ва хавотир.

Стресс ҳолатида одамлар турлича ҳаракат қилади. Кимдир уни енгиш учун спорт билан шуғулланса, бошқалар ёлғизликка чек қўйиш учун ижтимоий ҳаётдан узилади. Агар стресс тўғри бошқарилмаса, у депрессия, кўрқув, ишга бўлган қизиқишнинг йўқолиши ва ҳатто жисмоний касалликларга олиб келиши мумкин.

Рухий босим инсоннинг руҳий саломатлигига таъсир этувчи ташқи ва ички факторлардан келиб чиқади. Бундай босим жисмоний ва руҳий чарчашга, асабийликка, ишга бўлган қизиқишнинг йўқолишига ва ҳатто уйқусизликка сабаб бўлиши мумкин [4].

Рухий босимни юзага келтирувчи омиллар қуйидагилар:

Оилавий ва ишдаги юкламалар; Жамиятдаги талабларга жавоб беришга уриниш; Очиқ муносабатларнинг йўқлиги, яъни ҳис-туйғуларни баён қила олмаслик; Катта масъулият ва муваффақиятга эришишга бўлган босим.

Коррекция технологиялари:

Хулқ-атвор бузилишларини бартараф этиш ёки энгиллаштириш учун қўлланиладиган технологиялар турли хил ёндашувларни ўз ичига олади:

Хулқ-атвор бузилишларини бартараф этиш ёки энгиллаштириш учун қўлланиладиган энг самарали усуллардан бири когнитив-бихевиорал терапия (КБТ) ҳисобланади. КБТ – бу психологик муаммоларни ҳал этишга йўналтирилган, илмий асосланган ва мантикий ёндашув бўлиб, у инсон тафаккури, ҳис-туйғулари ва хулқ-атвори ўртасидаги ўзаро боғлиқликни тушунишга қаратилган. Бу терапия турли ёш гуруҳларидаги болаларларга мослаштирилиши мумкин ва айниқса, депрессия, хавотирлик бузилишлари, обсессив-компульсив бузилиш (ОКБ), стресс ва травмадан кейинги стресс бузилиши (ТКСБ) каби ҳолатларни даволашда кенг қўлланилади [1].

КБТ усуллари орқали болалар ўзларининг салбий фикрлаш механизмларини англашни ва уларни ижобий, рационал фикрлар билан алмаштиришни ўрганадилар. Бу усулда болага ўз хатти-ҳаракати учун жавобгарлик ҳиссини шакллантириш ва унинг оқибатларини тушуниш ўргатилади.

жумладан:

1. Когнитив қайта қуриш (когнитив реструктуризация) – бу усул инсоннинг салбий фикрларини таҳлил қилиш ва уларни ҳаққонийроқ, конструктив фикрлар билан алмаштиришни ўз ичига олади.

2. Экспозицион терапия – айниқса, фобиялар ва хавотирли бузилишларни даволашда қўлланилади. Бунда болалар ўз қўруқларига аста-секин дуч келиб, уларга нисбатан чидамликни оширади.

3. Бихевиорал тажриба (поведенческий эксперимент) – болалар ўзининг тасаввурларини амалда синовдан ўтказиш орқали уларнинг ҳақиқийлигини баҳолайди.

4. Релаксация ва диққатни йўналтириш техникалари – стрессни камайтириш ва эмоционал ҳолатни барқарорлаштириш учун махсус усуллардан фойдаланилади [1].

КБТни самарали татбиқ этиш учун доимий равишда мутахассис билан ишлаш ҳамда уйга топшириқлар орқали олинган билимларни амалиётда қўллаш муҳим аҳамиятга эга. Бундай ёндашув болаларларга ўз муаммоларини мустақил равишда енгиш ва ҳаёт сифатини яхшилаш имконини беради.

Қуйида когнитив қайта қуриш (когнитив реструктуризация) усулининг натижалари фоизлар билан тўлдирилган 1-жадвал келтирилган:

1-жадвал

Натижа	Таърифи	Ўртача самардорлик (%)
Салбий фикрлаш даражасининг пасайиши	Болаларлар ўз фикрларини объектив таҳлил қилишни ўрганадилар ва салбий, иррационал фикрларни ижобий, мантикий фикрлар билан алмаштирадилар.	70-80%
Ҳиссий барқарорлигини ошиши	Стресс, хавотир ва депрессия даражаси пасайиб, эмоционал ҳолат барқарорлашади.	65-75%

Қабул қилинган қарорларнинг яхшиланиши	Фикрлаш жараёни танқидий баҳола-ниб, тезкор ва асос-сиз қарорлар ўрнига мулоҳазакор қарор-лар қабул қилинади.	60-70%
Ижтимоий муносабатларнинг яхшиланиши	Одамлар атрофи-дагилар билан самарали мулоқот қилиш ва муноса-батларини яхшилаш имкониятига эга бўладилар.	55-65%
Ўз-ўзини назорат қилиш қобилиятининг кучайиши	Оғир психологик босимда ҳам ҳис-туйғуларни назорат қилиш ва хулқ-атвори бошқариш қобилияти ошади.	75-85%
Даволаниш самарадорлигининг ошиши	КБТ ва бошқа пси-хологик усуллар билан биргаликда қўлланилганда, пси-хик ҳолатни яхши-лашга ёрдам беради.	80-90%

Ушбу фоизлар турли тадқиқотлар ва клиник кузатувларга асосланиб, ўртача натижалар сифатида келтирилган.

Қуйида когнитив қайта қуриш (когнитив реструктуризация) усули қўлланилишидан олдинги ва кейин-гисига нисбатан фоизлар билан солиштирилган 2-жадвал келтирилган:

2-жадвал

Натижа	Коррек-цияга (%)	Коррек-циядан кейин (%)	Ўзгариш (%)
Салбий фикрлаш даражаси	80-90%	20-30%	-60%
Ҳиссий барқарорлик	40-50%	75-85%	+35%
Қабул қилинган қарорларнинг яхшилиги	45-55%	70-80%	+25%
Ижтимоий муносабатлар сифати	50-60%	80-90%	+30%
Ўз-ўзини назорат қилиш қобилияти	30-40%	75-85%	+45%
Умумий психик ҳолат яхшиланиши	35-45%	80-90%	+45%

Салбий фикрлаш даражаси пасайиши мусбат натижа деб ҳисобланади, шунинг учун у камайиши билан баҳоланади.

Бошқа кўрсаткичлар ошиши билан баҳоланади, чунки ижобий ўзгаришлар уларнинг юқори бўлиши билан намоён бўлади.

Когнитив қайта қуриш жараёни ҳар бир шахсга индивидуал таъсир қилиши мумкин, шунинг учун фоизлар тахминий ўртача натижалар асосида келтирилган.

Хулоса. Когнитив қайта қуриш (когнитив реструктуризация) усули хулқ-атвор бузилишларини енгиш ва психик саломатликни яхшилашда самарали ва илмий асосланган методикалардан биридир. Бу усул болаларларга ўзларининг салбий ва иррационал фикрларини танқидий баҳолаш, уларни мантикий ва

ижобий фикрлар билан алмаштиришга ёрдам беради. Шундай қилиб, хулқ-атвор, эмоционал ҳолат ва ижтимоий муносабатлар яхшиланади, стресс, хавотир ва депрессия даражалари камаюди. Даволаниш самарадорлиги юқори бўлиб, болаларларга ўз муаммоларини мустақил равишда ҳал қилишда муҳим кўмак беради. Ушбу психологик усулнинг аниқ натижалари ҳар бир болаларнинг шахсий хусусиятларига қараб ўзгариши мумкин, лекин умумий ҳолда КБТнинг таъсири жуда ижобий ва давомли бўлади.

Куйидагича тавсияларни келтириш мумкин:

1. Когнитив қайта қуришнинг давомийлигини таъминлаш. КБТни самарали татбиқ этиш учун давомий психологик сессиялар муҳим аҳамиятга эга. Болаларлар билан мунтазам равишда ишлаш ва уларга уйга топшириқлар бериш, олинган билимларни ҳаётга татбиқ қилишга ёрдам беради.

2. Оила ва атрофдаги инсонларнинг қўллаши.

Когнитив қайта қуришнинг самарасини ошириш учун болаларнинг оиласи ва ижтимоий муҳити ҳам муҳим рол ўйнайди. Болаларга психологик қўллаш ва унинг ўзгариш жараёнида ёрдам бериш ҳар жиҳатдан фойдали бўлади.

3. Шахсий мониторинг ва ўз-ўзини назорат қилиш. Болаларларга психологик ўзгаришларини

мунтазам кузатиб бориш ва ўз хулқ-атворини самарали назорат қилишни ўрганишни тавсия қиламиз. Бу уларга стресс ёки мушкул вазиятларда ўз хис-туйғуларини бошқаришда ёрдам беради.

4. Психологлар учун касбий ривожланиш. КБТнинг самарали бўлиши психологнинг касбий малакаларига боғлиқ. Шунинг учун психологларга доимий равишда тренинглар ва касбий ривожланиш имкониятларини тақдим этиш зарур.

5. Ранжиган ҳолатлар ва махсус ҳолатлар учун индивидуаллаштирилган ёндашув. КБТнинг баъзи усуллари ҳар бир болаларнинг муаммосига мослаштирилиши керак. Масалан, жуда оғир стресс ёки травмавий ҳолатларда махсус техникалар ва йўналишлар қўлланилиши керак.

Бу тавсиялар КБТнинг самарадорлигини ошириш ва болаларларнинг муаммоларини бартараф этишда уларнинг шахсий хулқ-атвор ва хис-туйғуларини яхшилашга ёрдам беради.

Олинган натижалар когнитив-бихевиорал ёндашувнинг турли психик ҳолатларда самарали эканлигини тасдиқлайди ва унинг хулқ-атвор бузилишларини енгиллаштиришдаги аҳамиятини кўрсатади. Ушбу иш психологлар ва таълим соҳасидаги мутахассислар учун амалий қўлланма сифатида фойдаланилиши мумкин.

Адабиётлар

1. Юсупова Г.Р. Нарратив тузилмаларнинг когнитив шаклланиши ва прагма-когнитив имкониятлари. – Тошкент: «Фан», 2021.

2. Синжапова Р.Р. Когнитив принцип концептуал интеграциянинг лингвистик тадқиқотларда қўлланилиши. – Тошкент: «Университет», 2020.

3. Юлдашев А.Ф. Қўшма сўзларнинг лингвокогнитив аспекти. – Тошкент: «Университет», 2017.

4. Hofmann S.G., Asnaani A., Vonk I.J., Sawyer A.T., & Fang A. The Efficacy of Cognitive Behavioral Therapy: A Review of Meta-analyses. *Cognitive Therapy and Research*, 36(5), 2012.

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақолада хулқ-атвор бузилишларини коррекция қилиш технологиялари ва уларнинг самарадорлиги таҳлил қилинади. Хусусан, когнитив-бихевиорал терапия (КБТ)нинг муҳим усулларида бири бўлган когнитив қайта қуриш (реструктуризация) методи ўрганилади. Ушбу метод иррационал фикрларни аниқлаш ва уларни конструктив қарашларга айлантириш орқали шахсий ва ижтимоий мослашувни яхшилашга йўналтирилган. Мақолада хулқ-атвор бузилишлари (депрессия, хавотир, агрессивлик, ижтимоий фобия ва стрессга оид муаммолар) га нисбатан коррекцион ёндашувлар, хусусан, когнитив қайта қуриш усулининг амалий қўлланилиши ва унинг натижалари таҳлил қилинган. Илмий тадқиқотлар ва тажриба асосида коррекция технологияларининг самарадорлиги фоиз кўрсаткичларида берилган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются технологии коррекции поведенческих нарушений и их эффективность. В частности, изучается метод когнитивной реструктуризации, который является одним из ключевых инструментов когнитивно-поведенческой терапии (КПТ). Данный метод направлен на выявление иррациональных мыслей и их преобразование в конструктивные установки, что способствует улучшению личностной и социальной адаптации. В статье рассматриваются коррекционные подходы к поведенческим нарушениям, таким как депрессия, тревожность, агрессивность, социальная фобия и стрессовые расстройства, а также анализируется практическое применение метода когнитивной реструктуризации и его результаты. Эффективность технологий коррекции представлена в процентных показателях на основе научных исследований и экспериментальных данных.

SUMMARY. This article analyzes behavioral disorder correction technologies and their effectiveness. In particular, it examines the cognitive restructuring method, which is one of the key tools of cognitive-behavioral therapy (CBT). This method is aimed at identifying irrational thoughts and transforming them into constructive beliefs, thereby improving personal and social adaptation. The article explores correctional approaches to behavioral disorders such as depression, anxiety, aggression, social phobia, and stress-related issues, as well as analyzes the practical application and outcomes of the cognitive restructuring method. The effectiveness of correction technologies is presented in percentage indicators based on scientific research and experimental data.

QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

A.J.Kossheterova – *stajyor o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: qizlar tarbiyasi, oilaviy hayotga tayyorlash, ta'lim tizimi, psixologik tayyorgarlik, oila, maktab, mahalla, hamkorlik, ijtimoiy tarbiya, gender tengligi.

Ключевые слова: образование девочек, подготовка к семейной жизни, система образования, психологическая подготовка, семья, школа, соседство, сотрудничество, социальное воспитание, гендерное равенство.

Key words: girls' education, preparation for family life, education system, psychological preparation, family, school, neighborhood, cooperation, social education, gender equality.

Oila – har qanday jamiyatning eng muhim va ajralmas bo'g'inidir. Tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan hech bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, o'z rivojlanish strategiyasini belgilashda oilaga oid qadriyatlar va u bilan bog'liq masalalarni inobatga olmagan bo'lsa. Zero, jamiyat istiqbolini oilaning manfaatlaridan ajratib tasavvur etib bo'lmaydi. Oila inson hayotining boshlanish nuqtasi, shaxs kamolotining ilk manbai va barcha ezgu ishlarining poydevoridir. Har bir inson o'z baxt va farovonligini, eng avvalo, oila muhitidagi tinchlik, mehr-oqibat va totuvlik bilan bog'laydi. O'z uyida, yaqinlari davrasida huzur-halovat topgan kishi chin ma'noda o'zini baxtli va to'laqonli hayot kechirayotgan inson sifatida his qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida qayd etilgan nikohlar soni 31,8 ming birlikni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 90,6 foizni qayd etgan. Ajrashishlar soni 8,0 ming birlikni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,7 foizni tashkil etdi. Hududlar bo'yicha nikohdan ajrashishlarning eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahri, Farg'ona va Andijon viloyatlarida qayd etilgan [5]. Statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki nikohlar sonining oshishi bilan bir qatorda ajrimlaning soni ham oz deb aytolmaymiz.

Nikoh va oilaviy munosabatlarning barqarorligi yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligiga bog'liqdir. Bu yerda turmush qurishga tayyorlik, oilaviy hayot tarziga ijiboy hissiy munosabatni belgilovchi shaxsning ijtimoiy-psixologik munosabatlari tizimi sifatida tushuniladi. Zamonaviy oilaning eng muhim ijtimoiy vazifasi kelajak oila boshlig'ini tarbiyalash, ya'ni yosh avlodni nikoh va oilaviy munosabatlarga tayyorlashdir.

Hozirgi kunda salbiy jarayonlarning kuchayishi: oilaviy turmush tarzining tanazzulga uchrashi, nikoh va oilaviy munosabatlarning muqobil shakllarining keng tarqalishi, oila obro'sining pasayishi, farzand ko'rish zarurati, ajralishlar va oila ichidagi zo'ravonliklarning ko'payishi, bu vazifani murakkablashtirmoqda.

Yoshlarning jamiyatdagi mavqei, rivojlanish tendentsiyalari va istiqbollari, avvalambor, uning kelajagini belgilab berishi bilan jamiyat uchun katta qiziqish va amaliy ahamiyatga ega. Bu yerda, yoshlarning nikoh va oilaga, jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida, munosabati muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili. Qadimda ota-bobolarimizning oila va nikohga bo'lgan munosabatlarni o'rganishda xalqimizning asosiy e'tiqod shakli bo'lib kelgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestoga murojat qilamiz. Sababi Markaziy Osiyo tarixi, o'tmishi, madaniyati, pedagogikasini o'rganishda eng qadimiy manba Avesto hisoblanadi. "Avesto"da oila mustahkamligini saqlash, nikoh tartiblari, er-xotin majburiyati, nikoh tuzish va bekor qilishning qonun-qoidalarini ko'rsatib o'tilgan [1].

Avestoning maxsus boblarida Axura Mazda va Zardushtning yigit qizlarga nikoh masalasidagi murojatlari

keltirilgan. Unda oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq tutish kabi maslahatlar haqida qimmatli mulohazalar mavjud. Qadimgi turkiy xalqlarda nikoh qat'iy qonun-qoidalar asosida tashkil etilgan. Oilaviy masalalarda yoshlar keksa avlod o'g'itlariga quloq solganlar.

Zardo'shtiylik tartib-qoidalariga ko'ra, o'z hayotini oila qurmasdan o'tkazish qattiq qoralangan. Qiz bolalar uchun balog'at yoshi 15 yosh hisoblangan. Balog'at yoshidagi qiz ota-ona yoki jamoa ra'yidan yurmay turmushga chiqishni, zurriyot qoldirishni istamasdan umrguzaronlik qilib yursa qopga solinib 25 darra kaltaklangan.

Erkaklar esa, o'n yetti yoshda uylanish huquqiga ega bo'lgan. Agar erkak kishi zurriyod qoldirish qobiliyatiga ega bo'lsa-yu, ammo uylanmasa, unga tamg'a bosilib, badnom qilish maqsadida beliga zanjir bog'lab yurishga majbur etilgan va uyaltirilgan. Islomda oila qurish sunnat hisoblangani kabi Zardushtiylikda ham nasl qoldirish, o'z urug'ini va qavmini ko'paytirish rag'batlantirilgan. "Aveto"da qayd etilishicha, erkak kishi, eng avvalo, uylanish uchun moddiy va ma'naviy tomondan to'q va baquvvat bo'lmog'i lozim, buning uchun o'z vaqtida to'yib ovqatlanishi zarur, aks holda erkak kishi o'z xizmati va axloqiy burchlarini bajara olmaydi [1].

Islom dinida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Payg'ambarimiz (alayhissalom): "Ilm talab qilish har bir musulmonga farzdir", deb ta'kidlaganlar (Bayhaqiy rivoyati). Zaruriy ko'nikmalarni egallamay, bilim olmay turib turmushga chiqqan qiz ayol, rafiqqa, ona, beka, jamiyat a'zosi sifatidagi vazifalarini to'kis ado etishga qiynaladi.

Kaykovusning "Qobusnoma", Jaloliddin Davoniyning "Axloqi Jaloliy", Muhammad Sodiq Qashg'ariyning "Odob as-solihin" asarlaridan oilalarning shakllanishi jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan muayyan qoidalar xususida so'z yuritiladi.

Chunonchi, Kaykovus o'z asarida qiz bolalarni tarbiyalash ularni mastura doylar, keyinchalik esa muallimalar qo'liga topshirib ularga oila xo'jaligini yuritish, bolalarni parvarishlash, muomala odobini o'rgatish lozimligi ta'kidlangan [2].

Jaloliddin Davoniy esa onaning farzand tarbiyasidagi o'rnini ko'rsatib o'tar ekan, mazkur jarayonda asosiy qiyinchiliklarni boshdan kechiruvchi shaxs deya ta'riflaydi, shuningdek, bolaga oddiy axloqiy qoidalar mazmunini tushuntirish, yurish-turish, ovqatlanish tartibi va qoidasiga rioya etishni o'rgatishi lozimligini ta'kidlaydi.

O'z oilangizni yaratish har bir inson uchun shaxsiy tanlovdir. Ammo bu tanlov yetarli shaxsiy yetuklikni, buning uchun masuliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatini talab qiladi. Shu sababli, inson oilaviy hayotga, xuddi juda murakkab faoliyat uchun psixologik jihatdan alohida tayyorlanishi kerak. Y.L.Kolo-minskiy shunday deb yozadi: "Haydovchilik guvohnomasini olish uchun odam maxsus tayyorgarlikdan o'tadi va u er va xotin rulda ham, kapitan ko'prigida ham bo'lgan eng murakkab oilaviy kemaga

o'tirganda, u o'z arsenalida faqat ota-onasining uyida yashash tajribasiga ega [3].

Oila va oilaviy munosabatlar, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning mazmunini o'rganish, ularda ilgari surilgan g'oyalar mohiyatini tahlil etish oilada qiz bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning yo'nalishlarini belgilab olish imkonini berdi. Qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik o'rtasidagi ijodiy hamkorlikni qaror toptirish va ushbu hamkorlik asosida faoliyatni tashkil etish so'z yuritilayotgan muammoning ijobiy yechimga ega bo'lishini kafolatlaydi.

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaviy muammolarni o'rganish maqsadida olib borilgan tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilaviy muammolar o'zaro munosabatlardagi kelishmovchilik, o'zini tuta olmaslik, yoshlarda muomala madaniyatini shakllanmaganligi, turmush o'rtog'idan mamnun bo'lmasslik, zerikarli hayot, oilaviy burchlarning taqsimlanishi, janjalkashlik, o'ta manmanlik, xulq-atvordagi nomukamallik, moddiy qiyinchiliklar, jizzakilik kabi oila a'zolariga xos xatti-harakatlar va xarakter xususiyatlaridan kelib chiqar ekan [4].

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda yoshlarni ayniqsa qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida bir qator muammo va kamchiliklar bo'lib ularga quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin:

1. Ta'lim tizimida oilaviy hayotga tayyorlov yetarli emas:

Maktab dasturlarida oilaviy hayot, turmush qurish, psixologik moslashuv, gender tenglik kabi masalalar chuqur o'rgatilmaydi.

“Hayotiy ko'nikmalar” yoki “ma'naviyat” kabi darslarda bu mavzular yuzaki yoritiladi.

2. Oila va jamiyatdagi qarama-qarshi talablar: ba'zi oilalarda qizlar hali voyaga yetmasdan turmushga tayyorlanadi (uy ishlariga, bo'ysunishga, sabrga o'rgatiladi), biroq bu zamonaviy jamiyatda o'zini ifoda etish, tanlov qilish kabi huquqlar bilan to'qnashadi.

An'anaviy rollar bilan zamonaviy talablarning to'qnashuvi – qizlarda ichki ziddiyat, ishonchsizlik va ruhiy bosimga olib keladi.

3. Axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri: qizlar internetda ko'rgan idealizatsiyalangan

Adabiyotlar

1. “Avesto” O'zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarjimon). – T.: 2001.
2. Kaykovus. Qobusnoma/ Kaykovus. Nashrga tayyorlovchilar: Subutoy Dolimov, Ulug'bek Dolimov. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2019.
3. Коломинский Я.Л. Человек: психология. – М.: «Просвещение», 1980.
4. Дубровина И.В. Подготовка молодежи к семейной жизни, или «Забытое» самоопределение [Электронный ресурс]. // «Вестник практической психологии образования», 2015. – Том 12. № 3.
5. <https://moiti.uz/oz/press-center/news/741>

REZYUME. Ushbu maqolada hozirgi davrda qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning dolzarb masalalari yoritilgan. Ta'lim tizimidagi kamchiliklar, an'anaviy va zamonaviy qarashlarning to'qnashuvi, psixologik va emotsional tayyorgarlikning yetarli emasligi kabi muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, bu muammolarning yechimlari sifatida oila, maktab va mahalla hamkorligining ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada nazariy manbalar tahliliga tayanilgan holda amaliy tavsiyalar keltiriladi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются актуальные вопросы подготовки девочек к семейной жизни. Анализируются такие проблемы, как недостатки системы образования, столкновение традиционных и современных взглядов, недостаточная психологическая и эмоциональная подготовка. В нем также обосновывается важность сотрудничества семьи, школы и общества в решении этих проблем. В статье даны практические рекомендации, основанные на анализе теоретических источников.

SUMMARY. This article addresses the current issues of preparing girls for family life. It analyzes problems such as shortcomings in the education system, the clash of traditional and modern views, and insufficient psychological and emotional preparation. It also substantiates the importance of family, school, and neighborhood cooperation as solutions to these problems. The article provides practical recommendations based on an analysis of theoretical sources.

munosabatlar, to'ylar, turmush tarziga asoslangan noto'g'ri tasavvurlar hosil qiladi. Real hayotdagi muammolarga tayyor bo'lmaydi.

4. Psixologik va emotsional tayyorgarlikning pastligi: ko'pchilik qizlar oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyorlanmagan – nizolarni hal qilish, sabr qilish, fikr almashish, qaror qabul qilishda qiynaladi;

Ruhiy mustaqillik va emotsional barqarorlik ustida yetarli ish olib borilmaydi.

5. Jinsiy tarbiya va reproduktiv salomatlik bo'yicha bilimlar yetishmasligi: ko'p hollarda bu mavzular taqiqlangan yoki “uyat” deb hisoblanadi. Bu esa nikohdan keyingi salbiy holatlarga (sog'liq, tushunmovchilik, hayotdan norozilik) olib kelishi mumkin.

6. Iqtisodiy mustaqillik va kasb-hunar o'rganishning yetarli emasligi:

Ayrim holatlarda qizlar kasbga ega bo'lmay turib, faqat turmushga chiqish orqali hayotini barpo qilishga majbur bo'ladi. Bu esa keyinchalik oilaviy qaramlik, muammoli munosabatlarga tobelikni kuchaytiradi.

Xulosa. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash – bu faqatgina shaxsiy yoki oilaviy masala emas, balki jamiyat taraqqiyoti, sog'lom avlod va mustahkam oilalar barpo etilishining muhim shartidir. Hozirgi kunda mavjud muammolar – ta'lim tizimidagi yetishmovchiliklar, noto'g'ri ijtimoiy stereotiplar, psixologik tayyorgarlikning sustligi – barchasi tizimli va hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalalardir.

Bu borada oila, maktab va mahalla o'zaro hamkorlikda harakat qilishi lozim. Oila – birinchi tarbiya maskani sifatida qizlarda mas'uliyat, mehr, sabr va qadriyatga sodiqlikni singdiradi. Maktab – nazariy bilim va hayotiy ko'nikmalarni beruvchi muhim maydon bo'lib, bu yo'nalishda psixologik tayyorgarlik, muloqot madaniyati, ijtimoiy rol va funksiyalarni tushuntirish bilan shug'ullanishi kerak. Mahalla esa yoshlarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, milliy an'analarni asrash va zamonaviylikni uyg'unlashtirishda vositachilik qiluvchi muhim ijtimoiy institutdir.

Ushbu uchlikning uzviy hamkorligi orqali qizlar hayotga, xususan, oilaviy hayotga ongli, mas'uliyatli va sog'lom ruhda kirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

**M A Z M U N I
BAS MAQALA**

Ермолич С.Я. Совместные образовательные программы в подготовке педагогических кадров: потенциал межгосударственного партнёрства	3
--	---

PEDAGOGIKA ILIMLERI

Pedagogika teoriyası hám tariyxı


Abdalieva P.I. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda ertaklarning ahamiyati	7
Атаджанов Х.Л., Абдуразакова Н.С. Бошланғич таълимда матнни таҳлил қилиш методи самарадорлигини баҳолаш	9
Babasheva G.B., Jiyanbayeva D.Q. Boshlangich sinf o'quvchilarini o'qitishda umummilliy qadriyatlar mohiyati	12
Bazarbaeva A.K. Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning didaktik ta'minoti	14
Bekmanova J.A., Tajimuratov A.J. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini tuzatish jarayonida logoritmik texnologiyalarni qo'llash	16
Bekniyazov B.S. Umumta'lim maktab direktorlarida taym-menejment ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariyadan amaliyotga	18
Davletova A.A. Kattalar ta'limi pedagogik muammo sifatida	21
Djoldasov R.F. O'quvchilarda jismoniy tarbiyadagi estetik xususiyatlar haqidagi nazariy bilimlarini kengaytirish	24
Ембергенова А. Ўрта мактаб ўқувчиларида маданиятлараро мулоқотни ривожлантиришнинг педагогик шартлари	27
Ешбаев А.Ж. Қарақалпақстанда инклюзив тәлимди раъажландырыў мәселелери	30
Ilyasova Z.U. Kitapqumarliq madaniyatni qaliplestirivge qaratilgan kózqaraslar	32
Isnaddinova A. Mektepke shekemgi jastagi balalarda logikalik pikirlewdi rawajlandiriv boyinsha aldingi tajiriybeler (shet el mamlektleri misalinda)	34
Каллибекова Г.А., Рейембаева А.П. Интеграция словесной, игровой и изобразительной деятельности в процессе формирования связной речи младших школьников	36
Камалов А.Б., Аширбекова С.У. Развитие исследовательской компетентности будущих учителей физики на основе STEM-подхода	38
Karimov D.D. Effectiveness of practice in gymnastics and the process of physical education of students	40
Koklenova M.A., Davletmuratov B.K. Texnologik ta'limini sun'iy intellekt bilan integrasiyalash	42
Коцанова Г.К. Использование национальных ценностей как средства мотивации учебной деятельности студентов бакалавриата	45
Kurmanov A.P. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida kreativ yondashuvlar asosida tadbirkorlik kompetentlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	47
Otarbaev A.E. Ekologik ong va fizika: maktab o'quvchilarida ilmiy tafakkur va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish	49
Pazilov M.A. Ixtisoslashtirilgan ta'lim jarayonida kognitiv yondashuvning o'quvchilardagi iqtidorni rivojlantirish xususiyatlari	52
Сапарбаева М.А. Бекманова Ж.А. Нейромоторная коррекция в работе с детьми с особыми образовательными потребностями	54
Tajimuratova K. Mektepke shekemgi ham kishi mektep jasindagi tutligip soyleytuvin balardi logopediyaliq tekseriwidin ahmiyeti	56
Tóremuratova D.M. Mektepke shekemgi bilimlendiriv shólkemlerinde bilim beriv oynlari ham olardin ahmiyeti	59
Tuxtaxojayev X.B. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida o'quv faoliyatida tajribalar natijalari tahlili	61
Turegaliyeva N. The main problems encountered in developing students' listening and	

speaking skills and their solutions	64
Turmanov Q.A. Úzliksiz kásiplik rawajlandırıw sistemasında kurs tınlawshılarınıń kásiplik hám testologiyalıq kompetentligin jetilistiriw usılları	66
Umrbekova M.U. Oliy ta'lim muassasalarida analitik kimyo fanini o'qitishning metodik tizimini takomillashtirishning ahamiyati	68
Уразимова Т.В. Педагогикалық жоқары оқыў орынлары талабаларын кәсіплек таярлаў процессинде дүньяға көркемлик көз қарасты раўажландырыў	71
Utemuratov B.K. Oqıwshılarda kommunikativlik procestıń didaktikalıq ózgeshelikleri hám onda qollanılatuǵın dialog texnologiyasınıń quramı hám xarakteri	73
Шамуратова Х.Қ. Мактабгача ёшдағи болаларға риторикани ўргатиш ва ривожлантириш компетенциялари	76
Tálim - tárbiya teoriiyası hám metodikası	
Alaminov M.X. Bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashda fanlararo tarmoq texnologiyalaridan foydalanish	79
Arziev Sh., Kalmuratov I. Jismoniy tarbiya darslarida basketbol elementlarini o'rgatishning metodik yondashuvi	81
Atiyazov S.J. So'z turkumlarini o'rganish metodikasi	83
Batirov B.B. Akademik litsey o'quvchilarining fizika fanidan tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda debat metodidan foydalanish	87
Bekmuratova U. Talabalarning mustaqil ishlarda faolligini oshirish ("Optika" bo'limini o'qitish misolida)	90
Григорьева М. Case study как современный метод изучения ситуаций по предмету «Современный литературный русский язык. Лексика»	92
Xalknazarova A.M. Matematika fanini o'qitishda differensial yondashuv samaradorligi	95
Ilyasova Z.K. Raqamli ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning axborot texnologiyalari bo'yicha fundamental bilimlarini orttirish	97
Kabulova L.B., Jumambetova N.A. Ximiyani úyreniwde laboratoriya usıllarınan paydalanıw zárúrligi	99
Safarova N.S. Diqqatni rivojlantiruvchi didaktik vositalar bilan ishlash metodikasi (Tibbiy kimyo fani misolida)	101
Utepbergenov A.K. Akmeologiyalıq jantasıw tiykarında dene tárbiyası oqıtıwshılarınıń tálim-tárbiya procesin joybarlastırıw	103
PSIXOLOGIYA ILIMLERI	
Бахронова К.Я. Болаларда хулқ-атвор бузилишларини коррекция қилиш технологиялари ва уларнинг самарадорлиги	106
Kossheterova A.J. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik jihatlari	109



Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı student jasları 2024-2025-oqıw jılı dawamında Túrkmennıstannıń Ashxabad qalasında ótkerilgen Open Mathematical Olympiad for University Students (OMOUS-2025), Xorezm wálayatınıń Úrgenish qalasında bolıp ótken Ál-Xorezmiy atındaǵı III Xalıqaralıq matematika olimpiadası, sonday-aq, respublikamızdaǵı joqarı oqıw orınları hám institut kóleminde ótkerilgen pán olimpiadalarında joqarı nátiyjelerge eristi.

Fizika-matematika fakulteti matematikanı oqıtıw metodikası kafedrası tárepinen respublikalıq hám xalıqaralıq pán olimpiadalarında joqarı nátiyjelerge erisken student jaslar xoshametlendi.



**"ORAYLÍQ AZIYA ÁSIRLER DAWAMÍNDÁ:
JÁMIYET, MÁDENIYAT, TEKSTLER"**

atamasındaǵı jámiyetlik xalıqaralıq ilimiy joybar monografiyası

Bul basılıım – Oraylıq Aziya civilizaciyasınıń tereń tariyxıy qatlamların, mádeniy miyrasın hám jazba derek kózlerin jańa ilimiy jantasıwlar menen úyreniwge baǵıshlangan.

Dıqqat, jazılıw – 2025!

Hürmetli, jurnal oqıwshıları! Eger, Siz ilim, tálim-tárbiya hám oqıtıwdıń jańa zamanagóy usılları, jańalıqları menen óz waqtında jaqınnan tanıspaqsı, ózińizdiń usı tarawdaǵı jetiskenliklerińiz hám oy-pikirlerińiz benen ortaqlaspaqsı bolsańız, «Ilim hám jámiyet» jurnalına 2025-jıl ushın jazılıwǵa mirát etemiz.

Biziń jurnalımızda barlıq tarawlar boyınsha ilimiy, ilimiy-metodikalıq maqalalar járiyalanadı.

«Ilim hám jámiyet» jurnalı Ózbekstan Respublikası Ministirler kabineti janındaǵı Joqarı Attestaciya Komissiyası kollegiyasınıń qararı menen tómende kórsetilgen pánler boyınsha ilim doktorı dárejesin alıw ushın maqalalar járiyalanıwı tiyis bolǵan ilimiy basılımlar dizimine kirgizilgen:

- 01.00.00 – fizika-matematika ilimleri;
- 03.00.00 – biologiya ilimleri;
- 05.00.00 – texnika ilimleri;
- 07.00.00 – tariyx ilimleri;
- 10.00.00 – filologiya ilimleri;
- 11.00.00 – geografiya ilimleri;
- 13.00.00 – pedagogika ilimleri;
- 19.00.00 – psixologiya ilimleri.

Jazılıw bahası - 400.000 (tört júz mıń) swm.

<i>Redaksiya mánzili: Nókis qalası, P.Seytov kóshesi, n/j.</i>	<i>«Ilim hám jámiyet» jurnalınıń esap beti:</i>
<i>Indeks: 230100, Telefon: +998612294086; +998933652520.</i>	<i>BANK: MB BB XKKM Toshkent shahri</i>
<i>JURNALDÍŇ BASÍP SHÍGARÍLÍWÍNA</i>	<i>Esap beti: 2340 2000 3001 0000 1010</i>
<i>JUWAPKER: Ájiniyaz atındaǵı NMPI baspaxanası.</i>	<i>MFO: 00014; INN: 201 122 919</i>
	<i>Ieke esap beti: 4001 1086 0354 0170 9410 0350 005</i>

<i>Maqalalardıń mazmunına hám durılıǵına avtorlar juwapker, olardıń pikirleri redakciyanıń pikirleri bolıp esaplanbaydı</i>	<i>Jurnalǵa jıl dawamında jazılǵan avtorlardıń miynetleri birinshi gezekte járiyalanadı. Maqala kólemi 6 betten kem bolmaı, 8 betten aspaı kerek.</i>
<i>Jurnal 1992-jıldan shıǵa basladı ISSN 2010-720X Indeksi: Ieke puqaralar ushın — 2101. Mákemeler ushın — 2102.</i>	<i>Basıwǵa ruxsat etildi: 15.08.2025 Buyırtpa: №0248 Format: 60x84 1/8 Kólemi: 14 b/t. Jurnal jılına 8 márte shıǵadı. Reestr № 089632</i>